

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

Azimov Aziz

Mavzu: Imom Al-G'azzoliyning sotsiologik qarashlari.

Ta'lim yo'nalishi 5310300 – Sotsiologiya

Bakalavr darajasini olish uchun taqdim etilgan

bitiruv malakaviy ishi

Ilmiy rahbar:

P.f.n., dotsent Sh. M. Ulug'ova

Buxoro-2012

Mundarija:

Kirish.....	3
I BOB. Imom G’azzoliy yashagan davrda ijtimoiy siyosiy vaziyat.....	8
1.1. Imom Al-G’azzoliyning hayoti va ijodi	8
1.2. Imom G’azzoliy qoldirgan ijtimoiy-falsafiy meros	14
II BOB. Imom G’azzoliyning sotsiologik qarashlari.	24
2.1. G’azzoliyning ta’limotida ijtimoiy munosabat, shaxs ijtimoiylashuvi va axloqi masalalari.....	24
2.2. Imom G’azzoliyning ta’limotida oila va nikoh masalalarining sotsiologik talqini.....	41
III BOB. Imom G’azzoliyning “Ihyou ulumiddin.” kitobining I juzining empirik tahlili.....	49
3.1. Empirik tadqiqot dasturi.....	49
3.2. Tahlil natijalari.....	56
Xulosa va tavsiyalar	79
Foydalanilgan adabiyotlar.....	82
Ilovalar.....	85

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi.

Mamlakatimizda hozirgi kunda jamiyatimizning barcha sohalari, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy hayotda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bunday o'zgarishlar jarayonida kelajagimiz vorislari hisoblangan yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarda yuksak kasbiy, ma'naviy fazilatlar, ma'naviy-moddiy qadriyatlarni asrash, boy merosimiz, tariximiz, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat hissini tarbiyalash milliy istiqlool g'oyasining hal qiluvchi omili hisoblanadi.

Mustaqil respublikamiz taraqqiyotining barcha jihatlari kishilarning ijtimoiy-axloqiy, shaxsiy fazilatlariga bog'liqligini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'zining ma'ruzalari va asarlarida har tomonlama asoslab berdi.

Mamlakatimizning istiqlool yo'lida rivojlanishi ma'naviyatimizning umri boqiy sarchashmalarini o'rganish uchun ijtimoiy, siyosiy, ilmiy imkoniyatlar yaratdi. Shu bois keyingi yillarda ma'naviy merosimizga bo'lgan e'tibor ancha kuchaydi. Prezidentimiz I. A. Karimov o'zlarining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarlarida¹ sharqning buyuk mutafakkir va allomalarning milliy madaniyatimizning rivojlanishiga qo'shgan betakror xissalari to'g'risida so'z yuritganlari hammamizga ma'lum. Binobarin, milliy ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy tafakkurimizning, mentalitetimizning shakllanishida sharq donishmandlarning ahamiyati shubhasiz muhim o'rin tutadi. Shunday sharq mutafakkirlaridan biri Islom olamida "Hujjatul Islom" taxallusi bilan ataladigan Abu Homid Al-G'azzoliydir. O'rta asrning mutafakkir ulamolari ilm olish va ta'lim berishda, ilmlarni tushunishda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham zaruriy deb hisoblaganlar. Shuning uhun ham o'rta asrlarda sharqning ham ma'naviy, ham madaniy hayotida taraqqiyot g'arbning taraqqiyotidan ustun turgan. Shuningdek, ma'lumki G'azzoliy ham diniy,

¹ I. A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".- T:2009-yil.(kitob.uz—Php betdan olindi.)

ham dunyoviy bilimlar bilan shug'ullanganlar. Imom G'azoliyning falsafiy fikrlari g'arb faylasuflarining qarashlariga ham ta'sir qilganligini g'arb sharqshunoslarining G'azzoliyning ilmiy merosini o'rganish ustida o'tkazgan tadqiqotlaridan bilish mumkin.

G'azzoliyning sotsiologik ta'limotlari asosan Islom dinining ta'limotlariga asoslanadi. Islomda iymon kishi xulqini tartibga soluvchi muhim mezon hisoblanadi. Insonning xulq-atvori darajasi uning iymoni mustahkamligi bilan belgilanadi. U o'zining asarlaridagi ta'lim-tarbiya, axloq-odob haqidagi fikrlarini sharqning mashhur allomalari, hadisi shariflardagi g'oyalar bilan boyitgan.

Ma'lumki sotsiologiya fan sifatida XIX asrda g'arbda vujudga kelgan. Lekin sharqda o'rta asrlarda xususan IX-XII asrlarga to'g'ri keladigan uyg'onish davrida sharq allomalari g'arbda keyinchalik ilmiy tafakkurning rivojlanishiga poydevor bo'lgan ijtimoiy hamda ilmiy fanlarga dunyo taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan ilmiy merosni qoldirganlar. Mustaqqilligimizga erishganimizdan so'ng jahon tamadduniga sezilarli iz qoldirib ketgan buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy merosni o'rganish, qayta tiklash, hamda fan sohasida o'rganilmay qolgan o'tmishdagi allomalarimizning ta'limotlarini ochib berish ishlari keng yo'lga qo'yildi. Shuni inobatga olib g'arbda o'z ijtimoiy-falsafiy, sharqda esa asosan diniy ta'limotlari bilan shuhrat qozongan Imom Al-G'azzoliyning sotsiologik qarashlarini o'rganish fandagi ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladigan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasini aniqlash uchun birinchi navbatda tarixga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi. Imom Al-G'azzoliyning ilmiy meroslarini xususan bu merosning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini butun jahonda turli olimlar o'rganishgan. Bunday olimlarni uch turga bo'lib ko'rsatish mumkin:

1. Sharqda Al-G'azzoliyning meroslarini quyidagi mutafakkirlar o'rganishgan:

Sharq dunyosida Imom Al-G'azzoliyning serqirra ilmiy merosi ko'p sonli asarlarda mutafakkirning biografik, bibliografik ma'lumotlari va, ijtimoiy, huquqiy,

diniy, falsafiy qarashlari sifatida to'plangan. Unday asarlardan Ibn Asokir, Ibn Al-Javziy va Zahabiyni misol keltirish mumkin. G'azzoliyni ilmiy merosini ijtimoiy-falsafiy jihatlarini o'rgangan olimlar qatoriga faylasuf ibn Rushd, sufizmning buyuk shayxi Ibn Arabiy, ibn Sab'in, ibn Taymiya va boshqalarni kiritish mumkin. G'azzoliy ijodining ta'sirida Ibn Rushd, Ibn Xaldun kabi mutafakkirlar yetishib chiqqan.

2. G'azzoliyning meroslarini o'rgangan G'arb olimlari

Imom G'azzoliy jahon teologiyasiga va jahon falsafasiga sezilarli hissa qo'shgani shubhasizdir. Mutafakkirning ta'limotlari Yevropaning ijtimoiy-ma'naviy atmosferasiga ham ta'sir qilgan.¹ Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Al-G'azzoliyning qarashlari Foma Akvinskiyning xristian teologiyasi va uning sxolastik sistemasiga ta'sir qilgan. G'azzoliyning ta'limotlari bilan buyuk nemis faylasufu Gegel ham tanish bo'lgan. G'azzoliy ijodining ta'sirida Immanuel Kant, Rene Dekart, David Yum, Gegel kabi mutafakkirlar yetishib chiqqanlar. Chunonchi, G. Gegel Imom G'azzoliy haqida "Mantiq va metafizikaga doir asarlar muallifi, sharqona buyuk aql egasi", - deb baho bergan.

Shuningdek G'arb va xususan rus tadqiqotchilardan G'azzoliyni biografiyasini va qarashlarini A. Shmid, A. Krimskiy, E. Bertels, V. Bartold, V. Chalyon kabi olimlar o'rganishgan. G'arbiy Yevropa va amerikalik sharqshunoslar ham G'azzoliyning merosini tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shishgan. Ulardan D Makdonald, Karra de Vo, Asin Palasios, L. Masil'on, V Uott, D Xaurani kabilarni aytib o'tish lozim. Shuningdek F. Jabre kabi olimlarni ham eslab o'tish lozim.

3. G'azzoliyning ilmiy meroslarini O'zbekistonda o'rganilganlik darajasi:

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Imom G'azzoliyning merosi ayniqsa sotsiologik ta'limotlari mustaqqillik yillaridan so'ng o'rganish yo'lga qo'yilgan. G'azzoliyning merosi, hayoti va ijodini Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Najmiddin Komilov, Bo'riboy Ahmedov, Aloviddin Mansur, Q. Munirov, Mubashshir Ahmad, Miraziz A'zam, Abduqodir Zohid, Abdulla Sher, Poyon

¹ <http://www.dissertat.com/content/idei-vospitaniya-v-trudakh-muhammada-gazali>

Ravshan, Sayfiddin Raf'iddin. Yo'ldosh Eshbek, Rashid Zohid, Mahkam Mahmud Andijoniy, Z. B. Jalilov, F. Muzaffarov kabi olimlar qisman o'rganishgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.

Imom G'azzoliyning sotsiologik qarashlarini aniqlash va bir tizimga keltirish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanilayotgan tadbirlarni takomillashtirishga amaliy ko'maklashish.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

Tadqiqotda quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. Sharq mutafakkiri Imom Al-G'azzoliyning ilmiy merosini nazariy tahlil qilish.
2. Imom Al-G'azzoliyning ijtimoiy hayotga, shaxslararo munosabatlarga, axloq sotsiologiyasiga, oilaviy munosabatlarga tegishli masalalarga taalluqli bilimlarini o'rganish asosida ularning naqadar zamonaviy fanga qilgan ta'sirini, va mutafakkirning ijtimoiy-ma'naviy sohalar rivojiga qo'shgan xissasini yosh avlodga yetkazish va shu orqali milliy g'ururni shakllanishiga sabab bo'lish.
3. Imom G'azzoliyning asarlaridan ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy qarashlarini milliy mentalitetimizga muvofiqligini inobatga olib, ularni hozirgi zamondagi ahamiyatini ko'rsatish.

Tadqiqotning obyekti.

Sharq mutafakkiri Imom Al-G'azzoliy talqinidagi o'sha davr ijtimoiy qiyofasi.

Tadqiqotning predmeti.

Imom G'azzoliy yashagan davrdagi ijtimoiy jamoalar va jarayonlar tahlili mutafakkirning voqelikka obyektiv ratsional hamda pozitiv yondashuvi xususiyatlarini tizimiy tadqiq etishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning tuzulishi:

Bitiruv malakaviy ish “Imom G’azzoliyning sotsiologik qarashlari” deb nomlanib, mundarija, kirish qismi, uchta bob, olti paragraf, xulosa, adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat.

I BOB. Imom G'azzoliy yashagan davrda ijtimoiy siyosiy vaziyat.

1.1. Imom Al-G'azzoliyning hayoti va ijodi.

Bu ulug' mutafakkirning to'liq ismlari Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Tusiy Abu Homid G'azzoliy. U kishi Tus viloyatining (hozirgi Mashhad) Tobaron nomli shaharida 450 h.s.da tavallud topganlar.

Imom G'azzoliy yashagan davrda Sharqiy Rim imperiyasi - Vizantiya poytaxti Konstantiniya (Konstantinopol, hozirgi Istanbul) iqtisodiy va harbiy jihatdan qudratli davlat, xristianlarning tayanchi hisoblanardi. Ayni vaqtda Misrda hazrat Ali avlodlarimiz deb da'vat qilgan shialarning ismoiliya mazhabi tarafdorlari kuchayib, Bag'dod xalifaligiga qarshi jon-jahdlari bilan kurashayotgan edilar. Rim va Bizans (Vizantiya) - G'arbiy va Sharqiy Rim imperiyalari o'zaro nifoqlashsa ham, islom davlatlarini bir-biri bilan urishtirishda hamjihat edilar.¹

Bag'dod xalifaligining Sharqdagi tayanchlaridan biri - g'aznaviylar davlatining so'nggi hukmdori sulton Mavdud ibn sulton Mas'ud bobosi sulton Mahmud G'aznaviy tashkil etgan qudratli islom davlatining parchalanishiga yo'l qo'yib berdi. Ularning o'rniga kelgan Saljuq hukmdorlari Alp Arslon va Malikshoh davrida islom davlatining qudrati oshib, Vizantiya imperiyasiga qarshi faol kurash boshladi.

Vizantiya imperatori Roman Diogen G'arbdan xavf solgan Misr fotimiylariga, Sharqdan bostirib kelayotgan Saljuq o'rdulariga qarshi kurashda siyosiy, diplomatik nayranglarni ishga soldi. Misrdagi fotimiylar - alaviylar davlatini Bag'dod xalifasiga va Saljuqlar davlatini Misr hamda Bag'dodga qarshi qayrab, ularning orasini buza boshladilar. Bu nayranglarni anglagan Misr lashkarboshilari avvalroq harakat qilib, 1039 yilda Sharqiy Rim saltanatiga qarshi dengiz janglarida g'olib kelib, Suriya va Falastin sohillarini Vizantiya qo'shinidan ozod qildi. 1098 yilda misrliklar Quddusi sharifni fath etib, u yerda Misr xalifaligi noibini tayinladilar.

Ammo afsuski, Mahmud G'aznaviy vafotidan keyin zaiflashgan Bag'dod xalifaligining viloyatlari hokimlari har biri o'ziga mustaqil «kichik davlat» tuzib olib, o'zaro qirg'in urushlarini boshladilar.

¹ Imom G'azzoliy "Kimyo saodat"/"Adolat" -T-2005 yil, 6-bet(dan olindi)

Eron, Hindiston, Iroq va Xurosonni o'z tasarrufiga Olgan g'aznaviylarning buyuk davlatni o'zaro nizolar zaiflashtirgach, tarix maydoniga chiqqan saljuqlar ana shu bepoyon xududlarda nisbatan tinchlik, osoyishtalik o'rnatdilar. Saljuq sultonlari Alp Arslon, so'ng Malikshoh, uning ma'rifatli vaziri Nizomul-Mulk zamonida ilm-fan va madaniyatning turli sohalari gullab-yashnadi. Shu davrlarda yetishib chiqqan Nizomiy Ganjaviy, Afzaliddin Hoqoniy, Umar Xayyom, Adib Sobir Termiziy, Rashiduddin Vatvot, Mahmud Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Fahoiddin Gurgoniy, Yusuf xos Xojib, Farididdin Attor, Abu Homid G'azzoliy kabi mutafakkir, mutasavvif allomalar Sharq ma'rifatini, ilm-fanini yuksaklarga ko'tardilar. Bulardan avvalroq Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalarning ijodi tufayli aniq fanlar tez rivojlanib, hurfikrlilik keng yoyildi, diniy, ma'naviy bilimlarga e'tibor pasaydi. Mana shunday sharoitda buyuk faylasuf Abu Homid G'azzoliy aniq fanlarni yerga urmagan holda «Ihya al-ulum ad-din»¹ («Din ilmlarining tirilishi») asarida ma'naviyatdan uzoqlashib ketgan moddiyunlik ta'limotlariga katta zarba berdi.

G'arb olimlarining e'tirof etishlaricha bu zarbadan so'ng moddiyunlik ta'limotlari bir necha asrgacha o'zini o'nglay olmadi. Ba'zilar bu fikrga qo'shilmaydilar. Sababi «Kimiyo saodat»da² G'azzoliy tabiiy ilmlarga ham hurmat bilan qaraydi. U tib ilmini ham chuqur tushuntiradi.

Imom G'azzoliyning otasi ahli solih va kambag'al odam bo'lib jun yigirish bilan kun ko'rar edi. Vafotidan oldin ota o'g'illarini o'zining so'fi og'aynisiga vasiyat qilib qoldirdi. So'fi ularni ta'lim – tarbiyasiga kirishdi. Bu ish bolalarning otasi qoldirgan mol tamom bo'lguncha davom etdi. Pul tugagandan keyin so'fi ularni boqa olmay qoldi va «Men sizlarga otangiz qoldirgan molni sarfladim. O'zimning pulim yo'q. Endi sizlar madrasaga borib yashasangiz yaxshi bo'ladi», dedi. G'azzoliy yoshligida ona yurtida Ahmad ibn Muhammad Rozkoniyan dan fiqh ilmini oldi. So'ngra Jurjonga safar qilib imom Abu Nasr Ismoilining huzurida ta'lim oldi .

¹ Imom G'azzoliy «Ihyou ulumiddiyn. Ilm kitobi.» //T: «Movorounnaxr»-2003-y, 21-bet

² Imom G'azzoliy «Kimiyo saodat»/"Adolat" -T-2005 yil, 10-bet

Keyinchalik G'azzoliy o'sha paytda saljuqiylarning poytaxti va Bag'doddan keyingi katta ilmiy markaz hisoblangan Nishopurga borib eng mashhur ulamolaridan biri bo'lgan Imomi Haramayniga shogird tushdi. G'azzoliy bu ulug' ustozning huzurida o'ta tirishqoqlik bilan o'qib fiqh, usul, xilof va jadal kabi zamonning keng tarqalgan ilmlarida peshqadam olim bo'lib yetishdi.

G'azoliyning ustози Imomi Haramayni juda ham yaxshi ko'rar va uni maqtab: «G'azoliy tubsiz dengizdir», der edi.¹

G'azzoliy o'zining to'rt yuz hamdarsidan ancha ilgari ketdi va ustoziga yordamchi bo'lib faoliyat ko'rsata boshladi. 478 h.s.da Imomi Haramayni vafot etganidan keyin G'azzoliy yigirma yetti yoshida vazir Nizomulmulkning oldiga bordi. O'sha vaqtda G'azzoliyning fazli zohir bo'lib, ilmiy shuhrati dong taratgan edi. Nizomulmulkning majlisi esa ahli ilmning oliy kengashiga aylangan edi. Barcha majlislarda, hatto motam marosimlarida ham fiqh, ilmi kalom va boshqa ilmlardan munozaralar bo'lar edi.

G'azoliy Nizomulmulkning majlisida ko'plab ulamolar bilan bahs va munozaralar qilib o'zining kimligini namoyish qildi. Hamma unga tan berdi. Oxiri vazir Nizomulmulk G'azoliyni «Nizomiya» madrasasining bosh mudarrisi etib ta'yinladi. Bu o'sha vaqtning eng obro'li diniy mansabi edi. G'azoliy bu mansabga 484 h.s.da, o'ttiz to'rt yoshida erishdi va bunday sharafiga sazovor bo'lgan eng yosh olim bo'ldi. «Nizomiya» madrasasidagi darslar olimning shuhratiga shuhrat qo'shdi, uni imomlik darajasiga olib chiqdi. Imom G'azzoliyga nafaqat ahli ilmlar, balki ahli davlatlar va ahli hukmlar ham bo'yin egdilar. Xalifalar ham Imom G'azzoliyga yaqin bo'lishga intildilar.

Abbosiy xalifalardan Muqtadiy u kishidan ba'zi ishlarni iltimos qildi. Xalifa Mustazhir Imom G'azzoliyni o'ziga do'st tutar edi. Uning iltimosiga binoan

¹ <http://IMOM.G'AZZOLIY-WWW.ISLOM.UZ>

Imom G'azzoliy botiniya ta'limoti¹ vakillariga raddiya berish uchun o'zining «Mustazhiri» kitobini yozdi.

Imom G'azzoliy o'zi yashagan davrda barcha tarafdin obro'–e'tiborning cho'qqisiga chiqdi. U kishi uchun bu dunyoda intilish mumkin bo'lgan mansab, martaba, shuhrat yoki ulug'lik qolmagan edi. Bugungi kun ta'biri bilan aytilganda inson bolasining qo'li uzatgan yerga yetadiganiga aylangan edi. Ammo Imom G'azzoliyning ko'ngillari g'ash edi. U kishi hali ilmi yaqinga erishmagan edi. Ichlarida nafsoniy kurash borar edi. Mutafakkir hamma haqiqatni anglab yetishga harakat qilar edi. Shuning uchun barcha shon-shuhratdan o'zini olib qochib chuqur va atroflicha ilmiy bahslar va izlanishlar olib borishga qaror qildilar. Bu maqsadga erishish uchun Bag'dodni tark qilib to'liq saodatni izlab ilmiy safarga chiqdilar.

G'azzoliy o'zining "Shubhalardan halos etuvchi" asarida yozishicha, u zulqada oyida 488 / 1095 - yil Bag'dodni tark etadi . Bu uzlatga chekinish 10 yil 498 / 1105 yilgacha davom etadi . Bu vaqt oralig'ida G'azzoliy Hijoz, Suriya, Falastin va boshqa ko'plab shaharlarda bo'ladi. Manbalarga ko'ra u bu davrda bir necha bor Ierusalim (Quddus)ni ziyorat qiladi .

G'azzoliy o'zining "Forscha maktublar" asarida yozishicha, u aynan Ierusalimda uch narsani bajarishga ahd qilgan.

Birinchisi - hech qachon biror - bir hukmdordan sovg'a olmaslik.

Ikkinchisi - ularga hech qachon ta'zim qilmaslik.

Uchinchisi - munozaralarda boshqa ishtirok etmaslik¹

Bag'doddagi hayoti davrida G'azzoliy asosan davlat muammolari, perepatetiklar, xristianlar va ismoiliylar bilan cheksiz munozaralar bilan band bo'lgan. Bu davrni eslab G'azzoliy shunday yozadi." Bagdodda munozaralar va poytaxtga xos bo'lgan amaldorcha ta'zimga qarshi dori yo'q edi".

Ierusalimni ziyorat qilgach G'azzoliy, ko'pgina manbalarga ko'ra, 1095 yilda Damashqqa keladi va uzlat uchun Ummaviylar jome masjidining G'arbiy minorasini

¹ VIII asrda vujudga kelgan oqim. Bu oqim tarafdorlari Quranning so'zma-so'z talqin etilishiga qarshi chiqqan va Quron oyatlarini ichki, sirli mazmunini ochish lozim degan fikrni ilgari surganlar.

tanlab, u yerda supirsh ishlari bilan mashg'ul bo'ladi. Subhiyning "Tabaqot ash-shofey" asarida yozilishicha, mutafakkir "Damashqda uzlat uchun Ummaviylar jome' masjidining Shayx Nasr Maqsidiy burchagini tanladi. Keyinchalik bu joyni "G'azzoliya" deb atay boshladilar². Kunlardan bir kun bu masjidning markaziy maydonidan ketayotgan qozilar guruhiga bir dehqon qaysidir bir ish bo'yicha o'zining savoliga javob so'raydi. Biroq qozilar uning savoliga to'liq javob berolmaydilar. Bu paytda ularning yaqinida G'azzoliy turardi. U dehqonni yoniga chaqirib, uning savoliga mufassal javob beradi. Keyinroq qozilar dehqondan G'azzoliyning bergan javobini so'raydilar. Javobni eshitib ular hayron qolishadi. Ular G'azzoliy bilan tanishgach, uning buyuk olim ekanligini anglab yetishadi. G'azzoliy bu suhbatdan so'ng, o'sha kechasiyoq Damashqni tark etadi.

G'azzoliy Ierusalimga jo'naydi. Uzlat uchun u shaharning g'arbiy rayonini tanlaydi. Aynan shu yerda u o'zining mashhur asari "Ihyou ulum ad-din"ni yozadi. 1104 yilda u Ierusalimni tark etib Hijoz orqali Tusga qaytadi. "Shubhalardan xalos etuvchi" asarida, hech qachon vataniga qaytmasligi haqida yozsada, oilasini ko'rishga bo'lgan ishtiyoqi uni Tusga boshlaydi. Ba'zi tadqiqotchilar G'azzoliyning qaytishi sababini xristianlarning Iyerusalimga salb yurishi bilan bog'laydilar. Bu taxmin haqiqatga to'g'ri kelmaydi, chunki Ierusalimga salb yurishi G'azzoliy ketganidan keyin boshlanadi. G'azzoliy bilan avvaldan tanish bo'lgan Abul G'ofur Forsiy qaytgach "uni almashtirib qo'yilganligi" haqidagi fikrni bildiradi. U boshqa munozaralarda qatnashmaydi va doimo sukut saqlagan.

1105-yilda G'azzoliy saljuq sultoni Sanjar va uning vaziri Nizom al-Mulkning o'g'li Faxr al Mulkning taklifi bilan Nishopurda Nizomiya madrasasida ta'lim bera boshlaydi. 1106-yilda sulton Sanjarning vaziri Faxr ul Mulkning o'ldirilishi G'azzoliyning Nishopurdan ketishiga sabab bo'ladi. To'g'ri, sulton Sanjar G'azzoliyga katta mansablarni taklif qiladi, lekin u buni rad etadi. 1109-yilda G'azzoliy Tusga qaytgach sulton Sanjar mutafakkirni ikkinchi bor mudarrislikka taklif etadi va yana

¹ Shamolov A.A. Problema schastya v eticheskix konsepsiyax Abu Xamila Gazali i Nasriddina Tysa// Izvestiya AN Respubliki Tadjikistan. Seriya: filosof i pravoye. 1993. № 3 str-71.

² Shamolov A.A. Problema schastya v eticheskix konsepsiyax Abu Xamila Gazali i Nasriddina Tysa// Izvestiya AN Respubliki Tadjikistan. Seriya: filosof i pravoye. 1993. № 3 str-72.

bir bor rad javobini oladi. Tusda G'azzoliy o'z hayotining oxirgi besh-olti yilida o'z talabalariga ta'lim beradiki, ularning soni 150 tadan oshib ketadi. G'azzoliy qarashlarida asosiy muammo fanlar o'rtasidagi qarama qarshiliklarni yo'qotish, avvalo, musulmonlar tomonidan rivojlantirilgan yunon ilmiy bilimlari bilan din orasidagi nomuvofiqlikka barham berish edi. Bu qarama-qarshilik, G'azzoliy fikricha, tasavvuf asosidagina bartaraf etilishi mumkin edi. U o'z vataniga qaytib, bu muammo bilan bog'liq bo'lgan qator asarlar yaratdi.

1110-yilda Juvayniyning yana bir mashhur shogirdlaridan biri Bag'doddagi Nizomiya madrasasining mudarrisi Shams al Islom Abul Hasan Kiyal Tabariy vafot etadi. Abbosiy xalifa al Mustazxar sulton Sanjarga yozgan maktubida G'azzoliyni Bag'doddagi Nizomiya madrasasiga mudarris etib tayinlashni talab qiladi. Abbosiylar xalifasi va Xuroson hukmdorining iltimosiga qaramay G'azzoliy yana bir bor ushbu taklifni rad etadi. Sababini esa javob maktubini so'ngida quyidagicha izohlaydi. "Mening hayotim cho'zildi va ayriliq vaqti keldi. Bag'dodga sayohat qilish vaqti emas"¹.

U Tus yaqinidagi Tabaron degan joyda 1111 yilning 19 dekabrda vafot etdi. Hozirda uni Xunakdagi qabri "Xoruniya binosi" deb yuritiladi. U yaratgan asarlar Islom dinining turli tarmoqlariga taalluqli bo'lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega.

G'azzoliyning jahon falsafasida tutgan o'rni juda beqiyos hisoblanadi . Shu sababli Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni muqaddimasida G'azzoliyni "ko'k gumbazi uzra bezakli qandil, falakdan turib kishilarga baxt va tole ulashadi", deb ta'riflaydi².

¹ Shamolov A.A. Problema schastya v eticheskix konsepsiyaх Abu Xamila Gazali i Nasriddina Tysa// Izvestiya AN Respubliki Tadjikistan. Seriya: filosof i pravoye. 1993. № 3 str-74.

² Alisher Navoiy.Saddi Iskandariy, Nasriy bayoni bilan. t.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot - matbaa birlashmasi, 1991. 513-bet.

1.2. Imom G'azzoliy qoldirgan ijtimoiy-falsafiy meros.

Imom Muhammad G'azzoliyning asarlari sho'rolar davrida falsafa fanida o'qitilmay, ta'qiqlab kelindi. Tilga olinsa ham «yomon, reaksion faylasuf» deb qoralandi.¹ Mustaqqilligimizga erishganimizdan so'ng boshqa sharq mutafakkirlari kabi Imom G'azzoliyning hayot yo'li va merosiga haqqoniy ilmiy jihatdan yondashishga yo'l ochildi

Imom G'azzoliy o'z davrida odamlar mashg'ul bo'lib turgan ilmlarni birma bir o'rganib chiqdilar. O'sha paytda odamlar asosan, ilmi kalom, botiniyya, falsafa va tasavvufga qiziqar edilar. Imom G'azzoliy mazkur ilmlarni chuqur egallashga va ulardan qaysi birini tanlash maqsadga muvofiq ekanini aniqlashga kirishdilar.²

Imom G'azzoliy izlanishlarini dastlab ilmi kalomdan boshladilar. Imom G'azzoliy ilmi kalomni shu sohaning olimlari va ularning kitoblaridan yaxshilab o'rganib, bu ilm bo'yicha quyidagi risolalarni yozdilar:

1. *al-Iqtisod fil E'tiqod*. (E'tiqoddagi mo'tadillik)
2. *Iljomul ovom an ilmil kalom*. (Dindorlarni quruq ilmi kalom mashg'ulotlaridan saqlash)
3. *Aqiydatu ahli sunna*. (Sunniy aqiydalar)
4. *Fazoihul botiniyya*. (Botiniylarning uyatga qolishi)
5. *Faysalut tafriqa baynal Islami vaz Zandaqa*. (Islom va dahriylik o'rtasidagi bo'linishning haqiqat mezoni)
6. *Al-Qistosul mustaqiym*. (Eng bto'g'ri o'lchov)
7. *Kimyous saoda*. (Saodat kimyosi)
8. *al-Mustazhiriyy*. (Zohir bo'luvchi)
9. *al-Maznun bihi ala g'oyri ahlihi*³.

¹ Imom G'azzoliy "Kimyoi saodat"/"Adolat" -T-2005 yil, 6-bet(dan olindi)

² <http://IMOM.G'AZZOLIY-WWW.ISLOM.UZ>

³ <http://IMOM.G'AZZOLIY-WWW.ISLOM.UZ>

Imom G'azzoliyning zamoniga kelib ilmi kalomda turg'unlik yuzaga kelgan edi. Ilmi kalom ulamolari o'tib ketgan katta imomlarning gaplarini mahkam tutib turishdan boshqa ishni qilmas edilar. Qadimgi gaplardan qilcha chetlanish yo'l qo'yib bo'lmaydigan narsa degan tushunchani qadrlar edilar. Zamon o'tishi bilan eskirib qolgan so'z va jumlarlar o'rniga kishilarga tushunarlirog'ini keltirishga jur'at qilmas edilar. Imom G'azzoliy bu narsalarning hammasini bir tarafga qo'yib ulug' ulamolarning ilmlaridan foydalangan holda erkin ijti-hod qildilar. Odamlarga yaqin uslub va tilda asarlar yozdilar va ilmi kalomda katta burilish yuz berishiga sabab bo'ldilar. Imom G'azzoliy aqiyda ilmida Qur'oni Karim uslubi eng foydali va oson ekani va ilmi kalom vaqtinchalik choraligini bayon etganlar.

Keyinchalik Imom G'azzoliy haqiqat qidirib falsafani puxta o'rganishga kirishdilar. Faylasuflar faqat falsafa bilangina haqiqatni topish, yaqiy-n va saodatga erishish mumkin der edilar. Imom G'azzoliy esa aynan o'sha narsalarni qidirayotgan edilar. U kishi falsafani ixlos ila chuqur o'rganib o'sha davrning eng kuchli faylasuflaridan biriga aylandilar. Lekin Imom G'azzoliy falsafada ham o'zlari izlayotgan haqiqat mavjud emasligiga ishonch hosil qildilar. Ammo bu narsa ulug' olimga falsafa va faylasuflar haqida adolat ila hukm chiqarishga xalaqit bermadi. U kishi bu borada o'z ilmiy izlanishlari natijasini falsafa va mantiqqa atalgan o'z kitoblarida yozib qoldirdilar. Ular quyidagilardir:

- 1. Maqosidul falosifa.**(Faylasuflarning maqsadlari)
- 2. Tahofutul falosifa.**(Faylasuflarning mantiqsizligi)
- 3. Mahkun nazar fil mantiq.**(Mantiqdagi nodir nazar)
- 4. Me'yorul ilm fil mantiq.**(Mantiqda ilm me'yorlari)
- 5. Al-Munqiz minaz Zolal.**(Adashishlardan qutqaruvchi)

Imom G'azzoliy o'z asarlarida falsafa va faylasuflarga xolisona baho berishga harakat qildilar. U kishi falsafaga oid ilmlarni oltiga bo'ladilar va ularning har biriga quyidagicha baho beradilar:

1. Aniq fanlar. Hisob, handasa, jug'rofiya kabi ilmlar. Bu narsalarda dinga aralashilmaydi. Ular aniq hujjatlarga asoslangan ilmlar. Shu bois ularni inkor qilib bo'lmaydi. Ammo musulmonlar bu narsalarni ko'rib falsafaga oid hamma narsa shu kabi bo'ladi deb aldanib qolmasliklari kerak deb, G'azzoliy ta'kidlaydi.

2. Mantiq. Bunda ham dinga tegishli narsa yo'qligi, mantiqda aqliy o'lchovlarga nazar solish, burhon muqaddimalari shartlarini o'rganish, ularning tarkibidan xabardor bo'lish zarurligi uqtiriladi.

3. Tabiiy ilmlar. Bu ilmlarda ham dinga bog'liq narsalar yo'q. Ular hammasi tajribaga suyanadigan narsalar. Shuning uchun ularni ham inkor qilib bo'lmaydi.

4.Siyosiy ilmlar. Faylasuflarning bu sohadagi barcha gaplari dunyoviy ishlarga bog'liq narsalardan iborat bo'lib ularning ko'pi Alloh taolo payg'ambarlarga nozil qilgan kitoblardan qolgan gaplardan olganlar. Shuning uchun ularning ham dinu diyonatga tegishli joyi yo'q.

5. Axloqiy ilmlar. Faylasuflarning bu boradagi ko'p gaplari so'fiylarning gaplariga to'g'ri keladi. Ulardan Islom ta'limotlariga to'g'ri keladiganini olib boshqalarini tark qilish lozim deb ko'rsatgan mutafakkir.

6. Ilohiyotga oid ilmlar. Bu borada faylasuflar o'zlari mantiqda yo'l qo'ygan shartlarga vafo qilmadilar, ulardan tashqariga chiqdilar va katta xatolarga yo'q qo'ydilar. Imom G'azzoliy asosan faylasuflarni xuddi shu borada tanqid qiladilar. Ko'pchilik falsafa haqidagi tanqidiy gaplarni umumiy lashgan holda tushunib xato qiladilar.

Imom G'azzoliy o'sha davr falsafa dunyosida tanilgan allomalarni o'z izlanishlari, tajribalariga asosanib 3 guruhga ajratganini ham ta'kidlashimiz mumkin. Allomaning fikricha falsafa, falsafiy ilmlar bilan shug'ullanayotganlar asosan Dahriylar, Tabiatchilar, Ilohiyotchilardir:

Dahriylar bu - Ular Alloh taoloning borligini va sone'ligini inkor qilgan va olam o'zini o'zi yaratgan deydi dikan zindiqlardir.¹ Tabiatchilar esa Alloh taoloning borligini e'tirof qilsalar ham qayta tirilish va so'rovni inkor qilganlari uchun dindan chiqqanlar, deydi mutafakkir Ilohiyotchilar haqida baho berib mutafakkir: "Bular ilohiyot haqida bahs yuritgan Suqrot, Aflotun, Arastu, Forobiy va Ibn Sinoga o'xshash faylasuflar. Ularning ba'zi gaplarini e'tirof qilishdan boshqa chora yo'q. Misol uchun Alloh taoloning borligini e'tirof qilishlari. Ammo ba'zi gaplarida ular adashib qolganlar²", - deb yozadi o'z asarida Imom G'azzoliy.

Imom G'azoliygacha falsafa Islomga qarshi hujum qilar va musulmon ulamolar himoyalanih bilan kifoyalana edilar. Imom G'azzoliy esa o'zlari falsafani yaxshi bilganlari uchun ayblarini anglab yetganlari uchun bevosita unga shiddatli va ayovsiz hujum qilishni yo'lga qo'y dilar. Imom G'azzoliy ko'pchilikka falsafa nima, faylasuflar kim hamda maqsadlari qandayligini anglatib olganlaridan keyin falsafani tanqid qilishga o' d dilar. Bu ishni Imom G'azzoliy asosan «Tahofutul falosifa» nomli kitoblarida amalga oshirdilar. Bu kitobning muqaddimasida Imom G'azzoliy o'sha paytlarda boshqalardan o'zlarini yuqori tutadigan toifalar chiqqanini, ular Islomiy ibodatlardan bosh tortayotganlarini, dinga shior bo'lgan namozga o'xshash narsalarga past nazar bilan qarayotganlarini, harom qilingan narsalardan saqlanmayotganlarini, ba'zilari esa butunlay dindan chiqib ketganlarini va boshqa afsuslanarli holatlar bo'layotganini aytadilar, so'ngra mazkur shaxslarning kufrga ketishlari sababi haqida quyidagilarni aytadilar: «Ammo ularning kufrlarining sababi Suqrot, Buqrot, Aflotun, Arastu kabi ulug' ismlarni, ularning izdoshlaridan aqlarini o'tkirliqi, usullarining go'zalliqi, handasa, mantiq, tabiat va ilohiyotga oid ilmlarining nozik joylarigacha bilishlari haqidagi maqtovlarini, buyuk aql sohibi bo'lganlari uchungina g'aybiyotni yaxshi tushuna olishlarini eshitganlaridir. Shuningdek, ana o'shalar aqlari o'tkir bo'lishlari va fazllari ko'p bo'lishiga qaramay shariatlar va dinlarni inkor qilishlari, dinlar to'qib chiqarilgan hiyla nayrangdan iboratligini e'tiqod qilishlari haqidagi

¹ Zindiq- Allohga va oxirat kuniga ishonmaydigan inson. G'azzoliyning zamonida Islom diniga e'tiqod qilmaganlarni zindiqlar deb atashgan

² [http: IMOM G'AZZOLIY-WWW.ISLOM.UZ](http://IMOM.G'AZZOLIY-WWW.ISLOM.UZ)

hikoyalarni tinglaganlari va bu g'oyalardan ta'sirlanganlaridandir».¹ Imom G'azzoliy yuqoridagi fikrlari bilan inson tajriba orqali o'rganishi mumkin bo'lgan ilmlarda peshqadam bo'lgan ba'zi yunon olimlarning e'tiqod masalasidagi ta'limotlari Islom ta'limotlariga to'g'ri kelmaganligi sababi tushuntirganlar.

Imom G'azzoliy o'zlarining «Tahofutul falosifa» (Faylasuflarning mantiqsizligi) kitoblariga to'rtta muqaddima yozganlar. Birinchisida o'z uslublarini, ikkinchisida faylasuflarning holini, uchinchisi va to'rtinchisida ularning shariat bilan to'qnashadigan va to'qnashmaydigan ilmlarini bayon qilganlar. Keyin esa faylasuflarni tanqid qilishga o'tganlar. Bu tanqidlar ilohiyotga va metafizikaga oid o'n oltita hamda tabiat ilmlariga tegishli to'rtta masalani o'z ichiga olgan.

G'azzoliy mazkur yigirma masaladan uchtasida faylasuflar kufarga ketganligi haqida qarorga kelganlar. O'sha uch masala quyidagilar:

1. Faylasuflarning olam qadimdir degan gaplari. Faylasuflar o'zlarining turli aqliy dalillaridan kelib chiqib olam qadimdir, u keyin paydo bo'lgan ham emas, uni birov yaratgan ham emas degan fikrni aytganlar. Imom G'azzoliy ularga olam qadimiy ilohiy iroda ila mavjud bo'lgani, o'sha iroda olamni ma'lum vaqtda vujudga kelishini irod qilgan. Undan oldin mavjud bo'lishi iroda qilinmagan edi. Shuning uchun u paydo bo'lmagan. Yangi paydo bo'lgan har bir narsa esa silsila ila oxirgi va qadimgi sababga borib taqaladi. O'sha sabab Alloh taolo ekanligini ta'kidladilar.

2. Faylasuflarning Alloh taolo juz'iy narsalarni bilmaydi degan gaplari. Faylasuflarning fikricha Alloh taolo faqat sobit kulliyotlarnigina biladi. Shu narsa uning kamoliga mos keladi. Juz'iy – mayda narsalar o'zgarib turadi. Shuning uchun ularga bog'liq ilm ham o'zgarib turadi. Ilmning o'zgarib turishi esa Alloh taoloning kamoliga to'g'ri kelmaydi. Alloh taolo insoniyatning amallarini to'p shaklida umumiy holda biladi, xolos. Odamlardan alohida shaxslarning qilgan amalini bilmaydi. Imom G'azzoliy Alloh taolo o'sha juz'iy amallarning barchasini o'zgarmas bitta ilm ila bilishini ta'kidlaydilar.

¹[http://IMOM G'AZZOLIY-www.islom.uz](http://IMOM_G'AZZOLIY-www.islom.uz)

3. Faylasuflarning oxiratda jasadlarning qayta tirilishini inkor qilishlari. Ularning fikricha oxiratda faqat ruhlar qayta tiriltiriladilar, xolos. Binobarin jannatda jismning lazzatlanishi va do'zaxda azoblanishi ham bo'lmaydi. Imom G'azoliy esa jismlarni yo'qdan bor qilishga qudrati yetgan Alloh taolo ularning chiriganidan keyin qayta tiriltirishi osonroq ekanini ta'kidlaydilar.

«Tahofutul falosifa»(Faylasuflarning mantiqsizligi) kitobning ahamiyati katta bo'lgan. Uning ahamiyati ba'zi faylasuflarni kufr ketganini bayon qilishida emas, balki falsafaning diniy e'tiqod bobida hech narsaga arziyas narsa ekanini bayon qilib berganidadir. Bu borada falsafa turli fikr, xayol, qiyos va taxminlarning yig'indisi, xolos.

Falsafani ilohiy ta'limotlar o'rnida yoki ularga teng ravishda ko'rilib turgan bir paytda uning haqida ilmiy asoslarga muvofiq tarzda bu kabi kuchli zarba berilishi tarixiy voqea edi. Imom G'azzoliy shu tariqa falsafaning obro'sini chilparchin qildilar. Faylasuflar u kishining kuchli aqli va dalillari oldida dovdirab qolishdi va deyarli birorta e'tiborga olsa bo'ladigan raddiya ham qila olishmadi.

Demak, Imom G'azzoliy yashagan o'rta asrlarda g'aybiyot olami¹ haqida falsafiy tortishuvlar avj olgandi. Bu tortishuvlarda hamma, jumladan, musulmonlar ham ishtirok etardilar. Ammo ayni musulmonlar ichidan mazkur tortishuvlardan odamlarga hech qanday naf yo'qligini anglab yetganlar ham chiqdi. O'shalardan eng ulug'i hujjatul Islom Abu Homid G'azzoliy rahmatullohi alayh edilar. Imom G'azzoliy falsafani chuqur o'rgangan edilar. O'zlarining haqiqatni izlash yo'lida olib borgan izlanishlari davomida haqiqat falsafada bo'lsa, ajab emas, degan fikrga ham borgan edilar. Ammo falsafa u kishi axtarayotgan haqiqatni bera olmasligini tushundilar. Shu bilan birga falsafaning zaif joylarini chuqur anglab yetdilar. Imom G'azzoliy falsafaning eng katta xatolaridan biri g'ayb olami – metafizika haqidagi tortishuvlar ekanini ochiq - oydin aytdilar. Bu fikrning to'g'riligini isbotlash

¹ G'aybiyot olami (metafizika)- his qilish doirasidan tashqaridagi olam, ya'ni inson sezgi a'zolari orqali bilishi mumkin bo'lmagan olam. Metafizika (lug'aviy ma'nosi yunoncha "fizikadan keyin" degani.) – Falsafaning bir bo'limi.

uchun faylasuflarning metafizikaga oid tortishuvlaridan bir nechasini oldilar.

Misol uchun olamning azaliyligi yoki keyin paydo bo'lganligi haqidagi masala. Uning xatosini Imom G'azzoliy «Takofu'ul adillati ala qidamil olami va hudusihi» - Olamning qadimligi yoki keyin paydo bo'lganligi haqidagi dalillarning tengligi nomli bahslarida yorqin aqliy tahlil va inkor qilib bo'lmaydigan dalil-hujjatlar ila isbotlab berdilar. Qadimdan faylasuflar bu masalada ikkiga bo'linib olib tortishib kelganlar. Ba'zilari olam azaliy - qadimiy desa, boshqalari olam hodis – keyin paydo bo'lgan, degan. Ikki taraf ham o'zining gapi to'g'riligiga aqliy dalil olib keladi. Ikkisining dalili ham o'ziga to'g'ri ko'rinadi. Ikkisi ham qarshi tarafga bir xil muvaffaqiyat bilan raddiya qiladi. Qadimdan shunday bo'lib kelmoqda edi. Bunga Imom G'azzoliy Yunon faylasuflaridan oldingilarning, yunonlarning va ulardan keyin kelgan faylasuflarning dalillarini birma bir keltirib bayon qildilar. Bu tortishuv bundan keyin qiyomatgacha ham davom etaveradi, deyдилar Imom G'azzoliy. Ammo undan odamlarga zarracha foyda bo'lmaydi. Imom G'azzoliyning fikrlaricha, faylasuflarning mazkur tortishuvlari oxiriga yetishi mumkin ham emas. Chunki ular o'zlaridan mutlaq g'aybdagi narsa haqida tortishmoqdalar. O'zlari ichida turgan olamning asli haqida tortishuvni ularga kim qo'yibdi. Biror narsa haqida baho berish uchun uning tashqarisida bo'lish kerak. Olamning ichida turgan odam uning azaliy yoki yangi paydo bo'lganini qayerdan bilsin?! Uning o'rniga inson qo'l ostida turgan narsalarni o'rganishga harakat qilishi kerak, deyдилar Imom G'azzoliy. Misol uchun, nega temirni olovga tutsa kuymaydi-yu, paxtani tutsa kuyadi? Mana shu masalani o'ylab ko'rish kerak. Paxta o'zida kuyishga qobiliyati borligi uchun kuymoqdami yoki olovdagi kuydirish qobiliyati ila kuymoqdami?

Imom G'azzoliy rahmatullohi alayhning bu fikrlari musulmonlarda tajribiy ilmlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Imom G'azzoliy tajribiy ilmlarning kelib chiqishiga turtki bo'lgan fikr sohibi sifatida dunyo ilmiy tarixida munosib joy olgan ulkan aql sohibi bo'lgan musulmon shaxs sifatida mashhur bo'ldilar. O'rta asrlarda mazkur nazariyaga amal qilish oqibatida, Islom olamida tabiiy ilmlar keng rivoj

topdi. Ulardan asta – sekin ovropoliklarga o'tdi va ular bu ilmlarni yana ham rivojlantirib katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Imom G'azzoliy va boshqa musulmonlar insonga o'zidagi aql va zakovatni o'zining imkoni darajasida, o'ziga foyda beradigan tarzda ishlatishni taklif qiladilar. Insonning aql doirasidan tashqarida, ming tortishsa ham foyda bermaydigan g'aybiy olam – metafizikaga oid ma'lumotlarni esa tayyor ishonchli manbadan, ya'ni, Alloh taoloning O'zi dinlar orqali bergan xabarlardan olishni taklif qiladilar. Diniy aqiydalarga oid ma'lumotlar aynan g'aybiyot olami – metafizikaga oiddir.

Hozirgacha ko'pchilik musulmonlar, jumladan, Imom G'azzoliy falsafani butunlay kufrga chiqargan degan xayolda yuradilar. Ammo avval o'rganib o'tganimizdek aslida unday emas. Imom G'azzoliy falsafani oltidan birini, ilohiyotga tegishli yerini, yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, ilohiyotga tegishli yigirmata masaladan uchtasini kufr ekanini bayon qilganlar, xolos. Ammo u kishining o'zlari kuchli faylasuf bo'lganlari aniq. Balki kuchli faylasuf bo'libgina qolmay falsafada tubdan burulish yasagan va uni to'g'ri yo'nalishga yo'llagan alloma sifatida tanilganlar.

Imom G'azzoliy yashagan davrda falsafiy ta'limotlar kabi botiniylar ham o'z fikr va ta'limotlari ila ko'pchilikning e'tiborini qozongan edi. U kishi o'z odatlaricha bu mazhabni ham chuqur o'rganib chiqdilar. Oxiri borib ularning gaplarining barchasi ham sariq chaqaga arziyasligini tushunib yetdilar va o'z kitoblari bilan bu mazhabning ham sharmandasini chiqardilar. Bu borada Imom G'azzoliy bir necha kitoblarni tasnif qildilar:

- 1. *Al-Mustazhiri*.**(Zohir bo'luvchi)
- 2. *Hujjatul haqqi*.**(Haq hujjati)
- 3. *Mafsalul xilof*.**(Aniq ziddiyatlar)
- 4. *Qosimil botiniya*.**(Botiniy qasamlar)
- 5. *Mavohimul botiniya*.** (Botiniylarning (behuda) o'y-hayollari)

Ilmi kalom, falsafa va botiniyadan o'zlari izlagan ilmi yaqiyini topishdan umidi uzilgan Imom G'azzoliy o'sha vaqtning yana bir ma'rifat o'chog'i bo'lgan tasavvufga yuzlandilar. Bu haqda u kishi o'zlarining «al-Munqiz minaz Zolal» nomli kitoblarida jumladan quyidagilarni aytadilar: «So'ngra ushbu ilmlardan forig' bo'lganimdan keyin bori himmatim ila so'filik yo'liga yo'llandim. Men ularning yo'li ilm va amal ila batamom bo'lishini anglab yetdim. Ularning amalining hosili havo'i nafs to'siqlarini kesib o'tishdan, yomon xulqlardan va chirkin sifatlardan poklanib qalbni Alloh taolodan boshqaga joy qoldirmaslik va uni Allohning zikri ila ziynatlashdan iborat edi». «Men uchun ilm amaldan ko'ra osonroq edi. Men ularning kitoblarini o'qib ilmlarini hosil qilishdan boshladim. Abu Tolib Makkiy rahmatullohi alayhning «Quvtul qulub»ini, Horis Muhoribiyning kitoblarini, shuningdek, Junayd, Shibiliy, Abu Yaziyd Bistomiy qaddasallohu arvohahum va boshqa mashoyixlarining qoldirgan fikrlarini o'rgandim. Oxiri ularning ilmiy maqsadlarining g'oyasiga yetishdim. Ularning yo'li bo'yicha ta'lim olish va eshitish bilan hosil qilish mumkin narsalarni hosil qildim. Menga ularning eng xos narsalari ta'lim olish orqali emas zavq, hol va sifatlarning o'zgarishi orqali bo'lishini anglab yetdim».

Asta sekin Imom G'azzoliy tasavvuf yo'lidan tasirlanib hamma narsani, jumladan Bag'dodni ham tashlab safarga chiqdilar. O'n yillik tajribadan so'ng o'zlari izlab yurgan haqiqat tasavvufda ekanini anglab yetdilar. Bu borada ma'lum maqomga erishib ko'ngillari taskin topgandan so'ng ilmga va musulmonlarga xizmat qilish lozimligini his qilib yana dars berishga, ilmiy xizmatlarga qaytdilar. Muta'fakkir o'zining ijtimoiy ta'limotlarining ko'p qismini aynan tasavvufga oid asarlarida yozib qoldirgan. Imom G'azzoliyning boshqa olimlardan ajratib turadigan ikki xislatlari bor edi. Ulardan birinchisi o'z davrlarida tarqalgan barcha ilmlarni puxta egallaganlari. Biz yuqorida o'tgan satrlarda u kishining aqoid, botiniyyaga qarshi va falsafa hamda mantiq ilmlariga oid kitoblari ro'yxatini keltirdik. Endi tasavvuf va dinga oid kitoblari bilan tanishaylik:

1. Odo'bus so'fiyya.

2. Al-Arba'un fi usuluddin.

5. Al-Risola al-Laduniyya.

6. Mishkotul Anvor.

3. *Eh'you ulumud Diyn.*

7. *Minhojul Obidiyn ilal Jannati.*

4. *Javohirul Qur'on va duraruhu.*

8. *Miyzonul Amal.*

Imom G'azzoliyning hamma kitoblari o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Ammo ularning ichida «Eh'you ulumud Diyn» kitobi alohida e'tibor qozongan kitobdir. Bu kitobni hamma olimlar va tolibi ilmlar o'qigan va o'qimoqdalar. Imom G'azzoliy “Ihyou ulumiddin” kitobida kishining shaxsiy kamolotida tasavvufning rolini bayon qilish bilan birga ijtimoiylashuv, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy konfliktlar, ijtimoiy institutlar, shaxs axloqi va odobi kabi sotsiologiya fani doirasida o'rganiladigan masalalarni ham atroflicha bayon etgan.

I bobga doir qisqacha xulosa.

Xulosa qilib aytganda XI asr oxiri - XII asr boshlarida jamiyatning ma'naviy ahvoli yangi bir bosqichda uyg'unlashuv va muvozanatni taqozo etardi. G'azzoliy ijodi ushbu ehtiyojga eng mukammal javob bo'ldi. O'zaro bahs va nizolar o'rniga el ma'naviyatida shunday bir uyg'un muvozanat taklif etildiki, uning barcha toifa va yo'nalishlar, barcha ijtimoiy guruhlar va fikriy oqimlarga o'zaro yaqinlashuv imkonini beruvchi qudrati va mazmun boyligi yaqqol sezildi. G'azzoliy sunna va tasavvuf qadriyatlarini uyg'un ekanligini isbotlab qo'yaqolmay, imon, ilm va irfonning yaxlitligini mantiqiy asoslab berdi. Shu bilan birga G'azzoliyning ilmiy-ijodiy faoliyati mintaq xalqlari ijtimoiy birdamligiga va ma'naviy kamolotini islom ma'rifatchiligi bosqichidan tasavvuf irfoni bosqichiga uzil - kesil olib o'tib qo'yishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

II BOB. Imom G'azzoliyning sotsiologik qarashlari.

2.1. G'azzoliyning ta'limotida ijtimoiy munosabat, shaxs ijtimoiylashuvi va axloqi masalalari.

G'azzoliy o'z asarlarida ijtimoiy munosabat masalalariga, xususan ijtimoiy munosabat subyektlarining muomala normalariga yetarlicha ahamiyat qaratgan.

Ma'lumki inson jamiyatda ma'naviy jihatdan o'ziga o'xshagan shaxslar bilan munosabat o'rnatishga va asosan ular bilan do'stlashishga harakat qiladi. Bu shaxslarning jamiyatda bir-birlariga o'zaro ijtimoiy ta'sirlari borligidan dalolat beradi. G'azzoliyning ijtimoiy munosabatlarga doir ta'limotlarida shu muhim jihat ham nazardan chetda qolmagan. G'azzoliy "Ihyo" sida yozadiki:—Payg'ambar s.a.v. hadislarida shunday deyiladi: "Kishi do'stining dinida bo'ladi. Sizlardan biringiz bir kishi bilan do'stlashmoqchi bo'lsa, yaxshilab qarasin", ya'ni uning odob-axloqi va diniy onatidan xabardor bo'lsin.

G'azzoliy har bir kishi ham suhbatdosh bo'lishga yarayvermaydi, deydi. Shuning uchun suhbatdoshning sifat va xislatlarini yaxshi bilish lozim bo'ladi. Shu sifatlariga ko'ra, u bilan suhbat quriladi. Bu xislatlar mol-dunyo, mansab, obro'lardan foydalanish kabi dunyoviy yoki muloqot etish, so'zlashib bir-biri bilan ulfatchilikning o'zi bo'lishi mumkin. Suhbatdosh bo'lishda turli maqsadlar jam bo'ladi. Masalan, suhbatdoshdan ilm olish va unga amal etish bilan foyda topish, qalbining qorayishi, ibodatdan to'silish bilan o'ziga aziyat yetishidan himoya topishda mansabdor suhbatdoshdan foydalanish, rizq-ro'z talabida vaqtni o'tkazishdan o'zini saqlashda suhbatdoshining moliyaviy yordami bilan kifoyalanish suhbat foydalaridan hisoblanadi, deydi mutafakkir. Turli muhim ishlarni amalga oshirishda suhbatdoshdan yordam talab etish uning foydasi sirasiga kiradi. Suhbatdosh musibatlarda himoya vositasi va turli hollarda quvvat manbai bo'ladi.

G'azzoliy shaxs suhbatdoshida besh xislat mavjudligini ta'kidlaydi. Bular: suhbatdosh oqil; xushxulq bo'lishi, fisq-fujur va bida'tdan uzoqda bo'lishi, dunyoga xaris bo'lmasligi.

G'azzoliy jamiyatda insoniy munosabatlar tizimida do'stlashish va birodar bo'lishni shaxslararo ijtimoiy distansiyani (masofa) yaqinlashtiruvchi eng kuchli omil sifatida qarab, bu birodarlikni o'zaro haq-huquqlarga rioya etgan holda bo'lishi ijtimoiy munosabatlarni yanada mustahkamlashini ta'kidlaydi. G'azzoliy bunday haq-huquqlarni tizimlashtirib bir necha turga bo'lgan. G'azzoliy o'z asarida shaxsning o'z birodari ustidagi haqlarini bayon qilib yozadiki:

“Insonning o'z birodaridari ustidagi birinchi haqqi — uning hojatlarini chiqarish, bajarish. Buning bir qator darajalari mavjud. Eng quyisi shuki, qodir bo'lishicha birodari so'ragan narsani ochiqyuz va xursandchilik bilan berish.

O'rtachasi shuki, birodari biror narsani so'ramasidan oldin uning hojatlarini ravo etish.

Eng oliysi esa ehtiyojini to'la bajarish, uning ehtiyojlarini o'zining ehtiyojidan muqaddam ado etishdir.

Solih salaflardan biri do'stining vafotidan qirq yil o'tsa ham, uning ahli-ayoli hojatlaridan ogoh bo'lib, ehtiyojlarini ravo etgan ekan.

Ikkinchi haqqi — ba'zan sukut qilish va goho so'zlash. Sukut etish shuki, do'stining ayblarini uning borida ham, yo'g'ida ham zikr etishdan tiyiladi. (Agar hech kim bo'lmasa, uning ayblarini o'ziga bildirish vojib. Hadisi sharifda aytilinishicha: "Kishi birodarining ko'zqusidir". Unga rad javobini aytish, befoyda bahslashish, tortishish va munoqasha etishdan tiyilish zarur. Birodari bilinib qolishini istamaydigan holatlardan savol bermaslik, unga yo'liqqan vaqtda "Qayerga ketyapsiz?" deb so'ramaslik kerak. Balki u borayotgan joyini bildirishni istamas. Birodarining sirlarini, agar o'rtağa jafo tushsa ham, saqlash, uning do'stlari va ahlini haqorat qilmaslik, u haqda o'zgalarning yomonlashlarini unga yetkazmaslik darkor.

Birodari yomon ko'radigan barcha narsalar borasida sukutda bo'lish lozim. Faqat amri ma'ruf yoki nahiy munkar ishida so'zlash vojib bo'lsa, sukut etmaydi. Birodarining ro'parasida shunday yo'l tutish bir ma'noda unga yaxshilik bo'ladi”.¹

¹ “Minhojul qosidiyn. G'azzoliy “Ihyosiga muxtasar”, Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. “TIU” nashriyoti, T-2009 yil, 127-bet(dan olindi)

Imom G'azzoliy inson boshqa insonlardan ayb qidirishga harakat qilmasligi kerakligini uqtirib "bilingki, chindan ham barcha aybu nuqsondan pok insonni istasangiz, uni hech qachon topa olmaysiz. Kimning yaxshiliklari yomonliklaridan ko'p bo'lsa, bu ulug'likdir. Ibn Muborak aytdilar: "Mo'min kishi uzrlarni qabul etad, munofiq esa xato, yanglishishlarni istaydi". Fuzayl aytadilar: "Mard deb birodarlarining xatolarini kechirgan kishiga aytiladi. Do'sting haqida yomon gumon etishni tark qilish zarur. Imkonning boricha uning fe'lini yaxshilikka yo'yish lozim",- deb yozadilar va ushbu hadis bilan fikrlarini quvvatlaydilar:

"Sizlar gumondan ehtiyot bo'linglar! Zero, chindan ham gumon so'zlarning eng yomonidir".

G'azzoliy ijtimoiy munosabatlarga putur yetkazuvchi shaxsiy adovatni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan o'zgalardan yomon gumonda bo'lishdan qaytaradi.

"Bilingki, yomon gumon qaytarilgan amal hisoblanmish josuslikka boshlaydi. Chindan ham ayblarni berkitish va ularga beparvo bo'lish — din ahlining siymosidir",- deb yozadi mutafakkir.

Malumki sharqda g'arbdan farqli o'laroq azaldan kollektivizm jamiyatda, ijtimoiy munosabatlarda ko'rinib kelgan. Bu omil sharqda jamiyat a'zolarining o'zaro mehr rishtalarini bog'lashligi bilan jamiyatining hamjihatligini taminlab kelgan. Biz sharqdagi kollektivizm ildizini G'azzoliyning asarlarini ko'rib chiqib, sharqdagi kollektivizm g'oyalariga G'azzoliy kabi sharq mutafakkirlarning Islom ta'limotlatiga asoslangan qarashlari sabab bo'lgan degan xulosaga kelamiz. G'azzoliy shaxsdagi egoizmni qoralab yozadiki: "Bilingki, kishining iymoni yaxshi ko'rgan narsasini birodariga ham ravo ko'rmagunicha mukammal bo'lmaydi. Oxirat darajalarining eng quyisi — o'ziga muomala qilinishida yaxshi ko'rgan narsa bilan birodariga qilgan muomaladir. Hech shubha yo'qki birodaringizdan sirlaringizni berkitishini istaysiz. Va yomonliklaringizdan sukut etishini istaysiz, bas, agar buning ziddi zohir bo'lsa, sizga juda qiyin bo'ladi. Birodaringizga azmu qaror etmagan narsangizni undan kutishingiz qanday bo'ladi?

O'zingiz qilmagan insofni har qachon boshqadan kutsangiz, Alloh taoloning quyidagi oyati ostiga kirib qolasiz; "Ular odamlardan (biror narsani) o'lchab olgan

vaqtlarida to'la qilib oladigan, ularga o'lchab yoki tortib bergan vaqtlarida esa kam qilib beradigan kimsalardir" ("Mutaffifin" surasi, 2—3-oyatlar)"¹

G'azzoliy jamiyatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan konfliktli holatlarni tahlil qilib konfliktogen omillarni paydo bo'lishini oldini olishni tavsiya qiladi.

Mutafakkir konfliktning oqibati dushmanchilik ekanligini ta'kidlab:

“Bilingki, birodarlar o'rtasida bir-birlarini yomon ko'rish va hasad sabablaridan eng kuchlisi va zararlisi befoyda va o'rinsiz tortishuvdir. Inson o'zining fazilati va aqli ziyodaligini boshqalar oldida izhor etish hamda bahs etuvchini tahqirlash maqsadida bunday tortishuvlarga kirishadi. Kim birodari bilan befoyda bahslashar ekan, uni johil va ahmoqqa chiqaradi yoki go'yo o'zi yaxshi bilgan mavzuni birodari tushunmaydi va bunda xato qildi, deb o'ylaydi. Bu ishlarning barchasi birodariga nisbatan haqorat hisoblanadi va uning achchiqlanishini keltirib chiqaradi o'rtada esa dushmanlikni yuzaga keltiradi. Bu birodarlikning ziddidir”,- deb yozadi.

“Insonning o'z birodari ustidagi to'rtinchi haqqi — til bilan so'zlash. Darhaqiqat, birodarlik makruh narsada sukut etishni taqozo qilganidek, sevimli narsani unga so'zlashni talab etadi. Bu narsa birodarlikka xosdir, zero kim sukut bilan qanoat etsa, qabr ahliga do'st bo'ladi. Birodarlik deganda ulardan manfaat topish tushuniladi, ulardan xalos bo'lish iroda etilmaydi. Chunki sukutning ma'nosi aziyatdan tiyilishdir. Bas, birodariga tili bilan do'stligini izhor etishi lozim. Uning hol-ahvolidan xabardor bo'lishi, so'rab-surishtirishi, shu sababdan qalbi u bilan bog'liq ekanini izhor etishi, birodari xursand bo'ladigan holatlarda u ham quvonchini bildirishi zarur. Hadisda aytiladiki: "Agar bir kishi birodarini do'st tutsa, bas, do'st-birodarligini unga bildirsin". Ya'ni "Men sizni Alloh yo'lida do'st tutaman", degan so'zlar bilan birodarligini izhor etishi lozim.

Birodaringizni unga sevimli ismlar bilan chaqirish ham do'stlikdan hisoblanadi. Umar ibn Xattob r.a. aytdilar: "Uchta xislat senga birodaring do'stligini musaffo

¹ “Minhojul qosidiyn. G'azzoliy “Ihyosiga muxtasar”, Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy/“TIU” nashriyoti, T-2009 yil, 127-bet(dan olindi)

etadi: unga ro'baro' kelsang, salom berishing, majlisda unga joy ko'rsatishing va uni o'ziga suyumli nomlar bilan chaqirishing".¹

Shu jumladan yaxshi so'zlar bilan uni madh etishingiz va chiroyli ahvollari kimning oldida maqtalishini xohlasa, o'sha yerda uni maqtashingiz kerak. Shuningdek, uning farzandlari, ahlu ayolini va qilgan ishlarini madh etish, uning xulq-odobini va aqlu-zakovatini, tashqi qiyofasini, xatini, tasnif etgan kitoblarini, qo'yingki, uni xursand qiladigan narsalarni chegaradan chiqmay va yolg'on ishlatmay maqtash lozim.

Shu kabi kim uni madh etgan bo'lsa, xursaddchilikni izhor etish bilan unga yetkazish lozim, undan bu maqto'vni berkitish ayni hasad hisoblanadi.

Yana sizga qilgan yaxshiliklariga rahmat aytishingiz va agar yo'qligida unga bir yomonlik qasd etilsa, uni bartaraf etishingiz ham lozim. Birodarning himoyasida va unga yordam berihda yeng shimarib harakat etish birodarlik haqqi hisoblanadi.

Sahih hadisi sharifda kelganki: "Musulmon musulmonga do'st-birodar, unga zulm ham qilmaydi va uni o'z holiga tashlab ham qo'ymaydi". Birodari or-nomusini himoya etihda beparvolik qilish uni o'z holiga tashlab qo'yish bo'ladi.

Bu bobda ikki o'lchovni taqdim etamiz:

1. Aytilgan narsani mulohaza etasiz. Sizning hozirligingizda sizning haqingizda bir so'z aytildi, bas, (u aytishni) yaxshi ko'rgan narsani siz aytasiz.

2. Sizning haqinshzda aytilayotgan so'zni birodaringiz devor ortida turib eshitdi, deb fikr etishingiz. Uning huzurida unga yordam berishga qalbingiz qanchalik amr etsa, uning yo'qligida ham unga shunday yordam qo'lini uzatishingiz kerak. Kim do'stligiga haqiqiy muxlis bo'lmabdi, u munofiqdir.

Shuningdek, birodarga ta'lim va nasihat berish lozim, chunki uning ilmga hojati mol-dunyoga ehtiyojidan kam emas. Agar siz olim bo'lsangiz, unga hamdard bo'lib, to'g'ri yo'lga yo'llang.

Birodarga nasihatingiz yashirin bo'lishi lozim. Tanbeh va nasihat o'rtasidagi farq — ochiq va ravshan etishdir, murosa bilan tilyog'lamalik qilish o'rtasidagi farq

¹ "Minhojul qosidiyn. G'azzoliy "Ihyosiga muxtasar", Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. "TIU" nashriyoti, T-2009 yil, 129-bet(dan olindi)

shuki, agar diningizni saqlash uchun uni o'z holiga tashlab qo'ysangiz va undan ko'z yumishingiz bilan birodaringiz ahvoli yaxshi bo'lganini ko'rsangiz, siz u bilan murosa etgan bo'lasiz. Agar baxtu-saodatingiz uchun va istagan narsangizga yetishish va mansabingizni saqlab qolish yo'lida undan ko'z yumadigan va uni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsangiz, bas, siz haqiqiy tilyog'lamachisiz.

Yana shulardan — xatolarni avf etish. Agar birodaringiz xatosi dinida bo'lsa, imkonni boricha nasihat etishda lutf ko'rsatasdz. Uni koyish va unga nasihat qilishdan to'xtamaysiz. Agar bosh tortsa, jiddiy va talabchan bo'linadi.

Beshinchi haqqi - birodari hayotligida va vafotidan keyin ham o'ziga qilgan barcha duolar bilan duo qilish.

Oltinchi haqqi — vafo va ixlos ko'rsatish. Vafoning ma'nosi — vafot etgunga qadar birodariga va uning vafotidan keyin uning farzandu do'stlariga ham muhabbatda sobit davom etishdir. Payg'ambarimiz alayhissalom bir kampirni ikrom qilib bunday dedilar: "U xotin Xadicha zamonida bizlarnikiga kelib-ketib turardi. Haqiqatdan ham ahdiga chiroyli vafo etish iymondandir".

Birodariga tavoze'da hech bir o'zgarmaslik ham vafodan hisoblanadi. Agar obro'si ko'tarilib, nufuzi kengayib va mansabi ulug' bo'lsa ham, bir ravishda bo'lishi lozim.

Yana vafodan biri do'sti to'g'risidagi yomon xabarlarni eshitmaslik va birodarining dushmani so'zini tasdiqlamaslik.

Yettinchi haqqi — yengillikni istash, takalluf va sermulozamatlikni tark etish. Bu birodarini mashaqqatga soladigan narsaga taklif etmaslikdir. Uning muhim ishlari va hojatlariidan ko'nglini shod etishi zarur. Do'stining mansabidan va mol-dunyosidan foydalanmaydi. Uni o'zining ahvolidan xabardor bo'lishga, huquqlarini ado etishga va uni hurmat qilib, unga tavoze' qilishga taklif etmaydi. Balki yagona Allohning yo'lida uni do'st tutish, duosi barokati va muloqotidan bahramand bo'lish, dinga yordam berish, uning huquqlarini bajarish orqali Alloh taologa yaqin bo'lishni umid etish uning maqsadi bo'lishi kerak. Birodari o'zidan uyalmaydigan narsalarda undan hayo etmasligi uchun kamtarlik bisotini yig'ishtirish yengillikning eng yuqori kamolotidir.

Ja'far ibn Muhammad aytdi: "Menga mashaqqat keltiruvchi va men undan ehtiyot bo'luvchi odam eng og'ir birodarimdir".¹

Hozirgi mahallalardan tashkil topgan kishilik jamiyatimizda har bir xonadonning qoshnisi mavjud. Shuning uchun inson ko'pincha o'z qoshnilari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishiga to'g'ri keladi. G'azzoliy ta'limotida qo'shnichilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratgan.

Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v aytganlarki, agar qo'shni yordam so'rasa, yordam ber. Agar qarz so'rasa, qarz ber. Agar kambag'al bo'lsa, yordam ber, kasal bo'lsa, borib ko'rgin. Uyning tomini uning uyi tomidan baland qilmagin, shamol va havoni to'sadi, hatto tutunni uning tomoniga borishiga yo'l qo'yma...

Xalqimizda yaxshi qo'shni qarindoshdan yaqin, degan ran bor. Buning boisi shuki, Islomda qo'shnichilikka alohida e'tibor beriladi. Qo'shnichilik masalasi Islomda alohida o'rin egallaydi. Payg'ambarimiz s.a.v. qo'shnilarni 3 toifaga bo'lganlar. Bular bitta haqqi bo'lgan qo'shni, ikkita haqqi bo'lgan qo'shni, uchta haqqi bo'lgan qo'shni.

Uchta haqqi bo'lgan qo'shni, musulmon va qarindoshdir. Bunday qo'shnisi bor kishi qo'shnisiga nisbatan ham qosh'nilik haq-huquqiga, ham dindoshlik va qarindoshlik haq-huquqlariga rioya qilishi kerak Ikki haqqi bo'lgan qo'shni qarindosh bo'lmagan qo'shni. Bir haqqi bo'lgan qo'shni butparast qo'shnidir. Musulmon odobiga ko'ra, ularning hammasiga yaxshilik qilish buyurilgan. Yaxshi qo'shnichilik bir-biriga qut-baraka keltiradi, yomon qo'shnichilik munosabatlari esa aksincha. "Maskanning barokoti turar joyining kengligi va qo'shnilarining yaxshi insonlar bo'lishidir. Bebarakaligi turar joy torligi va qo'shnilarining yomon fe'l-atvorli insonlar bo'lishi bilan bog'liq".

Qo'shnilar inoq, do'st bo'lib, hamjihat yashashlari lozim bo'lib, o'zaro ma'lum munosabatda bo'ladilar.

"Qo'shnichilik burchi, — deb yozadi G'azzoliy, — faqatgina qo'shniga azob bermaslikdan iborat emas. Qo'shni uchun qandaydir qiyinchilikni zimmasiga olish

¹ "Minhojul qosidiyn. G'azzoliy "Ihyosiga muxtasar", Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. /"TIU" nashriyoti, T-2009 yil, 132-bet(dan olindi)

ham kerak bo'ladi. Chunki, qo'shniga azob bermaslikning o'zi ham burch o'taldi, degani emas. Buning uchun hatto ma'lum bir qiyinchilik yo noqulay ahvolga tushib qolganda chidash ham lozim. Chunki shu bilan birgalikda qo'shniga yaxshi (mehr bilan) va muloyim muomala qilish, unga xayr-sadaqa qo'lini uzatish ham kerakdir".

Qo'shnichilik munosabatlarida Islomda urf hisoblanadigan, ya'ni o'zi istamagan narsani qo'shnisiga ham istamaslik qoidasi mezon bo'lishi kerak. Bunga G'azzoliy "Mukoshafat-ul Qulub" asarida ibratli bir hikoya keltiradi.

Bir odam, uyida sichqon ko'payganidan shikoyat qiladi. Unga "Bir mushuk topsang bo'larkan!" degan maslahat beriladi. U esa o'ziga bunday deganlarga javob berib:

–Sichqonlar mushuk kelganini sezib, qo'shnimizning uyiga qochishlari va shu tariqa o'zim xohlamagan narsani qo'shninga xohlaganday bir ahvolga tushib qolarmikanman, degan andishadaman.

Imom G'azzoliy Islom odob-axloqidan kelib chiqib, qo'shnichilik burchlarini birma-bir bayon qiladilar.¹ Bular, quyidagilar:

Qo'shni bilan uchrashganda salom berish; kasal bo'lganda borib ko'rish; qo'shni boshiga musibat tushganda ta'ziyasiga borish; sevinchli onlarida qutlash; xatolarini ko'rmaslikka olish; uyini josuslarcha kuzatmaslik; devoriga bir narsalar qo'yib yoki osib g'ashini keltirmaslik; uyining oldiga axlat to'kmaslik; o'tish joylarini toraytirmaslik; har xil bahona bilan uyiga qaramaslik; eshitgan oilaviy sirlarini yoymaslik; uning sha'nini himoya qilish; qo'shni yo'qligida uyini qo'riqlash; bolasiga shirin so'z aytish; diniy va axloqiy, dunyoviy masalalarda bilmaganlarini o'rgatish.

Shuningdek, Payg'ambarimiz s.a.v. o'z hadislarida qo'shnining haqi to'g'risida quyidagilarni aytganlariga Imom G'azzoliy guvohlik beradilar: Yordam so'rasa yordam berish; qarz so'rasa qarz berish; kambag'allashsa ro'zg'origa madad berish; xastalansa ziyoratga borish; vafot etsa janozasiga qo'shilish; uyini undan baland qilib qurmaslik; unga turli yo'llar bilan azob bermaslik; biron meva olib kelsa unga ham berishlik.

¹ Jalilov Z.B., "Imom G'azzoliyning pedagogik qarashlari" // "Tafakkur", T-2011 yil, 53-bet(dan olindi)

Musulmon odobida yaqin kishilari, do'stu birodarlarni vaqti-vaqti bilan borib ko'rish va ahvolidan xabar olish sunnat hisoblanadi. Shuning uchun Imom G'azzoliy asarlarida musulmonlarning bir-birini ziyorat qilganlarida o'zlarini qanday tutish odobi va tartibini bayon qilgan.

G'azzoliy "Ihyo" asarida inson jamiyatda kimlar bilan ijtimoiy munosabatda bo'lishligi unga foyda berishligini va kimlar bilan munosabat jarayonida ehtiyot bo'lish kerakligini ko'rsatib yozadiki: "Bid'atchining bid'ati suhbatdoshiga o'tishidan xavf etiladi. Umar ibn Xattob r.a. aytdilar: "Rostgo'y birodarlarni do'st tut! Ularning g'amxo'rliqi ostida yashaysan. Zero, ular kengchilik, saodat vaqtida ziynat, balo-ofat kelganda himoya asbobi. Birodaring masalasini chiroyli hal et, kelib qolganda undan g'azablanmaysan. Dushmandan uzoqda bo'l, ishonchsiz do'stdan ehtiyot bo'l! Allohdan qo'rqqan kishi ishonchli bo'ladi. Fojir bilan suhbatdosh bo'lma. Fisqu-fujuri senga ham o'tadi. Fojirni siringdan ogoh etma. Har bir ishingda Allohdan qo'rqadigan insonlar bilan maslahatlash!" Yahyo ibn Muoz aytadilar: "Duo qilganingda meni ham eslagin, deb aytishingga muhtoj bo'lgan (majbur qilgan) do'st eng tuban do'stdir. U bilan yo murosa qilib yashaysan yoki unga doimo uzr aytishga muhtoj bo'lasan!"

Musulmonlarning ziyorati tizimida qarindoshlarni ziyorat qilish savob bo'lib, ibodatlarning eng go'zali hisoblanadi. G'azzoliy, qarindoshlarni ziyorat qilish ibodatlarning eng go'zallaridan biridir, shuning uchun insonlar bunga beparvo bo'lmasliklari va unutmashliklari lozim, deb aytadi.

Imom G'azzoliy qarindoshlik, birodarlik munosabatlariga ham alohida e'tibor bilan qarashni ta'kidlaydi. Chunonchi, aka-ukani to'g'ri yo'lga boshlashi, himoya qilishi kerak. Unga bilmaganlarini o'rgatishi, shirin so'z bilan nasihat qilishi zarur. Uni yaxshi ko'rishi, hurmat qilishi va kamchilikka yo'l qo'ymasligi lozim.

Ijtimoiy munosabatlarning yana bir turi bu – bozor munosabatlaridir. Respublikamizda bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda, "bozor" har birimizning kundalik hayotimizda muhim o'rin egallaydi. O'z vaqtida Abu Homid G'azzoliy bozor munosabatlari va tijorat odobi haqida nimalarga e'tibor berishimiz lozimligini ta'kidlagan edi.

Mana shu savollar nuqtai nazaridan buyuk alloma ta'limotiga murojaat qilish alohida ahamiyatga ega.

Savdo-sotikda sotuvchi bilan xaridor ixtiyoriy ravishda molning narxini kelishib olishlari lozim. Ular kelishilgan narxda molni sotishi va sotib olishi mumkin. O'zaro kelishib sotilgan yoki sotib olingan mol so'ng biron kishiga sotilsa ham savdo joizdir. Savdoda aldov gunoh va makruh hisoblanadi. Savdo-sotiqda g'irromlik qilmaslik, aldamaslik bilan birga turli yo'llar bilan molning narxini ko'tarish, qalbakilik, molini tez sotish uchun uning sifatini ko'tarish uchun qasam ichish ham gunoh ekanligini Muhammad payg'ambar o'z hadislarida ko'p marta ta'kidlaganliklariga ham Imom G'azzoliy guvohlik beradilar.

Imom G'azzoliy kishi hayoti davomida boshqa kishilar bilan bo'ladigan barcha ijtimoiy munosabatlarni tartiblashda asosiy e'tiborni shaxsning xulqiga qaratadi. G'azzoliy aytadiki bilingki, chindan ham ulfatchilik chiroyli xulq mevasidir va bo'linish (tarqalish, ajralish) yomon xulqdandir. Zero, chiroyli xulq o'zaro do'stlik va kelishuvni vujudga keltiradi, va yomon-badxulqlilik esa bir-birini yomon ko'rish va o'zaro ziddiyatni tug'diradi. Chiroyli xulqdagi fazilatlar hammaga ma'lum. Hadisda aytilishicha, "Qiyomat kunida mo'min tarozisida yaxshi xulqdan ko'ra og'irroq narsa bo'lmaydi".

Shaxs axloqining go'zalligi jamiyat a'zolarining o'rtasida birdamlik omili bo'lgan o'zaro mehr-muhabbatni tu'g'diradi va jamiyatda parokandalikka sabab bo'luvchi ixtilof, konfliktlarni oldini olishga xizmat qiladi. Shuning uchun axloqning go'zal bo'lishini ta'kidlab G'azzoliy asarlarida yozadiki: – Hadisda aytilishicha: "Qiyomat kuni menga eng sevimlingiz va menga yaqinrog'ingiz axloqi chiroyliroq bo'lganingiz va qiyomat kunida menga eng yomon ko'ringaningiz va mendan eng uzoqda bo'ladiganingiz xulqda yomonrog'ingizdir". Payg'ambar s.a.v.dan odamlarni nima ko'proq jannatga kirishiga sabab bo'lishi haqida so'raldi. U zoti sharif javob berib aytdilar: "Allohta taqvo va chiroyli xulq".

G'azzoliy ta'limotida do'stlik munosabati shaxsiy manfaat yo'lida emas balki Xudo yo'lida bo'lishi lozimligini t'akidlab asarida yozadiki: -Alloh taolo yo'lida bir-biriga muhabbat etish haqida Payg'ambar alayhissalom: "Faqat Alloh taoloning

soyasi bo'ladigan kunda yetti toifa insonlarni Alloh taolo o'z soyasiga oladi", deb jumladan quyidagi odamlarni sanadilar: "Ikki odam Alloh yo'lida bir-birini do'st tutadi va do'stligi tufayli bir-biri bilan uchrashadi. Va shu o'zaro do'stlikda bir-biri bilan xayrlashadi". Yana bir boshqa hadisi qudsiyda Alloh taolo aytadi: "Mening yo'limda bir-birlari bilan do'stlashganlarga muhabbatim haq bo'ldi". Boshqa bir hadisda quyidagicha kelgan: "Alloh yo'lida chin do'st bo'lish va Alloh yo'lida yomon ko'rish iymonning mustahkam dastasidir".¹

G'azzoliyning yozishicha bir shaxsni yaxshi ko'rish, o'sha insonni yaxshi amallari va uning komilligiga dalolat qiluvchi shaxsiy sifatlari uchun yaxshi ko'rish nazarda tutiladi. Mutafakkir do'st tanlaganda shu omillarni inobatga olib asarida yozadiki; – "Bilingki, chindan ham kishi bir kishini Alloh yo'lida do'st tutadi va Alloh yo'lida yomon ko'radi. Darhaqiqat, agar bir insonni Allohga itoatli bo'lgani uchun do'st tutsangiz, agar u Allohga osiy bo'lsa, siz uni Alloh yo'lida yomon ko'rasiz. Zero, kim biror sababga binoan bir kishini do'st tutsa, shu sababning ziddi bo'lsa, uni yomon ko'radi. Kimda sevimli va makruh xislatlar jam bo'lsa, bas, uni bir sababga ko'ra do'st tutasiz va boshqa bir sababga binoan uni yomon ko'rasiz. Ammo musulmon birodari tomondan bir xato sodir etilsa va o'z xatosiga pushaymon bo'lganini bilsa, shu vaqtda uning xatosidan ko'z yumib, uni berkitib qo'yish a'lo-yaxshiroq".

Imom G'azzoliyning ijtimoiy qarashlarini o'zida mujassam qilgan o'zbek tiliga tarjima qilingan kitoblaridan biri bu G'azzoliyning qalamiga mansub "Ey farzand" kitobidir. Mutafakkir "Ey farzand" asarida farzandning ijtimoiylashuvi, shaxsning xulq-atvorining shakllanishiga doir o'zining ta'limotlarini bayon etgan.

Imom G'azzoliy "Ey farzand" kitobida inson farzandi rioya qilishi lozim bo'lgan axloq-odobning o'ziga xos tizimini bayon qiladi: "Ey farzand! Odob bir necha ko'rinishga ega. Inson avvalo kiyinish odoblarini yaxshi bilmog'i lozim. Kiyinish, yurish-turish, kimlarga qanday qarash, kimlarga qaramaslik, qanday suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmon bo'lish odoblari, taomlanish va taomlantirish

¹ "Minhojul qosidiyn. G'azzoliy "Ihyosiga muxtasar", Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy. /"TIU" nashriyoti, T-2009 yil, 132-bet(dan olindi)

odoblari, sayohat qilish, safar va musofirlik, xastalarni ziyorati, er-xotin munosabatlari odoblarini bilib, ularga rioya qilish farzandning axloqiy vazifalari hisoblanadi".

Shu bilan birga mutafakkir yuqoridagi asarida bir qancha diniy odoblar: tahorat olish, masjid odoblari, namoz o'qish odobi, Ramazon ro'zasini tutish odoblari, Qur'on tilovat qilish odoblarini birma-bir bayon qiladi.

Imom G'azzoliy musulmonlarning bir-biriga mehr-oqibatli, kam ta'minlanganlarga sadaqa berishning fazilati va odoblarini ishonarli bayon qiladiki, bu o'z davri uchun emas, balki bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga alloma "Ey farzand" asarida qarz olish va qarz berish, savdo-sotiq, tijoratda o'lchov va tarozidan urib qolish, sudxo'rlikning salbiy oqibatlarini yosh avlodni ogohlantiradi. Farzandni nafs va boylikka hirs qo'ymasdan, doimiy ravishda ota-onaga e'tibor berib, ularni rozi qilib yashash lozimligini ta'kidlaydi. G'azzoliy har bir shaxs o'z birodarlari, qarindoshlarini esdan chiqarmay ziyorat qilishi, qo'shnilar va mahalla ahli bilan do'stona munosabatda bo'lishi, keksalarga hurmatda bo'lib, o'z xulq-atvori bilan odamlar orasida hurmat qozonishi muhimligini uqtiradi.

Musulmon farzandining bu fazilatlarga erishishi sabr va mehnat, riyozat chekish orqali amalga oshishi lozimligini alohida ta'kidlaydi. "Imom G'azzoliy "Ey farzand" asarida inson farzandi rioya qilishi lozim bo'lgan axloq-odob me'yorlarini ibratli rivoyat va hikoyatlar, Islom manbalari asosida bayon qiladi. Alloma yuqoridagi fikrlarining davomiyligini ta'minlab, "Riyozatun-nafs" asarida moddiy dunyoga hirs, mol-dunyo, nafsga berilishning zararli oqibatlarini alohida-alohida bayon qiladi.

Imom G'azzoliy "Riyozatun-nafs" (Nafs tarbiyasi) kitobida "axloq tarbiyasi va qalb xastaliklarining muolajasi, yaxshi va yomon xulq mohiyati, go'zal xulqqa erishish yo'llari, farzand tarbiyasi, murshid va murid kabi mavzularni qalamga oladi. Bunda masalaning ichki mohiyatini yoritishga e'tibor qaratib, tashqi (zohiriy) muammolar inson ichki (botiniy) olamidagi o'zgarishlar oqibati ekanligini ochib beradi.

Shuning uchun ijtimoiylashuv jarayonida bola axloqiga katta ahamiyat berish zarur. Imom G'azzoliyning ta'kidlashicha, inson amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlar ichida "Bola tarbiyasi eng muhim ishlardandir".

Imom G'azzoliyning o'zbek tiliga o'girilgan "Ilm kitobi", "Riyozatun-nafs", "Mukoshafat-ul Qulub", "Kimyoi saodat" kitoblari axloq-odob, ota-onaning farzand tarbiyasidagi vazifalari hamda farzandining ota-ona oldidagi burchlarini anglash borasidagi qimmatli manbalar bo'lib hisoblanadi.

Ularda shaxsning tug'ilgandan umrining oxirigacha yashashi jarayonida axloqiy fazilatlari, bunda ota-onaning vazifalari musulmon odoblari asosida turli insoniy vaziyatlar va munosabatlari tizimida berilgan.

G'azzoliyning axloq-odob haqidagi ta'limotlarida taomlanish odobiga ham ahamiyat qaratgan.

Inson kundalik insoniy majburiyatlarini bajarishi, ijtimoiy mehnat qilishi to'at-ibodatda bo'lishi, doimiy ravishda harakatlanishi uchun asosiy kuch-quvvat manbai — bu uning to'g'ri ovqatlanishidir. Unda ma'lum tartib-qoidaga rioya qilish ijtimoiy va shaxsiy, diniy majburiyatlarni bajarish va salomatligini uzluksiz saqlashning asosi hisoblanadi. Imom G'azzoliy shunday ta'kidlaydi: "Haq taolo yemakni va yaxshilik qilmoqni bir oyatda jam qilibdur. Bas, odam taomni ilm o'rganmoq va ilmga amal qilmoqqa quvvat va oxirat yo'lida yurmaqqa qudrat uchun yesa-ibodat jumlasidandur". Insonlarning o'zaro munosabatlari tizimida ovqatlanish ham muhim o'rni egallaydi. Shuning uchun ma'lum odoblarga rioya qilinsa, o'zaro hurmati oshadi va inson salomatligi yaxshilanadi. Ovqat tayyor bo'lsa, uydagilar bilan birga ovqatlanishi lozim. Unda uy a'zolarining hammasi dasturxon atrofida to'planmaguncha, ovqatlanishni boshlamaslik kerak. To'plangach, oila boshlig'i (katta kishi) ruxsati bilan "Bismilloh" aytish bilan ovqatlanishni boshlash kerak. Ovqatlanib bo'lgach dasturxonga duo qilib tugatish o'riilidir.

Imom G'azzoliy inson bolasi jamiyatda yashar ekan, kishilar bilan bo'ladigan muomala, mulozamat, munosabat odoblarini ham bilishi va ularni o'rinli bajarishi lozimligini ta'kidlaydi. U "Ey farzand" kitobida: "Odob bir necha ko'rinishga ega. Inson avvalo kiyinish odoblarini yaxshi bilmog'i lozim. Shuningdek, eshik ochish,

hojatini o'rinlatish, tozalanib hojatxonadan chiqish, tahorat olib, masjidga borish, namoz o'qish, masjiddan chiqish va uyi yoki ish joyiga kirish, odamlar bilan uchrashish kabi odoblarga ham rioya etishi shart", deb yozadi.

Shu bilan bir qatorda, yoshlar Rajab, Sha'bon va Ramazon oylariga xos odoblar bilan birga qo'l, oyoq, til, quloq va tanosil a'zolariga tegishli odoblarni bilishi ham muhimdir. Inson hayoti davomida qo'ni-qo'shni haqlari, muhtojlarning extiyojlarini qondirish, bozor-o'charga borish, qarz olish- berish, olimlar, oriflar, ustozlarni ziyorat etish, ularning majlislariga qatnashishda ham ma'lum axloqiy odoblarga rioya qilishi kerak.

Imom G'azzoliy kiyinish, yurish-turish, kimlarga qanday qarash, kimlarga qaramaslik, qanday suhbatlashish, mehmon qabul qilish va mehmon bo'lish odoblari, taomlanish va taomlantirish, safar, istirohatda bo'lish, xasta kishilar ziyorati, o'ringa yotish va turish odoblarini bilish ham yoshlar uchun zarurligini ta'kidlaydi.

Shaxs uylanganda juda ehtiyot bo'lganidek kasb tanlashda e'tiborli bo'lib, o'zining qiziqishi, aqli va qobiliyatiga mos keladigan kasbni tanlashi zarur. Chunki insonning o'z kasbidan qoniqishi uni kasbiga masuliyat bilan yondashishiga sabab bo'ladi. Bu esa insonni jamiyatda yanada naf keltiruvchi bo'lishini ta'minlaydi. G'azzoliy kasb tanlovida ota-ona ko'makchi bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi. Bunda "Zo'rlik yo'lidan bormasdan ishontirish yo'lidan borish afzal"dir deb takidlaydi mutafakkir.

G'azzoliyning asarlarida yozishicha muomala madaniyatida kishilarning bir-birlarini ko'rganda o'zaro salomlashishlarida ham ma'lum odob qoidalari amal qiladi.

Kishilarning bir-birlarini ko'rganda salomlashishlari turlicha bo'lsa-da, hamma xalqlarda bor. Ammo musulmonlarning o'zaro salomlashishlarida o'zgacha nazokat va tartib-qoida mavjud. Chunonchi, Qur'onning Ibrohim surasi 23-oyatida, Salomning ahamiyati bayon qilingan.

Sayyoramizda yashayotgan har bir qavm, har bir xalq, har millatning o'ziga xos salomlashish uslubi bor. Salomlashish uslubi va iboralari hamda odatlari o'sha xalqning qanday xalq ekanligidan darak beradi. Islomdagi salomlashish eng go'zal va

eng ma'nolidir. Islomda eng muhimi, tanigan va tanimagan kishig'arning o'zaro salom berishlari sunnatdir. Salomga alik olish esa, vojibdir.

Salomlashishda kishilar bir-birlarining hol-ahvollarini so'rab, bir-birlari, tinchlik, omonlik, sog'lik-salomatlik, baxt-saodat, yaxshi kayfiyat hamda ishlariga rivoj tilaydilar. Buning oqibatida salom bergan kishining ham kayfiyati ko'tariladi va ular o'rtasida iliqlik, mehr-oqibat paydo bo'ladi. Bu esa jamiyat a'zolarini birdamlikka yo'naltiruvchi kuchli omildir.

Payg'ambar s.a.v dan: "Qaysi amal eng yaxshi amaldur" deb so'raganlarida u zot: "Tanigan va tanimagan odamingga taom va salom bermog'ing", deb javob berganlar.

Salom berishning fazilatlari haqida ko'plab hadisi shariflar mavjud. Musulmonlar uchun eng muhim xislat —salomlashishdir. Ammo bir kishi salomiga ikkinchi kishi alik olishi lozim. Madomiki, salom bergan kishiga alik olib javob berilmasa, u gunohkor emas. Salom bergan kishi musulmonlik burchini bajargan hisoblanadi. Shunisi e'tiborga molikki, birinchi bo'lib salom bergan kishining xudo va Payg'ambar oldida darajasi baland bo'ladi. "Albatta musulmon kishi bir qavm oldidan o'tsayu, ularga salom bersa, ular alik olsa, salom bergan kishiga shu qavmga salomi eslatganlik darajasi yoziladi. Agar ular alik olmasalar ulardan afzalroq zotlar (farishtalar) alik olishadi", deyiladi Hadisi sharifda.

Musulmonlarning salomlashishlarida ma'lum tartib mavjudligi hadislarda bayon qilinadi. Masalan, "Otdagi kishi piyodaga salom bersin, —deyiladi, — tik odam o'tirganga, oz odam ko'pchilikka salom bersin. Kimki salomga alik qaytarsa, unga savob bo'ladi. Kim alik olmasa savob yo'q".

"Mo'min-musulmonlar har kun birodariga duch kelganda salom berishi lozim". Bir kishi mo'min birodariga "assalomu alaykum" desa, unga o'n savob yoziladi. Biroz kengaytirib, "assalomu alaykum va rahmatullohi va barakotuh" desa, o'ttiz savob yoziladi", — deydi G'azzoliy.

Imom G'azzoliy jamiyatda yashayotgan har bir kishi dunyoga nima uchun kelganligini anglab, Alloh bergan qisqa umrni yaxshi amallar bilan o'tkazishi zarurligini ta'kidlaydi. Shulardan biri yoshlarning keksalarga munosabatidir. Ularning

hayot tajribasi, pand-nasihatlaridan bahramand bo'lish va hurmatini joyiga qo'yish har bir yosh avlod uchun farz hisoblanadi. "Keksalar suhbatidan bahramand bo'lish lozim. Ular oldida mahmadonalik qilib, so'zlarini bo'lib, fikrlari tufayli ularni uyaltirib, xijolat etish odobdan emas", — deb nasihat qiladi Imom G'azzoliy. Insonlar jamiyatda qilgan yaxshi amallari va yoshlari bilan e'zozlanishlari lozim.

Kishilar bilan suhbatlashayotganda yuzma-yuz turib gaplashish, oliftalik, mahmadonalik qilish, chapga, o'ngga bezovta qarash suhbatdoshga nisbatan bepisandlik hisoblanadi. Yo'lda ketayotganda keksalar duch kelsa, tanish yoki notanishligidan qat'iy nazar salomlashish, tanish bo'lsa hol-ahvol so'rash lozim. Keksalarga yaxshilik qilib, qo'ldan kelgancha yordam berib, duolarini olish, qo'llarida yuk bo'lsa ko'tarishga yordamlashish har bir yosh uchun muhim fazilat hisoblanadi. Keksalar bilan birga yo'lda ketayotganda biron zarurat bilan tez yurish yoki biron joyga borish lozim bo'lsa, ruxsat olmoq va uzr so'rab, shundan so'ng jadal yurish odobli kishi uchun muhimdir.

Imom G'azzoliy o'z ta'limotida mehnat va xayrli amallar qilishga qiziqtirib shunday yozadi: har bir kunni qadrlash, qadrini bilish, nafsga berilishdan saqlanish kerak. "Ey odam farzandi! O'tgan kunning bir daqiqasini ham qaytarib bo'lmaydi. Ko'zingni och! Kun kelib sen ham ismi-jismi unutilganlar orasiga kirasan". Shuning uchun tiriklikda har onni qadrlab, uni ezgu amallar bilan mazmunli o'tishiga harakat qilish zarur.

Imom G'azzoliy yosh bolalarning ijtimoiylashuv jarayonida ta'lim tarbiya muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Bolalarga birinchi o'rgatiladigan narsa, — deb yozadi G'azzoliy, — kattalarga hurmat. Ota-ona farzand tarbiyasini qancha erta boshlasa, shuncha ular kelajagi uchun yaxshi ish qilgan bo'ladi. Jumladan, bolalarni yetti yoshidan e'tiboran namoz o'qish, to'qqiz yoshga kirgach ro'za tutishga odatlantirish mahram va nomahram mavzularni ularga o'rgatish kerakligini ta'kidlaydi. Chunki bolalarning ta'lim-tarbiyasi nihoyatda muhim mavzudir. Agar ota-ona bu borada yetarli o'quvga ega bo'lmasa, bilmaganini bilimdon va samimiy bir mutaxassisdan o'rganishi kerak. Ota-onalar o'z bolalarini yaxshi muallim va maktabda o'qitishi lozim. "Qiz bolani kamolga yetkazadigan atrof-muhit, o'quv yurti,

maktabni yaxshilab o'rganish zarur. To'g'ri kelgan joyga o'qitish, tarbiyasiga e'tiborsizlik oqibati yaxshi bo'lmaydi", — deb ogohlantiradi G'azzoliy.

G'azzoliy ijtimoiylashuv jarayonida farzandni shaxsni ijtimoiy munosabatlarga kirishi uchun zarur bo'lgan chiroyli xulq odobga yoshligidan tayyorlab borish lozimligini uqtirib shunday yozadi: "Kishi o'g'il-qizini kichik yoshdan tarbiyalab, odob bermog'i kerak. Ma'lum yoshga yetgach, ba'zi narsalarni bolaga qabul qildirish qiyin bo'ladi.

Bu vazifani amalga oshirishda oila boshlig'i ko'proq qayg'urishi lozim. Oila boshlig'i nafaqat bunga, balki yaqinlariga sadaqa berib va uning ahamiyatini bolalarga o'rgatib borishi zarur".¹

¹ Jalilov Z.B., "Imom G'azzoliyning pedagogik qarashlari" // "Tafakkur", T-2011 yil, 55-bet(dan olindi)

2.2. Imom G'azzoliyning ta'limotida oila va nikoh masalalarining sotsiologik talqini.

Mamlakatimizda 2012 yil — Mustahkam oila yili deb e'lon qilindi. Jamiyat taraqqiyotida oila sektori muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga shaxslarning o'z hayotidan mamnunligi ularning oilalaridagi totuvlikka bog'liq bo'ladi. "Gallup International" xalqaro tadqiqot markazi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnoma 58 ta davlatdan 4500 kishi ishtirok etgan. Tadqiqotga ko'ra o'zbekiston aholisi hayotdan mamnun bo'lib yashashda ancha yuqori mavqeda ekan. Mamlakatimiz bu borada 13-o'rinda turishi e'tirof etilgan, ya'ni o'zbekistonda baxtiyorlik indeksi 62 % ni tashkil etadi.¹

Oilaviy hayotga bizda, sharqda jiddiy ahamiyat beriladi. Shuning uchun ham sharq xalqlari mentalitetining shakllanishiga sabab bo'lgan o'tmishdagi mutafakkirlarlarimiz merosi bilan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologiyani asosiy yo'nalishlaridan biri bu — oila sotsiologiyasidir.

Abu Homid Al-G'azzoliy oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rgangan.

Al-G'azzoliy oilaning nikoh, qarindoshlik, ma'naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni biriktiruvchi jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida o'rganar ekan, oilaviy munosabatlarni islom dinining ta'limotlari asosida bo'lishiga targ'ib qiladi. Bu ta'limotlarni mutafakkirning "Uylanish odobi", "Mukoshafatul qulub", "Kimyoi saodat" kitoblarida uchratish mumkin.

Ma'lumki, oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi.² Al-G'azzoliy o'z asarlarida halollikka katta ahamiyat bergan. Masalan Mukoshafatu qulubda:

¹ <http://xabar.uz/uz/news/oila/683>

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, "Baxtiyor oila". – T: "Sharq" 2011. 5-bet (dan olindi)

“Allohdan qo'rqqan odam me'dasiga harom luqma bermaydi. Chunki harom luqma yeyish eng katta gunohlardan biridir. Shu bois Allohning Rasuli (s.a.v.) buyuradi:

“Inson zotining me'dasiga bir luqma harom tushganda bu luqma me'dasida qancha vaqt tursa, yeru ko'qdagi farishtalar ham shuncha vaqt unga la'nat o'qiydilar”, - deyilgan.

Imom Al-G'azzoliyga ko'ra farzand orttirish oilada tug'ulishning ko'payishi bu millatning davomiyligini ta'minlovchi eng muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun sharqda Islom dinida oilaviy munosabatlar, umuman oilaning o'zi muqaddas hisoblanganligi sababli oilaviy barqarorlik, o'rtacha tug'ulish g'arbgga nisbatan ko'pligi, ajralishlarning kamligini kuzatish mumkin. G'azzoliyning ta'kidlashicha Islom shariati, umuman, yengillik ustiga bino qilingandir.

Imom G'azzoliyning ta'kidlashicha, oilaning mustahkam bo'lishida uni jamiyat talablariga mos holda qonuniy nikoh asosida tashkil etish muhimdir. "Bilgilki, xotin olmoq din va millat odoblari jumlasidandir", - deydi mutafakkir.

G'azzoliy oilaviy hayotning dastlabki bosqichi bo'lmish nikohni muhimligini ta'kidlab asarlarida yozadiki, nikoh inson vujudi salomatligini ta'minlaydi. Inson salomatligi va naslni ko'paytirish uchun: nikoh ma'lum axloq- odob doirasida bo'lishi lozim. Nikohning inson va jamiyat uchun fazilati va xosiyati beshtadir. "Avvalgi foyda farzanddurkim, farzand sababidan to'rt savob hosil bo'lur...".

Ikkinchi savob ulki, hazrati Rasuli akram s.a.v.ning sunnatlariga mutobiat qilg'on bo'lur, tokim ummatimning ko'p bo'lg'oniga mubohat qilurlar. Ushbu sababdan tug'mas xotindan qaytaribdurlar.

Uchinchi savob ulki, farzandlar ota, ona duosidan bahramand bo'lur...

To'rtinchi savob ulki, agar farzand otasidan ilgari o'tsa, qiyomat kuni anga shafaatchi bo'lur". Shu bilan birga, erkaklar xotinlarni yomon fe'ligiga sabr qilmoq, ularning muhimotini-kerakligini topib bermoq va bularni sharti sharif birla orasta qilmoq mushohadasiz, nafsni yengish yo'lida jiddu-jahdsiz va mashaqqatsiz muyassar bo'lmasligini bilmoqlari lozim.

Imom G'azzoliy musulmonchilik odoblaridan kelib chiqib, nikoh shartlarini bayon qiladi. Chunonchi, nikoh vakil ishtirokida bo'lishi va unga ayol roziligi lozim.

Islom ta'limotida oila, nikoh hamda er-xotin munosabatlariga juda katta e'tibor beriladi. Bu masala farz va sunnat darajasiga ko'tarilib, Qur'oni Karim va hadisi shariflarda alohida sura va oyatlar hamda payg'ambar nasihatlarida alohida o'rin berilgan, Shundan kelib chiqib, Imom G'azzoliy xotinlarning erlariga haqlari ko'p, deb ta'kidlaydi. Eng avvalo, ularning jins sifatida jismoniy ojizligi, ma'naviy joziba, husnu halovati ham ularga alohida nazar va marhamat bilan qarash, bergan azoblariga chidash hamda ayrim gunohlarini kechirishni taqozo qiladi.

Qur'oni Karimning "Niso" surasi 19-oyatida: “ Ey mo'minlar, xotinlarga zo'rlik bilan voris bo'lishingiz halol emas. Agar ochiq buzuqlik qilgan bo'lmasalar, bergan mahrlaringizning bir qismini qo'lga kiritish uchun ularni ezmang. Ularga yaxshi muomala qilinglar. Agar ularni yomon ko'rsangiz ham sabr qiling, sizlar yomon ko'rgan narsada Alloh ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin” — deyiladi.

Xotinlarga erlarning munosabati ota-ona, qarindosh-urug', yetim va miskinlarga munosabati yaxshilik, xushxulqlilik asosida qurilishi kerak. Xotinlar erlarining o'ng qo'li, yordamchilari, madadkorlari bo'lganligi uchun ularni hurmat qilish lozim. O'z navbatida erkak xotinining qiliqlariga chidashi va sabr ko'rsatishi, jumladan, xotin ham erining muomalasidagi kamchiliklariga chidashi zarur.

Erkak xotinga tobe emas, balki hokim, faqat Allohga tobe hisoblanadi. Shuning uchun Qur'onning "Yusuf" surasi, 25-oyatida: "Erkaklar xotinlari ustida rahbardirlar", - deyiladi.

Imom G'azzoliyning yozishicha, "Xotinning nafsi ham sening nafsingga o'xshaydi. Uning jilovini birozgina qo'yib yuborsang, sen istamagan uzoq va taqiqlangan mintaqalarga tortib ketadi. Agar jilovini bir qadar bo'shatsang, u seni quloch nariga sudraydi. Agar mahkam va zabt bilan ushlab olsang, u holda molik va xoja bo'la olasan".

Xotin gunoh bo'lmaydigan har qanday masalada erining amrlariga so'zsiz itoat qilishi kerak. Chunonchi, xotin erining huquqlarini hurmat qilishi lozim. Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. nasihat qiladilarki, qaysi xotinning eri undan

mamnun holda vafot etsa, o'sha jannatga kiradi. Xotin besh vaqt namoz o'qib, Ramazon ro'zasini tutib, nomusini yot kishilardan asrab, eriga itoat qilsa ham jannatga kiradi.

Oila qurish sunnat, o'ziga munosib turmush juftini tanlash ham sunnat hisoblanadi. Turmush qurishda o'ta katta xarajat qilish o'rinli emas. Chunki "Xarajati mo'l xotin olib u bilan yashash oson emas". Imom G'azzoliy o'z fikrini davom ettirib, "Har ikki tarafdin asosi sabr-bardoshga qurilgan oila, ya'ni sabrli juftlar turmushi eng mustahkam, eng baxtli turmush hisoblanadi", — deb uqtiradi.

Asosan, oilada intizomni ona ta'minlaydi. U sabr-toqatli, iffat va hayoli, nazokatu-qanoatli, husni-halovatli bo'lsa, bu sifatlar o'z-o'zidan farzandlariga "yuqadi". Bu sifatlarga ega bo'lgan ona oila tinchligini ta'minlab, har qanday jahldor erni ham insofga keltira oladi. Xotin kishi uydagi vazifalarni to'la ado etib, ro'zgor butligi va oila tinchligini ta'minlaydi. Bunday ayol uchun oila manfaati va uning boshlig'i eng aziz hisoblanadi. Ayol uchun katta boylik yoki mukofot erining muhabbatidir. Jamiyatda er-xotin bir tan, bir jon hisoblanadi. "Odamlarning tub negizi — biri moddiy, biri ma'naviy bo'lgan ikki narsadan iboratdir." — deydi G'izouddin ibn Faxriddin. — Birini "tan", ikkinchisini "jon" deydilar. Gap ko'z bilan ko'rish va sezilaturgan narsalardan iborat. Jon ko'ngil ko'zi bilan aqlga muvofiq narsalarni ifodalaydi. Shuning uchun xulq odamning ichki suvrati, tan tashqi suvratidir".

Ayollarning jamiyat oldidagi buyuk xizmati farzanddarini jamiyatga yetuk ijtimoiylashgan shaxs sifatida taqdim qilishdadir. Oila haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, ko'z o'ngimizda ona siymosi shakllanadi. Zero, oila muqaddasligini ta'minlovchi birinchi omil — ona, aqlli ayolning pokizaligi, oqilligi, mehru muruvvati, sadoqati va vafodorligidir. Farzandning boshlang'ich ijtimoiylashuviga ona sabab bo'ladi.

G'azzoliy ta'limotlarining asosi hisoblangan Qur'oni Karim va Hadislarda ayollarni oiladagi yuksak mavqeini tan olish bilan birga, ularni bola ijtimoiylashuvi va tarbiyasidagi vazifalari ham ko'rsatilgan. Jumladan, ona o'z bolasi tug'ilgandan so'ng to'la ikki yil emizishi lozim. Qur'onning "Baqara" surasi 233-oyatida aytiladiki:

"Onalar bolalarini to'la ikki yil emizadilar... Ularni, ya'ni onalarni yaxshilik bilan yedirib kiydirish otaning zimmasidadir. Hech kimga toqatidan tashqari narsa taklif qilinmaydi. Bolalari sababli ota ham, ona ham zarar topmasin. Shuning uchun, agar xotin kishi o'z bolasini tarbiyalashga qiynalsa, enaga saqlashga haqli. Ammo unga bolaga qaragani uchun haqqini o'z vaqtida to'la berishi kerak. Bolani sut bilan, ya'ni ona sutidan ertaroq ajratmoqchi bo'lsalar, ota-ona o'zaro kelishishlari lozim. Agar (ota-ona) o'zaro kelishib, maslahat bilan bolani sutdan ajratmoqchi bo'lsalar, gunohkor bo'lmaydilar. Agar bolalaringizni (emizuvchi enagaga) emizdirmoqchi bo'lsangiz, beradigan haqqini yaxshilik bilan to'la-to'kis to'lab tursangiz gunohkor bo'lmaysizlar", — deyiladi "Baqara" surasida.

Imom G'azzoliyga ko'ra, ayollar insoniy munosabatlarni tartibga solishda muhim o'rin egallaydilar. Abu Xurayra aytadilarki: "Rasululloh s.a.v: Ey muslima ayollar, garchi o'rtangizda bir qo'yni talashib qolgan bo'lsangiz ham, hargiz qo'shnini qo'shniga yomonlamangiz! — deb aytdilar". Xotinlarning oiladagi o'rni, ularni hurmat qilish er uchun ham farzdir. Xotinlarni e'zozlash, izzat-hurmat qilish, ularni o'rinsiz xafa qilmaslik, urmaslik lozim. Abdulloh ibn Zam'a rivoyat qiladilar: "Rasululloh s.a.v: "Birortangiz qulni savalagandek xotiningizni savalamangiz! Keyin, ertasiga u bilan yaqinlik qilasizlar!", — dedilar. Shuning uchun xotinlarni mensimaslik mutlaqo mumkin emas. Hatto erlar safardan qaytganda yuvinib, soch-soqolini olib, so'ng uylariga kelishlari va xotinlariga ko'rinishlari lozim. Zero, xalqimizda "Onangni otangga pardozsiz ko'rsatma", degan naql bor. Qur'onning "Niso" surasi, 34-oyatida aytiladiki: "Erkaklar xotinlar ustida rahbardurlar...Xotinlaringizning itoatsizligidan qo'rqsangiz, avvalo ularga pand-nasihat qilinglar, so'ng (ya'ni nasihatlaring kor qilmasa) ularni yotoqlarida tark qilingiz (ular bilan bir joyda yotmang, yaqinlashmang). Ammo sizlarga itoat qilsalar, ularga qarshi boshqa yo'l axtarmanglar".

Imom G'azzoliyning ijtimoiy merosida oila va undagi er-xotin munosabatlari oilaning poydevori, farzand tarbiyasining asosi ekanligi alohida urg'u beriladi. Shuningdek G'azzoliyning ta'limotidan oila instituti jamiyatning ijtimoiy barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilishimiz mumkin.

Qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga katta e'tibor berib, oilalarning mustahkam va baxtiyor bo'lishi uchun imkonida bor bo'lgan barcha chora va tadbirlarni ko'rib kelgan. Dunyo tarixini kuzatadigan bo'lsak, oila masalasiga yengil qaragan, jinsiy shahvatga berilgan xalqlar, davlatlar va madaniyatlar albatta inqirozga uchraganligining guvohi bo'lamiz. Qadimiy buyuk imperiyalarning sharmandalarcha qulashining asosiy omillaridan biri ham shu bo'lgan.¹

Bizning asrimizga kelib G'arbda, o'zlarining ta'biri bilan aytganda, jinsiy inqilob bo'ldi. Jins borasida olimlar yetishib chiqdi. Ular «Jinsiy hurriyat bo'lmaguncha, inson to'liq erkin bo'la olmaydi. Agar jinsiy mayllar jilovlansa, insonda ruhiy tugun paydo bo'lib, unda qo'rqqoqlik va boshqa salbiy sifatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi» kabi g'oyalarni tarqatishdi. Oqibatda jinsiy inqilob avjga chiqdi. Natijasini – har xil balo-ofatlar buhronini hozir o'zlari ko'rib, tatib turishibdi. Axloqiy buzuvchilik, oilaning va jamiyatning parchalanishi, hayotga qiziqishning yo'qolishidan tashqari, son-sanog'iga yetib bo'lmaydigan muammolar paydo bo'ldi. Taraqqiy etgan G'arb davlatlarining tub aholisi aynan jinsiy inqilob oqibatida dahshatli sur'atda kamayib bormoqda. Ko'z ko'rib, quloq eshitmagan tanosil kasalliklari kelib chiqdi, har yili son-sanoqsiz odamlar shu kasalliklar tufayli bu dunyoni tark etmoqda, nasl buzilib, odamlari zaifhol va kasalmand bo'lib bormoqda, turli aqliy va ruhiy kasalliklar urchimoqda.

Nikohni inson jinsiy hurriyatini cheklaydigan zulm deb qaragan, oilani erkinlikning qamog'i deb biladigan jamiyatlarda aholi soni keskin kamayib ketdi. Bu jamiyatlar nafaqaxo'rlar yurtiga aylanib bormoqda. Ularning ko'pchiligida hozirgi kunda nafaqa yoshini oshirish borasida hukumatlar bilan fuqarolar o'rtasida jangu jadal avj olmoqda. Kuch-quvvat, chapdastlik, yoshlik, go'zallik namoyishi deb e'tirof etilgan sport musobaqalarida ham oilaning dushmanlari bo'lgan mazkur jamiyatlarda, o'z naslidan tarqalgan yoshlar yetishmaganligi sababli qora tanli yigit-qizlarni yollab olib, o'z vatanlari nomidan sport musobaqalarida qatnashtirmoqdalar.

¹ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, "Baxtiyor oila". – T: "Sharq"2011. 5-bet (dan olindi)

Biz G'azzoliyning ta'limotlarini tahlil qilar ekanmiz ularning asosi Islom ta'limotlarini tashkil qilishini yuqorida eslatdik. Shuning uchun Gazzoliyning ta'limotlarining ijtimoiy ahamiyatini shunda ko'rishimiz mumkinki tub aholisi musulmon xalqlar bu kabi tashvishlardan xolidirlar. Chunki ular o'z dinlari – Islom tufayli oilaviy baxtni saqlab qolganlar. Ularda nikohning hurmati, e'tibori hali-hanuz mavjud, oila a'zolarining o'zaro ehtiromlari nisbatan yaxshi. Musulmon oilalarning mustahkamligi boshqa xalqlarning havasini keltirmoqda.¹

Britaniyada har 6 ta yangi qurilgan oila hissasiga 5 ta buzilgan oila to'g'ri keladi. Sof tabiatli odamni dahshatga soladigan bunga o'xshash ma'lumot va hisobotlarni istagancha keltirish mumkin. Lekin biz hozirgi zamonda bizga yaqin sharoitdagi holatlarda Fransiya, Amerika, Britaniya va Rossiyaga tegishli xabarlardan dengizdan bir tomchisini keltirdik, xolos. Tasavvur hosil qilish va xulosa chiqarish uchun shuning o'zi ham kifoya qiladi.

Demak, hozirgi zamon moddiy taraqqiyoti, jinsiy hurriyat asosidagi ommaviy madaniyatining milliy madaniyatdan yuksalishi oilani mustahkamlash o'rniga uning parchalanishiga, yo'q bo'lib ketishiga, bu borada turli muammolarning kelib chiqishiga olib kelar ekan.

¹ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, "Baxtiyor oila". – T: "Sharq"2011. 7-bet (dan olindi)

II bobga doir qisqacha xulosa.

Mustaqillik yillarida milliy merosimizning ilmiy, axloqiy, tarixiy, milliy va umumbashariy ahamiyati oshib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, Imom G'azzoliy ilmiy merosining ham ta'sir kuchi, ta'lim-tarbiyani samarali tashkil qilishning o'ziga xos shaklan va mazmunan bir-biriga mos ravishda ixcham usullarda o'z ifodasini topgan.

Buyuk siymolar singari Imom G'azzoliyning ham ijtimoiy qarashlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Uning ilmiy merosida oila, farzand tarbiyasi, ota-ona vazifalari, qo'shnichilik odoblari kabi bir qator dolzarb mavzular o'z yechimini topgan hamda qimmatli axloqiy qoidalar tizimi ishlab chiqilgan. Ulardan bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, milliy merosimiz an'analarini davom ettirib, yurtboshimiz qarashlarida oilaviy munosabatlar o'ta muhim, jamiyat va xalq kelajagi sifatida qaraladi. Buning dalili sifatida I.A.Karimov rahnamoligida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlangan. Unda oilaning jamiyat asosi ekanligi, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy maqomlari, ota-onaning farzandlari oldidagi burch va vazifalari, farzandning ota-ona oldidagi ma'suliyati qonuniy mustahkamlangan. Shuning uchun ham G'azzoliyning oila borasidagi sotsial ta'limotlarini o'rganish bugungi kunda oila mustahkamligi uchun o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

III BOB. Imom G’azzoliyning “Ihyou ulumiddin” kitobining empirik tahlili

3.1. Empirik tadqiqot dasturi

Muammoning nazariy asosi:

I.A. Karimov o’zining “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”¹ asarlarida sharq buyuk mutafakkirlar va allomalarning islom madaniyatini rivojlantirishga qo’shgan betakror xissalari to’g’risida so’z yuritganliklari hammamizga ma’lum. Shunday sharq mutafakkirlaridan biri Islom olamida “Hujjatul Islom” taxallusi bilan ataladigan Abu Homid Al-G’azzoliydir. O’rta asrning mutafakkir ulamolari ilm olish va ta’lim berishda, ilmlarni tushunishda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni ham zaruriy deb hisoblaganlar. Shuning uchun ham o’rta asrlarda sharqning ham ma’naviy, ham madaniy hayotida taraqqiyot g’arbning taraqqiyotidan ustun turgan. Shuningdek ma’lumki G’azzoliy ham diniy, ham dunyoviy bilimlar bilan shug’ullanganlar. O’z zamonasida Imom G’azzoliy tajribiy ilmlarning kelib chiqishi, rivojlanishiga turtki bo’lgan fikr sohibi sifatida dunyo ilmiy tarixida munosib joy olgan ulkan aql sohibi bo’lgan musulmon shaxs sifatida mashhur bo’ldilar. Imom G’azzoliyning ijtimoiy-falsafiy fikrlari g’arb faylasuflarining qarashlariga ham ta’sir qilganligini g’arb sharqshunoslarining G’azzoliyning ilmiy merosini o’rganish ustida o’tkazgan tadqiqotlaridan bilish mumkin.

Hozirgi zamonda globallashuv jarayonida yoshlarni har qanday g’oyaviy xuruj, mafkuraviy tazyiq, axborot hujumlaridan asray olish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ushbu maqsad Respublikamiz Prezidenti aytganidek, "Yurtdoshlarimizni muqaddas islom dini va falsafasi, aziz avliyolarimizning ibratli hayoti, qutlug' qadamjolarga, boshqa diniy konfessiyalarga nisbatan hurmat-ehtirom va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash, jamiyatda sog'lom turmush tarzi, millatlararo

¹ I. A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.- T:2009-yil.(kitob.uz—Php betdan olindi.)

totuvlik, o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlaydi".¹ Shuning uchun buyuk ajdodlarimizning tarixiy-falsafiy va ijtimoiy-axloqiy merosini o'rganishga Respublikamizda katta ahamiyat berilmoqda. Mustaqillik sharofati bilan tarixiy-madaniy va ijtimoiy-ma'naviy merosimizga bo'lgan ijobiy munosabat natijasida G'azzoliyga oid yangi manbalar chop etildi.

Tarjima bo'lgan asarlarni o'qib sotsiologik tahlil etish, mavzuga oid mavjud yangi manbalarni aniqlab, ilmiy jamoatchilikka tavsiya etish muammosi hozirgi kunda dolzarb bo'lib turibdi.

Tadqiqotning maqsadi:

Hujjatlarni tahlil qilishning kontent-tahlil uslubi bilan ishlash orqali kontent tahlil imkoniyatlarini o'rganiladi, kitobda ko'tarilgan muammolar tahlil qilinadi va hozirgi yoshlarning ilm olishga bo'lgan rag'batini oshirishga xizmat qiladigan kitobdagi fikrlar tayanch tushunchalar orqali ifodalanadi.

Tadqiqot obyekti:

Mutafakkirning "Ihyou ulumiddiyn" kitobining "Ilm" juz'ini , "Ilm" juz'idagi ijtimoiy hayotga munosabat, ta'lim olish va ta'lim berishga doir fikrlar tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti:

Sharq mutafakkirlarining ilmiy meroslarini o'rganish, sharqda o'rta asrda uyg'onish davri deb atalgan ilmiy harakatga turtki bo'lgan omillarni sharq allomalarining kitoblarini tahlil qilish orqali o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun Imom G'azzoliyning "Ihyou ulumiddin" kitobini kontent tahlil qilish orqaqli kitobning mazmuni bilan tanishish va buni tayanch iboralarda ifodalash tadqiqot predmeti hisoblanadi.

¹ Prezident farmoni. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida // Xalq so'zi 2006. 26-avgust.

Asosiy tushunchalarning nazariy talqini:

Kitobdagi:

- *ilm, ta'lim berish va ilm olish fazilati haqida,*
- *muallim va mutaallimning odoblari haqida,*
- *aql, uning fazilati, qismlari va u haqda kelgan xabarlar haqida.*
- *munozara ofatlari, odamlar ixtilof va tortishuv bilan mashg'ul bo'lib qolishining sababi haqida,*
- *omma ilm hisoblaydigan, lekin ilm bo'lmagan hamda mazmum ilmlar turi va miqdori bayoni.*
- *ilmlarning o'rganish farzi ayn, farzi kifoya bo'lgani, din ilmida fiqh va kalomning chegarasi, oxirat va dunyo ilmi haqida.*

tushunchalarni mazmunini ochib berish orqali kitobni mazmunini ochib berish va o'rta aslarda ilmga bo'lgan munosabatni tahlil qilish.

Asosiy tushunchalarning empirik talqini:

Har qanday jamiyatda o'tmishdagi ko'zga ko'ringan shaxsiyatlarni o'rganish, ularning asarlarini o'rganish, asarlaridagi ochilmagan qirralarini ochib berish va bu merosning bugungi kunga mos keladigan jihatlarini topish muhim ahamiyat kasb qiladi. Sharq kishisiga xos bo'lgan qadriyatlar, an'analarni ommaviy madaniyatning salbiy oqibatlaridan muhofaza qilish sharq mutafakkirlarining meroslarini o'rganishni taqozo qiladi. Shu sababdan kontent tahlil qilinayotgan hujjatni empirik jihatdan o'rganishda quyidagi gipotezani ilgari surish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Tadqiqotning ilmiy farazi:

Ilm har bir jamiyatning taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan asosiy kuchdir. Xususan tajribiy ilmlar moddiy-texnik rivijlanishga zamin hozirlovchi, umuman rivojlantiruvchi omildir.

Imom G'azzoliy va boshqa o'sha zamondagi mutafakkirlar insonga o'zidagi aql zakovatni o'zining imkoni darajisida, o'ziga foyda beraigan tarzda ishlatishni taklif

qildilar. Shuning uchun ham ushbu mutafakkirning kitobini tahlil qilish orqali uni hozirgi axborotlashgan asrda muhim ahamiyatga ega ekanligi mazmunan yoritiladi.

Tadqiqot vazifasi va ko'riladigan masalalar:

- Tadqiq qilinayotgan kitobdagi ma'lumotlarni tayanch iboralar orqali mazmunini ochib berishga harakat qilish, kitobda ko'tarilgan masalalarning bugungi kunda ahamiyatini o'rganish muhim ahamiyat kasb qiladi.
- Kitobda uchraydigan atamalarni mazmunini ochib berish orqali kitobning sifatini tahlil qilish.
- Matn parchalari, abzatlarda, kitob boblarining mavzularida aks ettirilgn to'liq mazmunlarni toppish orqali hujjatda qanday ijtimoiy masalalar ko'tarilganligini aniqlash.
- Alohida atamalarda ifodalangan tushunchalarni tahlil qilish orqali kitobni miqdoran qisqartirish
- Haqiqatning muammoli aks ettirilishini tahlil qilish.

Tadqiqotning uslubi va ish tartibi:

Tadqiqotni o'tkazishda sotsiologiyada keng qo'llaniladigan kontent tahlil ya'ni sifat va miqdor tahlili uslubidan foydalaniladi.

Tayanch tushunchalarni mazmunini ochib berish orqali kitobni mazmunini ochib berish va o'rta asrlarda ilmga bo'lgan munosabatni tahlil qilish yo'lga qo'yiladi.

Tadqiqot ishining rejasi:

Tadqiqot bosqichi	Ishning turi	Muddati
I bosqich	Muammoni ilmiy asoslash. Maqsad va vazifalarni belgilash, gipotezalarni ishlab chiqish. Tadqiqot obyektni aniqlash. Dasturni tasdiqlash va o'tkazish.	2012 yil, aprel
II bosqich	Kontent tahlilning imkoniyatlari- ni nazariy qismi bilan tanishish.	2012 yil, aprel
III bosqich	Tahlil qilinayotgan hujjat bilan tanishish (o'qib chiqish)	2012 yil, aprel
IV bosqich	Hujjatni tayanch tushunchalar uslubini orqali tahlil qilish va EVMda jadval ko'rinishida ifodalash	2012 yil, may
V bosqich	Matn parchalari, abzatlarda, kitob boblarining mavzularida aks ettirilgan to'liq mazmunlarni topish orqali hujjatda qanday ijtimoiy masalalar ko'tarilganligini aniqlash.	2012 yil, may
VI bosqich	Xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqish	2011 yil, may

Hujjatlarni tahlil qilishning kontent tahlil usuli.

Kontent tahlil ¹ – sosiologik axborot mazmunini miqdoriy o'rganish usuli. U matn tuzulishini analiz qilgan holda ma'lumotlarni to'plash va yig'ish metodidir.

“Kontent” so'zi aloqa va munosabatlar obyekti hisoblangan so'zlarga, mazmunga belgilarga, rasmga, tushunchalarga, mavzu, sarlavha va boshqa ma'lumotlarga aloqador. Matndagi belgi va xususiyatlarni kontent-tahlil orqali ularning miqdoriy tuzilmasini sistematik va obyektiv hisob-kitob qilish usuli yordamida ma'lumotlar olinadi. Markoffa, Shapiro va Veytmanlarning fikriga ko'ra kontent-tahlilni “kodlashtirilgan matn” deb atash to'g'riroq bo'ladi.

Kontent tahlilning sifatli va interpretativ yo'nalishlari mavjud bo'lib, ammo matn mazmunidagi miqdoriy ma'lumotlar asosiy o'rin egallaydi. Kontent-tahlil so'rovsiz tadqiqot usuli bo'lib, undagi belgilarni, so'zlarni kiritish jarayonida tadqiqotchining subyektiv ta'sirisiz ma'lumotlarni o'rganuvchi va qabul qiluvchilar o'rtasida aloqani ta'minlaydi.

Kontent-tahlilda matnni odiy o'qib chiqishdan farqli o'laroq uni tizimli tarzda muntazam tartibga o'tkazishga va mazmun mohiyatini o'rganishga chorlaydi.

Bundan tashqari matndagi yashirin ma'noga ega so'zlarni, ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Kontent-tahlil o'zida tasodifiy tanlovni aniq baholashni va mavhumlashgan eksperimental harakatlarni bir vaqatda mujssamlashtirgan.

Sifatli kontent-tahlil pozivistik yondashuv vakillari tomonidan qo'llab quvvatlangan.

Miqdoriy yo'nalish tarafdorlari gohida sifatli tadqiqot usulidan foydalanib tadqiqotning ishonchliligini oshiradilar.

Kontent tahlilning asosiy tamoyillari ² - amerikalik sotsiologlar X. Lassuel va B. Berilonlar tomonidan ishlab chiqilgan. Uni rivojlantirishda Rossiyalik va Estoniyalik sotsiologlar A. Alekseyev, Y. Vooglayd, P.Vixalemm, B. Grushin, T. Drize, M. Lauristinlar muhim hissa qoshganlar.

¹ B.Karimov “Sotsiologik tadqiqot metodi va texniokasi” Buxoro-2005, 53-54-betlar

² B.Karimov “Sotsiologik tadqiqot metodi va texniokasi” Buxoro-2005, 54-bet

Kontent tahlilning asosiy jarayonlari: ¹


- I. Alohida atamalarda ifodalangan tushuncha. Jumladan bu tushunchalar iqtisodiy sohada bo'lishi mumkin: xususiy mulk shakllari, xususiylashtirish, moliyaviy tizim, pul munosabatlar, texnik taraqqiyot, xo'jalik usullari va h.k.. Matn tahlili o'z mazmuniga ko'ra ko'plab ijtimoiy ma'lumotlarni aks ettiradi.
- II. Maqolalarda, matn parchalarida, abzatlarda aks ettirilgan to'liq mazmunlar, radioeshittirishlar va boshqalarda ifodalangan mavzular. Hujjat mazmunini uning mavzusi asosida yanada to'laroq anglash mumkin. Tashabbuskorlik va serg'ayratlilik, byurokratizm va markazlashuvga qarshi kurash, inson huquqlari va qonunchilikka rioya qilish, fuqarolik jamiyatida ijtimoiy adolat mavzulari va h.k.. Bunday holatlar shaxsiy hujjatlarda, o'zi va yaqinlari haqida, ishlab chiqarish, san'atda va siyosatda ham namoyon bo'ladi.
- III. Tashkilot va muassasalar, ijtimoiy institutlar, partiya va ijtimoiy harakatlar liderlari, ishlab chiqarish tashkilotchilari, taniqli fan va san'at arboblari, siyosatchilar, tarixiy shaxslar nomlari.
- IV. Tahlil birligi sifatida yaxlit ijtimoiy hodisalarni, rasmiy hujatlarni, dalillar va voqealardagi holatlarni qabul qilish mumkin. Ijtimoiy voqealar yoki davlat qarorlarining uzoq davr mobaynida yodda saqlanishi jamiyatda zarurligidan guvohlik beradi.

¹ B.Karimov "Sotsiologik tadqiqot metodi va texniokasi" Buxoro-2005, 55-bet

3.2. Tahlil natijalari

Kontent-tahlil qilinayotgan kitobning tuzilishi

Kitob nomi	Muallifi	Nashriyoti	Nashr qilingan yili	Hajmi
“Ihyou ulumid-din”(Din ilmlarini jonlantirish.) 1-juz-Ilm kitobi	Muhammad al-G’azzoliy	Toshkent “Movorounnaxr”	2003-yil	231 bet



Tayanch iboralarga asoslagan tahlil.

Birinchi bob tahlili

Ilm, ta'lim berish va ilm olish fazilatining aqliy dalillari.

<i>№</i>	<i>Tayanch tushunchalar</i>	<i>Kitobda tayanch tushunchalarga berilgan tarif</i>
1.	Fazilat	«Fazilat» soʻzining maʼnosi ayni oʻrnida tushunilmasa, uning nima maqsadda ilm yoki undan boshqa narsalarga sifat boʻlib kelgani ham tushunilmaydi. Darhaqiqat, birovning hakimligi yoki hakim emasligini «hikmat» soʻzining maʼnosidan kelib chiqib anglashiladi. «Fazilat» soʻzi ziyodalik maʼnosidagi «fazl» soʻzidan olingan. Agar ikki narsada bir xil sifat mavjud boʻlib, birining sifati boshqasidan koʻproq boʻlsa, afzalroq, ziyodaroq, deyiladi. Bunda mazkur narsaning mukammalligiga dalolat qiluvchi ziyodalik miqdori ahamiyatli emas. Masalan, ot eshakdan afzal, deyilsa, ot bilan eshak yuk tashishda teng, ammo ot chopish, tez yurish va chiroyli suratda eshakdan ortiqroq, afzalroq ekanitushuniladi. Hatto birorta eshak otdan kattaroq boʻlsa-da, u otdan afzal deyilmaydi. Chunki eshak jussada otdan kattaroq boʻlgani bilan yuqoridagi maʼnolarda ustun emas va u mukammallikka dalolat qilmaydi. Shu singari, ilmning fazilati ham boshqa sifatlar bilan qiyoslanganda anglashiladi. Tez yugurishda ot eshakka nisbatan afzal sanalsa-da, u mutlaq fazilatli emas. Ilm esa aynan fazilatdir, boshqa narsaga qiyos qilinmaganida ham mutlaq afzal boʻlib qolaveradi. Zero, ilm Alloh taoloning komil sifati, maloika va paygʻambarlarning sharafidir. Bilgilki, nafis margʻub narsa uchga boʻlinadi: boshqa narsa u orqali yetiladigan, aynan oʻsha narsaning oʻziga yetiladigan va oʻzidagi hamda boshqadagi narsaga barobaryetiladigan narsalar.
2.	Aynan oʻzi istaladigan narsa	«Aynan oʻzi istaladigan narsa» «boshqasiga u orqali yetishiladigan narsa»dan ustundir. «Boshqasiga u orqali yetishiladigan narsa»ni oltin va kumush misolida koʻrish mumkin. Alloh taolo u ikkisini oʻzaro muomala vositasi qilib qoʻymaganida, oddiy toshdan farqi boʻlmas edi. «Aynan oʻzi istaladigan narsa» oxirat saodatiga erishish va Allohning jamolini koʻrishlazzatidir. «Aynan oʻzi va boshqasi uchun istaladigan narsa» esa, badan salomatligidir. Chunki kishi maqsad-hojatlariga erishishi uchun ham, oʻzi uchun ham tan-joni salomat boʻlishi kerak. Shu eʼtibor bilan qarasak, ilm lazratli va ayni talab qilinadigan narsa ekani, shuningdek, uning saodatga eltuvchi yoʻl va Allohga yaqinlashtiruvchi vosita ekanibilinadi.
3.	Amallarning eng afzalidir	Odam farzandi yetishi mumkin boʻlgan eng ulugʻ martaba, eng oliy daraja saodati abadiyadir. Demak, unga vasila boʻladigan

		narsa eng afzal narsa. Saodati abadiyaga ilm va amalsiz hargiz erishish mumkin emas. Amalga esa, qanday amal qilish ilmini bilmasdan erishish mahol. Dunyo va oxiratdagi saodatning asosi ilmdir. Shu jihatdan ilm amallarning eng afzalidir.
4.	Ilmning samarasi	Bir narsaning fazilati uning samarasi bilan bilinadi. Bildikki, ilmning samarasi olamlar Parvardigoriga qurbat hosil qilish va farishtalar darajasiga erishish ekan. Bu narsalar oxiratga oid limningfoydalaridir. Ilmning dunyodagi manfaatlari esa, azizlik, viqor, hukmdorlarga soʻzi taʼsir qilishi vaboshqalar tarafidan hurmatga sazovor boʻlish kabilardir. Hattoki har bir millatning esi pastlari ham olimlarni ilmlari tufayli hurmat qiladi. Bu narsa ilmning mutlaq fazilatidir.
5.	Oʻrganish va oʻrgatish	Ilmlar ham bir-biridan fazilatda farq qiladi, bu haqda keyinroq toʻxtalamiz. Taʼlim berish va taʼlim olish fazilat ekani biz zikr etgan narsalarda ochiq koʻrinib turganishdir. Zero, ilm eng afzal narsa boʻlgach, uni oʻrganish va oʻrgatish ham afzal ish boʻladi.
6.	Diniy nizom va dunyoviy nizom	Insonlarning gʻoyasi, maqsadi din vadunyoga aloqadordir. Diniy nizom dunyoviy nizomsiz vujudga kelmaydi. Zero, dunyooxirat ekinzoridir. Dunyoni vatan va doimiy qarorgoh deb tushunmasdan, uni vositasifatida bilganlar uchun dunyo Allohga eltuvchi yoʻldir. Dunyoning tartib-nizomi odamlarning amallariga bogʻliq.
7.	Insonlarning ishlari, kasbu korlari va sanoatlari uch qismdan iborat:	1. <i>Olam oyoqda turishi uchun kerak boʻlgan asoslar.</i> Bular: yeb-ichish uchun ekin ekish; kiyim-kechak uchun toʻqimachilik qilish; yashash uchun bino-uy hozirlash; odamlaroʻrtasida oʻzaro yordam. 2. <i>Bularning har birini yuzaga keltirishga koʻmak beradigan omillar.</i> Masalan, dehqonchilik uchun asbob-uskuna tayyorlab beradigan temirchilik sanoati yoki toʻqimachilik uchun zarur boʻlgan paxta tozalash, ip yigirish kabi sanoatlar. 3. <i>Mazkur asoslarni mukammallashtiruvchi va ziynat beruvchi ishlar.</i> Bunga un qilish, pishirish, yuvib tozalash va tikishlar kiradi. Insonning aʼzolari unga qancha ahamiyatli boʻlsa, bu uch asos uning hayotida ham shunchalik muhimdir.
8.	Insonlarning aʼzolari ham uch asosga boʻlingan:	1. Qalb, jigar, miya kabi asl aʼzolar. 2. Asl aʼzolarga xizmatchi boʻlgan aʼzolar: oshqozon, tomirlar, asab tolalari, arteriya va vena qon-tomirlari kabi. 3. Asl aʼzolari toʻldiruvchi va ularga ziynat beruvchi aʼzolar: tirnoq, barmoq, qosh va boshqa aʼzolar.
9.	Sanoatlarning eng sharaflisi	Yuqorida aytib oʻtilgan sanoatlarning eng sharaflisi asos boʻlganlaridir. Ularning ham ulugʻi va sharaflisi esa, kishilar orasida isloh va ulfatni joriy qiluvchi siyosatdir. Shuning uchun boshqa kasbu sanoatda talab qilinmaydigan shart – boshqara bilish mahorati siyosatda talab qilingan. Shu sababdan boshqalar siyosat sohiblariga xizmatda boʻladi.
10.	Sanoat, kasb-hunarning sharaflisi esa uch	1) uni bilishga vasila boʻlgan gʻariza - tabiiy ehtiyojga qarash bilan. Bu aqliy ilmlarning lugʻaviy ilmlardan afzalligiga oʻxshaydi. Zero, ilm va hikmat aql bilan idrok qilinadi. Lugʻat

	narsa bilan bilinadi:	(til) , eshitish bilan olinadi. Aqlning eshitishdan ustunligi esa ma'lum; 2) umumiy manfaatlarga ko'ra bilinadi. Masalan, dehqonchilik zargarlikdan afzaldir; 3) tasarruf o'rning e'tibori bilan bilinadi. Zargarlik ko'pchilikdan afzaldir, chunki zargarning ish o'rni oltin, teri oshlovchining ishi o'lgan hayvonning terisi ustidadir.
11.	Aql	Shubhasiz, oxirat yo'lining fiqhi bo'lgan diniy ilmlar yetuk aql va sof zakovat bilan qo'lga kiritiladi. Aql insoniy sifatlarining eng ulug'i va sharaflisidir. Buning bayoni keyinroq keladi. Zero, aql bilan Allohning omonati qabul qilinadi, Uning roziligiga erishiladi
12.	Eng ulug' va aziz javhar qalbdir	Ilmning ulug'ligi hech kimga maxfiy emas, chunki muallim kishilarning qalbi va ruhiga ta'sir o'tkazib, ularni boshqaradi. Yer yuzidagi mavjudotlarning eng sharaflisi inson bo'lsa, undagi eng ulug' va aziz javhar qalbdir. Muallim shu qalbni kamolga yetkazish, unga jilo berish, uni polash va Allohga yaqin bo'lishga chorlash bilan mashg'uldir.
13.	Olim - xazinachi	Olim Allohning eng qimmatbaho xazinasiga xazinachi demakdir. Bu xazinaga muhtoj bo'lgan har qanday kishiga undan ulashish, ehson qilish huquqi muallimga berilgan. Alloh taologa yaqinlik hosil qilishda va jannatga yetaklashda banda bilan Allohning orasida vositachi bo'lishdan-da ulug' martaba bo'lishi mumkinmi?!

Ikkinchi bob tahlili

Mahmud va mazmum ilm, ularning qism va hukmlari haqida

Bu bobda o'rganish farzi ayn va farzi kifoya ilmlar, din ilmida kalom va fiqhning tutgan o'rni, oxirat ilmining afzalligi haqida so'z yuritiladi.

№	Tayanch tushunchalar	Kitobda tayanch tushunchalarga berilgan tarif
1.	Farzi ayn	Farzi ayn, ya'ni, har bir musulmon uchun o'rganish shart bo'lgan ilmlar haqida Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) shunday marhamat qiladilar: «Ilm talab qilish (o'rganish) har bir musulmonga farzdir». Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) yana aytadilar: «Ilmni Chinda bo'lsa ham o'rganinglar».
2.	Tark etish lozim bo'lgan ishlar	<i>Tark etish lozim bo'lgan ishlar</i> holat va sharoitga ko'ra har xildir. Soqovga yomon so'zni so'zlash haromligini, qoq sahroda yashovchi sahroyi kishi uchun o'tirish harom bo'lgan joylarni, ko'r uchun qarash mumkin bo'lmagan narsalarni o'rganish farz emas. Shuningdek, holat taqozosiga ko'ra, bular farz ham bo'lishi mumkin. Munkar ishlar ko'rilmaganda ularning ilmini o'rganish farz emas. Ammo sodir etilsa, uning ilmini o'rganish va boshqalarni ogohlantirish farz bo'ladi. Masalan, bir musulmon o'lkada ipak kiyim kiyuvchi erkak yoxud birovning molini zo'rlab oluvchi yoki nomahramga nazar qiluvchi kishi mavjud bo'lsa, bu ishlarning haromligini bildirish farzdir.
3.	E'tiqod va qalbga tegishli ishlar	<i>E'tiqod va qalbga tegishli ishlarda</i> shubha, xavotir paydo bo'lsa, uning ilmini o'rganish shartdir. Agar ikki shahodat kalimasi dalolat qilgan ma'nolarda shubha tug'ilsa, uni daf qiladigan ilmni o'rganish lozim bo'ladi. Ammo shubhaga bormasdan, Alloh taoloning sifatlariga, U zotning kalomi qadim ekaniga, oxiratda Uni ko'rishga va boshqa narsalarga mufassal e'tiqod qilmasdan oldin vafot etsa, butun ulamolar ijmosiga ko'ra, u musulmon holida ketgan bo'ladi. E'tiqodga taalluqli xavotir va shubhalar gohida insonning o'zidan bo'ladi, ba'zisi esa, boshqalardan eshitish bilan tug'iladi. Kishi falsafa keng tarqalgan, odamlari turli bid'atlarni so'zlaydigan shaharga borib qolsa, Haqni zikr etish bilan o'zini himoya qilishi lozim.
4.	Botil fikr-qarashlar	Agar uning (kishining) qalbiga botil fikr-qarashlardan birortasi tushib qolsa, uni qalbidan ketkazish farz bo'ladi. Ko'pincha bu ish qiyin kechadi. Masalan, ribo, sudxo'rlik keng tarqalgan bir shaharda musulmon kishi savdogarlik qilsa, unga ribodan saqlanish ilmini o'rganish farzdir.
5.	Uch narsa insonni halok etadi:	Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) marhamat qilganlarki: «Uch narsa insonni halok etadi: o'ta baxillik, ortidan ergashtirib ketadigan xohish, takabburlik bilan nafsiga ortiqcha baho

		berish».
6.	Ilmlar bo‘linadi.	Bilgilki, ilmlarning turlarini bilmasdan turib, ularning farz bo‘lgani va bo‘lmaganini ajratish mumkin emas. Bizning maqsadga ko‘ra, ilmlar shar‘iy va noshar‘iy qismlarga bo‘linadi.
7.	Shar‘iy ilmlardan maqsad	Shar‘iy ilmlardan maqsad payg‘ambarlardan o‘rganilgan, hisob kabi aql bilan bilinmaydigan, tibbiyot kabi tajriba bilan hosil bo‘lmaydigan, til kabi eshitish bilan vujudga kelmaydigan ilmlar nazarda tutiladi.
8.	Shar‘iy bo‘lmagan ilmlar	Shar‘iy bo‘lmagan ilmlar mahmud (maqtalgan), mazmum (qoralangan), mubohga bo‘linadi.
9.	Mahmud ilmlar	Dunyo manfaatlari ularga bog‘langan ilmlardir. Masalan, hisob-kitob, tibbiyot. Bu qism ilmlarning o‘rganish farzi kifoya bo‘lganlari bor, farz bo‘lmasdan, fazilat sanalganlari bor.
10.	Farzi kifoya ilmlar	Farzi kifoya ilmlar dunyo ishlarini qoyim qilishga kerak bo‘ladigan ilmlardir. Masalan, tib ilmi inson jismining sog‘lom turishi uchun zarur, hisob-kitob ilmi esa, muomalalarda, merosu vasiyatlarining taqsimotida kerak bo‘ladi. Bu ilmlardan birortasi biror shaharda bo‘lmay qolsa, shahar ahlining barchasi gunohkor bo‘ladi. Agar uni bir kishi o‘rgansa, kifoya qilib, uni o‘rganish farzi qolganlardan soqit bo‘ladi. Tibbiyot va hisob-kitobni farzi kifoya degan so‘zimizdan ajablanmaslik kerak. Aslida, sanoatning boshqa sohalari - dehqonchilik, to‘qimachilik, siyosat ilmi, hattoki, qon olish kasbi va tikuvchilik ham farzi kifoyadir. Zero, bir mamlakatda qon oluvchi do‘xtir topilmasa, ular kasallikka yuz tutishlari turgan gap. Bu kasb yo‘qligi tufayli odamlar halok bo‘lsa, ularning barchalari gunohkor bo‘ladi. Zero, kasallikni bergan Zot uning da‘vosini ham bergan va muolaja yo‘lini ko‘rsatgan, sabablarni hozirlab qo‘ygan. Bunga e‘tibor qilmay, halokatga ro‘baro‘ bo‘lish joiz emas.
11.	Fazilat sanalgan ilmlar	Fazilat sanalgan ilmlarga hisob-kitobning daqiq jihatlar, tibbiyotning nozik qirralarini chuqur o‘rganish kiradi. Chunki farzi kifoya bo‘lgan ilmlarni nozik jihatlar bilan chuqur o‘rganish zarur ilmni ziyodasi bilan bilish, demakdir.
12.	Mazmum ilmlar	Sehr, tilsimot, ko‘z bog‘lash va talbis (bir narsani haqiqatidan boshqacha qilib ko‘rsatish) kabilardir.
13.	Muboh bo‘lgan ilmlar	<i>Muboh bo‘lgan ilmlarga</i> esa, mubolag‘asiz yozilgan she‘rlarni bilish, qadim tarix bilan shug‘ullanish va shu kabilar kiradi.
14.	Shar‘iy ilmlar	Shar‘iy ilmlarning barchasi mahmud-maqtalgandir. Gohida asli qoralangan, lekin shar‘iy deb gumon qilingan ba‘zi ilmlar shar‘iy ilmlarga aralashib ketishi mumkin. Shuning uchun shar‘iy ilmlarni ham maqtalgan va qoralangan qismlarga bo‘lamiz. Mahmud bo‘lgan shar‘iy ilmlarning <i>asoslari, qo‘shimchalari, muqaddimalari va to‘ldiruvchilari</i> bor.
15.	(Shar‘iy ilmlarga) asos bo‘lgan ilmlar	1. Alloh taoloning kitobi. 2. Payg‘ambarning (sollallohu alayhi vasallam) sunnatlari. 3. Ummatning ijmo‘si.

	to'rttadir:	4. Sahobiylar asarlari
16.	Qo'shimcha ilmlar ikki qismga bo'linadi:	1. <i>Dunyo ishlarini tartibga solishga taalluqli ilmlar.</i> Bu ilmlarni fiqh kitoblari o'z ichiga olgan bo'lib, ular bilan shug'ullanuvchi kishilar faqihlar deb ataladi. Bular dunyo olimlaridir. 2. <i>Oxirat ishlariga taalluqli ilm.</i> Bu ilm qalb holatlarini, yaxshiyomon xulqlarni, Alloh rozi bo'ladigan va sevmaydigan ishlarni o'rgatadi. Kitobning oxirgi qismi bu haqdagi bahsni o'z ichiga olgan. (Ya'ni, «Ihyou ulumiddin» kitobining oxirida qalbdan a'zolarga keladigan taqvo ilmi bayon qilingan. – Tarj.)
17	Muqaddimot	<i>Muqaddimot</i> boshqa ilmlarni o'rganishda vosita bo'lgan ilmlardir. Bunga til, nahv (grammatika) misol bo'ladi. Ular asli diniy ilmlar emas, balki Qur'on va hadis ilmlarini tushunishda bir vositadir. Shariatimiz arab tilida kelgani uchun bu tilning qonun-qoidalarini o'rganish lozim. Shariat hukmlari tilni bilish orqali tushuniladi. Demak, vosita bo'lgan tilni o'rganish kerak ekan. Yozishni o'rganish ham muqaddima ilmlaridandir. Lekin yozish til kabi zaruriy emas. Chunki Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) yozishni bilmaganlar. Eshitilgan hamma narsani yodda saqlab qolish mumkin bo'lganida, yozuvga bo'lgan ehtiyoj yana-da ozayardi. Demak, buning imkoni yo'q ekan, yozishni bilish ham zaruriybir ehtiyojdir.
18	To'ldiruvchi ilmlar	<i>To'ldiruvchi ilmlarning</i> birinchi qismi Qur'on ilmi haqida bo'lib, u uch qismga bo'linadi: a) qiroat ilmi. Harflarning maxrajini o'rganish kabi Qur'on lafziga taalluqli ilmlar; b) tafsir kabi Qur'onning ma'nosiga taalluqli ilmlar. Tafsir ham naqlga suyanadi. Zero, tilning o'zi bu ishni bajara olmaydi; v) nosix, mansux, omu xos, nass (dalil), zohir va bularning bir-biri bilan aloqasini o'rganish kabi Qur'on hukmlariga taalluqli bo'lgan ilmlar. Bu ilm usulul fiqh (fiqh asoslari) deb nomlanadi va sunnat ham uning ichiga kiradi.
19	Rijal ilmi (roviylar haqidagi ilm)	Hadis va asarlardagi to'ldiruvchi ilmlarga rijal ilmi (roviylar haqidagi ilm), ularningismlari, nasablari, sahobalar ismlari va sifatleri, roviylarning adolatli ekani haqidagi ilm, zaif hadis bilan kuchli hadisning orasini ajratish uchun roviylarning holatlarini bilish ilmi, musnad hadis bilan mursal hadis orasini ajratish uchun roviylarning yoshlari va umrlari haqidagi ilmlar kiradi. Yuqorida ko'rib o'tilgan to'rt qism ilm shar'iy hisoblanib, ularning barchasi maqtalgandir, shuning bilan birga ular farzi kifoyadir.
20	Insonning ibtidosi, g'oyasi va boradigan yeri	Ma'lumki, Alloh taolo Odam alayhissalomni tuproqdan xalq etdi, u kishining zurriyotlarini tuproqdan bo'lgan otaning maniyidan va onaning ko'krigidan otilib chiquvchi suvdan yaratdi. Zurriyotlarini otalar belidan onalar bachadoniga, undan dunyoga, keyin esa qabrga, qabrdan hisob maydoniga, undan jannat yoki narsalar insonning ibtidosi, g'oyasi va boradigan yeridir do'zaxga chiqaradi. Mana shu narsalar insonning ibtidosi, g'oyasi va boradigan yeridir. Oxirat hayotiga zod (ozuqa) to'plash uchun dunyoni yaratdi. Agar insonlar dunyoni adolat bilan tutsalar, xusumat dushmanliklar kesiladi

21	Taqvodorlikning to'rt martabasi bor:	1. Guvohlarning adolatli bo'lishida shart qilingan taqvodorlik. Bu martabani inson tark etsa, guvohlik, qozilik va valiylik (rahbarlik) kabi ishlarda uning layoqati ketgan hisoblanadi. Bunday taqvo ochiq haromdan saqlanishdir. 2. Solihlarning taqvosi. U tushib qolish ehtimoli bo'lgan shubhali narsalardan ham chetlanishdir. Bu haqda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Shubhali narsani qo'y, shubhasiz narsani ushla», debganlar.⁶⁷ Yana Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Gunoh qalblarning yarasidir», deb aytganlar.⁶⁸ 3. Muttaqiylar taqvosi. U haromga eltuvchi narsadan qo'rqib, halolni tark qilishdir. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Kishi zararli narsadan qo'rqib, zararsiz narsani tark qilmagunicha, muttaqiylardan bo'la olmaydi», deganlar. Buning misoli g'iybatga sho'ng'ishdan qo'rqib, kishilar holatini gapirishdan tiyilganga yoki nafs jo'sh urib, man' etilgan narsalarni yeb qo'yishdan qo'rqib, shahvatli narsalarning iste'molidan taqvo qilganga o'xshaydi. 4. Siddiqlar taqvosi. U Allohning huzurida qurbatni ziyoda qilishga foyda bermaydigan narsalarga umrning biror soatini bo'lsa-da, sarf etishdan qo'rqib, ulardan yuz o'girishdir. Garchi u narsalar bilan haromga tushib qolmasligini aniq bilsa ham.
22	Mukoshafa ilmi	<i>Mukoshafa ilmi</i> botiniy ilmdir va barcha ilmlarning g'oyasidir (ya'ni, botinni o'rganishdir). Ba'zi oriflar: «Kim mana shu ilmdan nasibador bo'lmasa, unga yomon oqibat kelishidan qo'rqaman», deb aytishgan. Nasibador bo'lishning eng ozi esa, uni tasdiq qilib, o'sha ilm ahliga ergashishdir. Ayrimlar aytdiki: «Kimda bid'at va kibr bo'lsa, mukoshafa ilmidan biror narsa unga ochilmaydi». Yana aytishlaricha, kim dunyoni yaxshi ko'rsa yoki havoyi nafsiga ergasha, mukoshafa ilmi unda bo'lmaydi. Balki boshqa ilmlarni egallashi mumkin. Bu ilmni inkor qilganlarning eng oz jazosi undan zavqlanmaslikdir. U ilm mazmum sifatlardan pok qalbda zohir bo'ladigan nurdir. Mana shu nur bilan oldin eshitilgan, lekin ma'nolari anglashilmagan ko'p ishlar kashf bo'ladi, Allohning zotini, boqiy va komil sifatlarini, fe'lini, dunyo va oxiratni yaratishdagi hikmatlarini, dunyo ustiga oxiratni qo'yish tartibini, nubuvvat, nabiyy va vahiy ma'nosini, farishtalar va shaytonlar lafzlarining ma'nosini, shaytonning insonlarga dushmanligi, anbiyolarga farishtalarning ko'rinish va payg'ambarlarga vahiy kelish kayfiyatini, yer va osmonlar saltanatini, qalbni bilishni, farishtalar va shaytonlar jamoasi orasidagi farqni, oxirat, jannat, do'zax, qabr azobi, sirot, mezon va hokazolarni o'sha nur orqali angelaydi. ma'nosini angelaydi. Allohning quyidagi so'zi shu ma'nolarni ifoda etadi: «(Va unga deyilur): «Nomai a'molingni o'qi! Bugun o'z nafsing o'zingga qarshi yetarli hisobchidir» (Isro surasi, 14-oyat); «Agar ular bilsalar, oxirat diyoridagina (mangu) hayot (diyoridir)» (Ankabut surasi, 64-oyat). (Mukoshafa ilmi ila qalbda zohir bo'lgan nur bilan) shuningdek, Allohga yo'liqib, Uning karim yuziga nazar solish, Unga yaqin bo'lish, Unga qo'shni tutinish, malaul a'lo saodatiga musharraf bo'lish, farishta va nabiylarga yaqin bo'lish, ahli jannat darajalarining tafovuti, hatto, ular bir-biriga osmondagi yulduzga qaragandek qarashlari

23	Muomala ilmi.	Ikkinchi qism esa, <i>muomala ilmidir</i> . U qalb holatlarini o'rganadi. Ularning ichida sabr, shukr, xavf (doimo Allohdan qo'rqib turish), rajo (Allohning rahmatidan umid qilish), rizo (qazoi qadarga rozi bo'lish), zuhd, taqvo, qanoat, saxovat, minnat Alloh taologa xos ekanini bilish, yaxshi fikrda bo'lish, go'zal xulqlilik, birgalikda go'zal hayot kechirish, rostgo'ylik va ixlos kabi maqtoqli holatlar bor. Ularning haqiqatini, me'yorlarini va sabablarini, samarasini, belgilarini o'rganish va zaif bo'lganini muolaja qilib, kuchaytirish oxirat ilmidir. Shuningdek, qalb holatlari ichida qoralanadiganlari bor: faqirlikdan qo'rqish, norizo bo'lish, hiyla, gina, hasad, aldov, mansabparastlik, maqtoqli yoqtirish, dunyoda uzoq muddat qolishni yaxshi ko'rish, kibr, riyo, g'azab, qo'pollik, adovat, nafrat, tama', baxillik, (dunyo ashyolariga) rag'bat, maqtanchoqlik, nonko'rlik, boylarni ulug'lash, faqirlarni kamsitish, g'ururlanish, manmanlik, faxrlanish, haqni qabul qilmaslik, manfaatsiz narsalarga kirishish, sergaplik, maqtanchoqlik, odamlar uchun ziynatlanish, laganbardorlik, o'z aybi qolib, o'zgalar aybi bilan mashg'ul bo'lish, qalbdan mahzunlikning ketishi (ya'ni, oxirat haqida o'ylamaslik), Allohdan qo'rqmaslik, nafsga xorlik yetgan chog'da, uni qo'llab-quvvatlash, haqni qo'llashdan ojiz bo'lish, ichdan dushman bo'laturib, zohiriy do'st tutish, Alloh bergan ne'matini yana qaytarib olishidan xotirjam bo'lish, qilgan ibodatlariga suyanib qolish, makr, xiyonat, uzun orzu-havas, qalb qattiqligi, dunyosi bilan sevinish, yo'qotgan dunyosiga afsuslanish, maxluqlar bilan ulfat bo'lish, ulardan ajragani uchun dahshatga tushish, qo'pollik, yengiltaklik, shashqaloqlik, hayo va marhamatning kamligi. Ushbular va ushbularga o'xshash qalbning yomon sifatleri fahshning bog'i va hazar qilinadigan ishlarning ekinzoridir. Bu sifatleri ziddi bo'lgan maqtovg'a loyiqli xulqlar esa, ibodat va Allohga qurbat hosil qilishning manbaidir. Demak, ushbu salbiy xislatleri me'yorleri, haqiqatleri, sabableri, natija va davolarini bilish ham oxirat ilmidir. Uni o'rganish, oxirat ulamolari fatvolari ko'ra, farzi ayndir. Bu ilmdan yuz o'giruvchilar oxiratda podshohlar Podshohining qahriga yo'liqadi.
24	Falsafa	Falsafa butun boshli bir fan emas, balki to'rt qismdan iboratdir: 1. <i>Birinchisi: handasa va hisob ilmi</i> (geometriya va matematika). 2. <i>Ikkinchisi: Mantiq ilmi</i> 3. <i>Uchinchisi: Ilohiyot ilmi.</i> 4. <i>To'rtinchisi: Tabiiy fanlar ilmi.</i>
25	Handasa va hisob ilmi (geometri-ya va matemati-ka).	Bu ikkalasi, avval zikr etilganidek, o'rganish muboh bo'lgan ilm. Ularni o'rganish faqatgina umumiy mazmum darajaga o'tib ketishi mumkin bo'lgan odamga man' qilinadi. Binobarin, bu ikki ilm bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchiligi bid'at chegarasigacha chiqib ketishgan. Ba'zi odamlarni bu ilmlarni o'rganishdan qaytarish ularning mahzurligi uchun emas (balki odamlarningirodasi zaifligidan). Bu hol suzishni bilmaydigan bolaning anhor bo'yida turishidan yoki
26	Mantiq ilmi.	Bu ilm dalil va uning shartleri, had va uning darajalari haqida bahs


		yuritadi.
27	Ilohiyot ilmi.	U Alloh subhonahu va taoloning zoti va sifatleri haqida bahsyurituvchi fandır. Bu fan kalom ilmi sanaladi. Faylasuflar ilohiyat fanidan ayri bir ilm yaratib, ajrab chiqishmagan. Balki ayrimlari kofir, ayrimlari bid'atchi bo'lib, mazhablargabo'linib ketishgan. Mu'tazila mustaqil ilm emas, balki uning ahli mutakallimlar, bahslashuvchilar va mutafakkirlardan iborat toifadir. Ular ham botil mazhablarga ajrab ketganlar. Faylasuflar ham xuddi shunday.
28	Tabiiy fanlar ilmi	Bulardan ba'zilar shariat va dinga teskari keladi. Ular ilm emas, balki jaholatdir. Yana ba'zilar borliqdagi jismlarning xususiyatini, qanday qilib boshqa shaklga o'tishlari va o'zgarishlarini tadqiq qiladi. Bu narsa tabiblarning qarashiga o'xshaydi. Faqat tabiblar inson tanasiga qanday kasallanish va qanday sog'ayish xususiyatlari jihatidan, tabiiy fan olimlari esa, jismlarning o'zgarishi va harakatlanishi jihatidan qaraydilar. Lekin tabibning ulardan afzalligi bor, chunki tabib inson salomatligi uchun harakat qiladi. Ammo tabiiy fan olimlarining ilmiga hojat yo'qdir. U ilmlarni o'rganishga ruxsat berilgani esa, bid'atchilarning xom xayollaridan avom xalqning e'tiqodlarini asrash uchundir
29	Kalom ilmining paydo bo'lishi	Kalom ilmining paydo bo'lishi bid'atchilarning chiqishi bilan bog'liq. Binobarin, arablarning zulmi va ularning yo'lto'sarliklari paydo bo'lishi bilan hajga boruvchilar yo'liga qo'riqchilar ijaraga olinib boshladi, agar arablar dushmanchiliklarini tark etsalar, qo'riqchini ijaraga olish shart bo'lmas edi. Bid'atchi ham o'zining botil da'volarini tark qilsa, sahobalar davridagi ilmlar kifoya qilib, kalom ilmini o'rganishga extiyoj tug'ilmasdi.
30	Alloh taolaga yaqinlik hosil qiluvchi narsalar uch qism:	1. Mujarrad (yolg'iz) ilm . U mukoshafa ilmi. 2. Mujarrad (yolg'iz) amal. Masalan, sultonning adolati va xalqni adolat ustida ushlab turishi. 3. Ilm va amaldan tarkib topgan harakat. U oxirat yo'li-n-ing ilmidir. Uning sohiblari barcha olimlar va amal qiluvchilardir.

Uchinchi bob tahlili


Omama mahmud hisoblagan, ammo mahmud bo'lmagan ilmlar haqida.

Ushbu bobda ayrim ilmlarning gohida mazmum (qoralangan) bo'lishi, fiqh, tavih, tazkir va hikmat kabi ilmlar nomlarining o'zgarishi, shar'iy ilmlarning mahmud va mazmum bo'lgani miqdori bayon etiladi.

№	Tayanch tushunchalar	Kitobda tayanch tushunchalarga berilgan tarif
1	Ilm	Narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha bilmoq, tanimoq ilmdir
2	Mazmum bo'lgan ilmni yomonlash illatining bayoni.	Ehtimol sen: «Narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha bilmoq, tanimoq ilmdir. Va u Alloh taoloning sifatlaridan biridir. Endi qanday qilib, narsa ilm, shu bilan birga, yana mazmum ham bo'ladi», deyishning mumkin. Bilginki, aynan ilmning o'zi qoralanmaydi, balki uchta sababning biri tufayli bandalar qoralanadi:



Birinchi sabab – ilm o'z sohibini yoki boshqalarni qandaydir zararga olib borishi. Masalan, sehr va tilsim ilmlari, haq bo'lsa-da, shu sabab tufayli yomonlanadi. Zero, Qur'oni karim sehrning borligiga guvohlik bergan. U erxotin o'rtasini ajratib yuborishga sababdir. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) ham sehr qilinganlar⁷⁷ va u sababli kasal bo'lganlar. Bu haqda Jabroil (a.s.) Payg'ambarimizga xabar bergan va u zot quduq tagidagi toshdan sehrni chiqarganlar. Sehr inson javharlarining xosiyatlari va yulduzlarning chiqishlarini hisob-kitob qilish orqali o'rganiladigan ilmdir. Xosiyatlari ma'lum bo'lgan javhardan sehr qilinadigan shaxsning shakli yasaladi va ma'lum yulduzlarning vaqti ko'rib turiladi. Yulduzlar chiqishi bilan shariatga zid, kufr va fahsh so'zlar o'qiladi. Shu duo tufayli shaytonlardan yordam so'raladi. Natijada Alloh taoloning joriy odati bilan sehr kishida g'ayri oddiy holatlarni yuzaga keltiradi. Sehr ushbu sabablarni o'rganish jihatidan mazmum emas, balki uni ishlatish faqat xalqqa zarar yetkazgani uchun yomondir. Yomonlikka vosita bo'lgan narsa ham yomon sanaladi. Ilmning mazmum bo'lishiga shu narsalar sabab bo'ladi. Bir odam Allohning bir valiyini o'ldirish uchun quvayotgan bo'lsa, u valiy pana joyga yashirinib olsa, zolim uning yashiringan joyini so'rasa, aytib berish joiz mas. Balki aldash vojibdir. Uning yashiringan joyini aytish zararga olib borgani uchun mazmumdur.



Ikkinchi sabab – ilm o‘z sohibiga (foydadan ko‘ra) ko‘proq zararli bo‘lishi.

Masalan, nujum – yulduzlar ilmi. Bu ilmning ham aynan o‘zi mazmum emas. Nujum ilmi ikki qismga bo‘linadi. Birinchi qism hisob-kitob ilmi. Binobarin, Qur‘oni karim oy va quyoshning sayr qilishi hisob-kitobli ekanini so‘zlagan. Alloh taolo:

«Quyosh ham, oy ham aniq hisob kitob bilan (joriy bo‘lur): «Biz oyni ham toki u eski (xurmo) butog‘i kabi bo‘lib (egilib, hilol holiga kelib) qolgunicha bir necha manzilga belgilab tayinlab qo‘ygandirmiz», degan.

Ikkinchi qism hukmlar ilmi. Bu ilm bilan shug‘ullanish borliqdagi ro‘y berayotgan voqeahodisalarning sababiga bog‘lab dalil chiqarishga olib boradi. Va u Alloh taoloning maxluqlari ustida odati va sunnatining joriy bo‘lishini bilishdan iborat. Lekin bu ilmni shariat mazammat qilgan. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Agar qadar zikr qilinsa, tilingizni tiying, yulduzlar zikr qilinsa, tilingizni tiying va mening sahobalarim zikr qilinsa, (ular haqida yomon so‘z so‘zlashdan) tilingizni tiying», deganlar.⁷⁸ Va yana: «Men ummatimga o‘zimdanda keyin uch narsa kelishidan qo‘rqaman: imom (rahbar)lar zulmi, yulduzlarga ishonish va qadarni yolg‘onga chiqarish», deganlar.⁷⁹

Umar ibn Xattob (r.a.): «Quruqlik va dengizda yo‘l topadigan miqdorda yulduzlar ilmini o‘rganing, so‘ng qolganidan o‘zingizni tiying», deganlar. Qolganini bilishdan qaytarishlari uch jihatga ko‘ra:

Birinchi jihat: u xalqning ko‘pchiligiga zarar yetkazadi. Chunki odamlarga falon yulduzlar harakati orqasidan mana bu hodisalar paydo bo‘ldi, deyilsa, ularning qalblariga mana shu yulduzlar hodisalarga ta‘sirini o‘tkazuvchi va tasarruf qiluvchi ilohlar ekan, degan tushuncha o‘rnashib qoladi. Natijada qalb shu tushunchaga o‘ralib, yaxshilik va yomonlikning bo‘lish-bo‘lmasligini yulduzlarga bog‘liq deb biladi. So‘ng Alloh taoloning zikri qalbidan o‘chadi. Zaif kishi nazarini sabab-vositalar bilan cheklab qo‘yadi.

Ilmda mustahkam bo‘lgan kishi esa quyosh, oy va yulduzlar Alloh taoloning amriga bo‘ysundirilgan deb biladi. Zaifning nazari bunday: U quyosh chiqsa, nuri taraladi deb biladi. Xuddi chumoli qog‘ozning ustiga chiqib qolib, yozilayotgan qora harflarni qalamning ishi deb o‘ylagani singari. Uning tushunchasi barmoqlarni, barmoqdan so‘ng qo‘lni, qo‘ldan so‘ng uni harakatga keltiruvchi irodani, undan so‘ng yozishni iroda qiluvchi qobiliyatli kotibni, undan so‘ng yozayotgan qo‘lga qobiliyatni va xohish-irodani bergan zotni mushohada qilishga yetmaydi.

Ko‘pchilikning tushunchasi eng quyidagi sabablarni ko‘rish bilan cheklangan.

Sabablarning sababchisini ko‘ra bilishga aqlari qosirdir. Binobarin, mana shu narsa nujum ilmini o‘rganishdan qaytarish sabablaridan biridir.

Ikkinchi jihat: yulduzlarga qarab hukm chiqarish taxminiydir, u birorta shaxs haqida aniq yoki gumonli (yaqiy va zon) xabar bermaydi. Taxmin bilan hukm chiqarish esa, jaholat bilan hukm chiqarishdir. Shunga ko'ra, bu ilm yulduzlar ilmi bo'lgani uchun emas, jaholat bo'lgani uchun yomonlanadi. Xabarlarda yulduzlar ilmini bilish Idris alayhissalomga mo'jiza qilib berilgani aytilgan. U kishidan so'ng bu ilm insonlardan uzoqlashib, yo'q bo'lib ketdi. Munajjimlarning ayrim hollarda qilgan taxminlarining rost chiqishi faqat muvofiq kelib qolish bilan bog'liq. Chunki munajjim ba'zi sabablarni biladi. Vaholanki, inson haqiqatni bilolmaydigan ko'pgina shartlar borki, ularning orqasida musabbab (sababning natijasi) hosil bo'ladi.

Munajjim bilgan sabab Alloh taolo taqdir qilgan sabablarga to'g'ri kelsa, taxmini to'g'ri chiqadi. Yo'qsa, xato qiladi. Bu hol to'p-to'p bulutlarning ketma-ket kelayotganini ko'rganda, insonning bugun yomg'ir yog'adi, degan taxminiga o'xshaydi. Gohida bulutlar tarqalib, kun isib ketadi, gohida aksi bo'ladi. Chunki bu yerda inson bilmaydigan boshqa sabablar ham bor, yolg'iz bulutning o'zi yomg'ir yog'ishiga sabab bo'lolmaydi. Yoki dengizchi shamollar haqidagi tajribasiga tayanib, kema falokatga yo'liqmaydi, deb taxmin qiladi. Ammo shamollarda maxfiy sabablar borki, dengizchi ularni bilmaydi. Gohida uning taxmini to'g'ri chiqadi, gohida xato. Xullas, shu illatlar tufayli ham yulduzlardan so'zlash man' etiladi.

Uchinchi: foydasi bo'lmagan jihat. Chunki yulduzlar ilmining hisob-kitob va yo'l topishdan ortiqchasini o'rganish samarasiz narsaga sho'ng'ish va insonning eng qimmat boyligi bo'lmish vaqtni foydasiz narsaga zoe' ketkazishdir va bu narsa zararlarning dahshatlisidir. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bir odamni ko'pchilik o'rab olganini ko'rib, buning sababini so'radilar. Odamlar: «Katta olim kishi ekan», deyishdi. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Qaysi masalada?» deb savol qildilar. Ular: «She'r va arab nasablari bo'yicha», deb javob berishdi. Shunda Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Foyda bermaydigan ilm va zarar qilmaydigan johillik», dedilar. Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) so'ng aytdilarki: «Ilm muhkam oyat, qoyim sunnat va odil faroiz (ya'ni, meros taqsimlash) ilmidir»⁸⁰. Demak, yulduzlar ilmiga va shunga o'xshashlarga kirishish jaholatga sho'ng'ish ekan. Alloh taoloning taqdir qilgani, albatta bo'ladi, uni qaytarish mumkin emas. Tib ilmi bundan mustasno, chunki unga hojat tushib turadi va uning ko'pgina dalillarini bilish imkoni bor. Tush ta'biri ham mustasno, garchi u taxminga suyansa ham. Chunki tush payg'ambarlikning qirq oltidan bir bo'lagi bo'lib, unda hech qanday xatar yo'q.

Uchinchi sabab – ilmga foydasiz sho'ng'ish. Bu ish ham ba'zi o'rinlarda mazmumdur. Ilmning asosiylari qolib, noziklarini, ochiq-oydinidan avval maxfiylarini o'rganish, ilohiyot sirlaridan bahs qilish shunga misol bo'ladi. Faylasuflar va mutakallimlar qanchalik kirishmasinlar, ilohiy sirlarni mustaqil o'zlari bila olmaydilar. Bu ilmga yetish va uning ayrim yo'llaridan voqif bo'lish faqat payg'ambar yoki valiy zotlarga xosdir. Shunday ekan, odamlarni bu ilmdan qaytarib, shariat aytgan narsaga buyurish vojibdir. Va bu narsada tavfiq olishga qanoatlantiruvchi narsa bor. Qancha-qancha odamlar shu kabi ilmlarga sho'ng'ib, zarar ko'rdilar. Agar ular chuqur ketmaganlarida, u ilm olib brogan narsadan ko'ra, dindagi holatlarni yaxshiroq bilgan bo'lardilar. Ba'zi odamlarga qush go'shti, emizikli bolaga turli shirinliklar zarar qilgani kabi, ba'zi ilmlar ham ayrim insonlar uchun zararli ekani inkor etilmaydi.

Balki ko‘p odamlarga ba‘zi ishlarni bilmasligi foyda beradi. Hikoya qilinishicha, bir odam tabibga xotini tug‘masligidan shikoyat qilibdi. Tabib xotinning tomiridan ushlab ko‘rib: «Farzandsizlikni davolashga hojat yo‘q, chunki siz qirq kun ichida o‘lasiz», debdi. Bu gapni eshitgan xotin qattiq dahshatga tushibdi. Hayoti ko‘ziga qorong‘u ko‘rinib, barcha mollarini chiqarib, faqirlarga ulashibdi, vasiyat qilibdi, yemabdi, ichmabdi. Ammo tabib aytgan muddat o‘tib hamki ayol o‘lmabdi. Er tabibga kelib: «Xotanim o‘lmadi-ku», debdi. Shunda tabib: «Men buni bilaman, hozir borib u bilan qo‘shil, tug‘adi», debdi. So‘ng aytibdiki: "U ozishi uchun uni o‘lim bilan qo‘rqitdim». Ushbu hikoya senga ba‘zi ilmlarning xatarini his qilishingdan ogohlantiradi va Rasulullohning (sollallohu alayhi vasallam): «Naf bermaydigan ilmdan Allohdan panoh tilaymiz»,⁸¹ degan so‘zlarining ma‘nosini tushuntiradi. Bas, sen ushbu hikoyadan ibrat ol va shariat yomonlagan, qaytargan ilmlardan bahs yurituvchi bo‘lma. Sahobalarga ergash va sunnatga tobe’ bo‘lganlar bilan kifoyalan. Salomatlik ergashishdadir. Xatar esa narsalardan bahs qilish va o‘zboshimchalikdadir. Fikring, aqling, daliling, hujjating va gumoning bilan narsalarning haqiqatini tanish uchun bahs qilyapman, deb tortishishni ko‘paytirma. Ilm haqida fikr yuritishning nima zarari bor, ham dema. Albatta, u sening zararingga xizmat qiladi. Shundog‘ ham sen o‘zingga zarar qiladigan qancha narsalarni bilasan, agar Alloh taolo rahmati bilan qutqarmasa, bu bilishing oxiratda halokatga olib boradi.

Bilgilki, tajribali tabib boshqalar bilmaydigan muolaja sirlarini bilgani kabi, payg‘ambarlar ham qalblarning davosini va oxirat hayoti sabablarini yaxshi biladilar. Ularning yo‘llariga qarshi hukm chiqarsang, halok bo‘lasan. Bir qancha kishilar borki, barmog‘iga bir yara chiqsa, o‘zicha uni davolamoqchi bo‘ladi. Tajribali tabib yarani tananing boshqa tomonidan davolashni uqtiradi. Holbuki, tomirning badanda qanday tarqalganini, joylashgan o‘rnini va tanani qanday o‘rab olganini bilmagan odam tabibning so‘zini aqlan yiroq sanaydi. Shuningdek, oxirat yo‘lidagi ishda, shariatning nozik maslak, odob va aqidalarida sir va nozikliklar bor, ularni tushunishga aqlning quvvati yetmaydi. Masalan, toshlarda ajoyib xosiyat borki, hech kimsa ohanrabo temirni qanday qilib tortishi sababini bilishga qodir emas. Shuningdek, aqida va amallarda ham g‘aroyibot va ajoyibotlar bor, ular qalblarning musaffoligini, beg‘uborligini, tazkiyasi va Alloh taoloning (ma‘naviy) qo‘shnichiligiga yetishish yo‘lidagi islohini ta‘minlaydi. Ularning fazilatiga ro‘baro‘ bo‘lish foydasi doridarmonlarda ko‘ra ko‘p va kattaroqdir. Aql dorilarning manfaatini anglashga qosirlik qiladi, faqat tajribagina uni his etishga yo‘l ochadi. Shuning kabi aql oxirat hayotiga nima naf berishini anglay olmaydi, inchunun, tajriba yo‘li bilan ham his qilish imkoniy yo‘q. Agar tajriba o‘tkazish mumkin bo‘lsa va ayrim o‘liklar qayta tirilib, bizga foydali, maqbul, Alloh taologa yaqinlashtiradigan va Allohdan uzoqlashtiradigan amallarni aytib bersalar edi, aqlga kifoya qilardi. (Aqida masalalari ham shunday.) Ammo o‘liklarning qayta tirilib, bizga xabar berishlari mumkin bo‘lmagan ish. Demak, aqling Payg‘ambar (sollallohu alayhi vasallam) keltirgan xabarlarni tasdiq qilishi va ishoralarining manbalarini anglab yetishi senga kifoya qiladi. Tasarrufdagi bundan boshqa (foydasiz) narsalardan aqlni chetlat va (Qur‘on va sunnatni) mahkam tut. Shundagina salomat bo‘lasan, vassalom. Shuning uchun ham Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Albatta, bir ilmida jaholat va bir so‘zda ojizlik bor», deganlar. Ma‘lumki, ilm jaholat bo‘lmaydi. Lekin johillik kabi zarar yetkazishi mumkin. Yana Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) aytganlarki: «Tavfiqning ozi ilmning ko‘pidan yaxshi».⁸³ Iso (a.s.): «Qancha-qancha daraxtlar bor, hammasi ham meva bermaydi, qancha-qancha mevalar bor, hammasi ham shirin emas, qancha-qancha ilmlar bor, barchasi birdek manfaatli emas», deganlar.

To'rtinchi bob tahlili

Xalqning xilof ilmiga berilib ketishi sababi, munozara va jadal ofatlarining tafsilotlari va uning muboh bo'lishi shartlari.

Bas, mujodala va munozara qilishning sakkizta sharti bor:

1. Munozara bilan shug'ullanuvchi kimsa farzi kifoyalarga bosh qotirishdan avval farzi aynlarni o'rniga qo'ygan bo'lmog'i kerak.

2. Farzi kifoyani munozaradan muhim bilmaslik kerak.

3. Munozara qiluvchi o'z rayi bilan fatvo beruvchi mujtahid bo'lmog'i lozim.

4. Munozara hayotda sodir bo'lgan yoki ko'pincha sodir bo'lishi mumkin bo'lgan masalalar ustida qilinishi kerak.

5. Munozara imkon qadar xilvatda, munozarachi uchun mahbub holatda bo'lishi kerak.


6. Munozara qiluvchi tortishuvni faqatgina xaqni bilmoq, topmoq uchun qilishi kerak.

7. Qarshisidagi munozarachi hamkorini bir dalildan boshqa dalilga, bir mushkuldin boshqa mushkulga o'tishiga mone'lik qilmasligi lozim.

8. Munozara foydali ilmlar ila mashg'ul bo'lgan kishilar bilan qilinishi lozim.

Munozara va undan kelib chiquvchi yomon axloqlarning ofatlari bayoni

<i>№</i>	<i>Tayanch tushunchalar</i>	<i>Kitobda tayanch tushunchalarga berilgan tarif</i>
1.	Munozara qilish	Bilgilki, boshqani magʻlub etish, mot qilish, odamlar oldida fazilat va sharafni koʻrsatish maqsadida munozara qilish Allohning huzurida mazmum, iblis nazdida esa, mahmud boʻlgan barcha xulqlarning manbaidir. Ushbu munozaralar kibr, manmansirash, hasad, nafsni ulugʻlash, mansabparastlik va shu kabi botiniy buzuvchiliklarning biridir.
2.	Qalbida yomonliklarning jamlanish	Ichkilik ichish yoki fahsh ish qilish orasida ixtiyorli boʻlgan kishi ichkilik ichsa, mast boʻlib fahsh ishlarni ham bajarishiga olib keladi. Shu kabi boshqalarni mot qilish, munozarada gʻolib kelish, mansabparastlik va manmansirash muhabbati kimgaki gʻolib kelsa, uni iflosliklar ichiga boshlab boradi, qalbida yomonliklarning jamlanishiga vosita boʻladi.
3.	Munozaraning kelib chiqishi	Bu yomon axloqlarning barchasi dalillar, oyatlar va hadislariga asoslangan holda «Rubʼul muhlikot» boʻlimida zikr etiladi. Ushbu oʻrinda esa, salbiy munozarani keltirib chiqaruvchi yaramas xulqlarning bir qismini aytib oʻtamiz:



1. Hasad.

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam): «Olov o'tinni yegani kabi hasad ham yaxshiliklarni yeydi», deganlar. Tortishuvchi hasaddan xoli bo'lolmaydi. Chunki gohida g'olib bo'lsa, gohida mag'lub etilishi muqarrar. Ba'zida uning so'zi maqtalishi, ba'zida esa, boshqaning gapi maqtovga sazovor bo'lishi mumkin. Modomiki, dunyoda biror kishining ilmi va qarashlari boshqanikidan kuchli ekanini zikr qilish yoki «falonchi sendan yaxshiroq qarashga va to'g'riroq fikrga ega», deyilish ehtimoli bor ekan, tortishuvchi, albatta, raqibiga hasad qila boshlaydi va undagi ne'matning zavol topishini, odamlarning muhabbati va hurmat-ehtiromlari o'zi tomonga ko'chib o'tishini chin dildan xohlaydi. Hasad – olov-otash. Bas, kimki hasadga muhtalo bo'lsa, bu dunyoda azobga, iztirobga giriftordir. Oxiratdagi azobi esa, bu dunyodagidan bir necha barobar ziyodadir. Shuning uchun ham Ibn Abbos: «Ilmni topgan joyingizda olaveringlar! Fuqaholarning bir-birlariga qarshi aytgan so'zlariga quloq solmanglar! Chunki ular og'ildagi takalar kabi urishaveradilar», deganlar.

2. Takabburlik va o'zni odamlardan ustun ko'vish

Rasululloh (sollallohu alayhi vasallam) bir hadislarida: «Kim o'zini buyuk sanasa, Alloh uni kichraytiradi. Kim tavoze' ko'rsatsa, Alloh uni yuksaltiradi»,¹¹⁶ deganlar. Alloh taolodan rivoyat qilgan hadislarida esa: «Azamat Mening izarim, kibriyo esa, ridoimdir. Bas, kim bu ikki narsada Men bilan talashsa, uning belini sindiraman», deya marhamat qilganlar.

Tortishuvchi tenglaridan o'zini ustun qo'yish xastaligidan hech qachon qutulolmaydi. Chunki u qadri keragidan ortiq bo'lishini xohlaydi. Hatto majlislarda ham yuqorini, davra to'rini talashib, g'avg'o ko'taradi. O'zidan boshqalarni yuqori o'rinlarga munosib ko'rmagani uchun, majlislarda baqir-chaqir qilib yuradi. Agar biror tor yo'lakdan yurib qolishsa, kim birinchi yurishini ham talashishadi. Ushbu qilmishlari bilan pastkash, ayyor munozarachilar «ilmning izzat-obro'sini saqlamoqchi» ekanliklarini ro'kach qilib, janjalli xorlik va tubanlikni Alloh va Uning payg'ambarlari maqtagan tavoze' bilan adashtirib yuborishdi. Shuningdek, Alloh nazdida yomon, jirkanch bo'lgan kibri din izzati deb nomlashdi va natijada Alloh va Rasuli ko'rsatmalariga zid ish qilishdi, «hikmat» va «ilm» kabi so'zlarni o'zgartirib, xalqning zalolatga ketmog'iga sababchi bo'lishdi.

3. Hiqd (gina-kudurat)

Munozara ginalardan xoli bo'lishi juda qiyin. Vaholanki, janob Rasululloh (sollallahu alayhi vasallam): «Mo'min odam ginachi bo'lmaydi»,¹¹⁹ deganlar. Ginaning jirkanch odatligi haqida ko'p hadislar mavjud. Munozarachilar orasida raqibiga nisbatan, qalbida kudurati yo'qlarini topish mushkul. Ularning birortasi raqibi so'zlarini chiroyli tarzda qabul etmaydi. Balki ichida adovatini yashirib, munofiq kabi yuradi. Ko'pincha yashirinib yotgan ginasi tashqariga chiqib ketadi. Munozarachi qanday qilib ginadan xalos bo'lsin? Uning keltirgan dalillari, hukmlari barcha tomondan maqtovg'a sazovor bo'lmasligi aniq. Shuning uchun, mabodo, raqibi uning so'zini salgina qadrlamasa, qalbida gina ildiz otadi va uni umri oxirigacha uzib tashlay olmaydi.

4. G'iybat.

Alloh taolo uni o'limtik yeyishga o'xshatgan. Munozarachilar «o'limtik yeyish»dan hech tiyila olmaydi. Chunki doimo raqibini yomonlash, mazammat qilish, so'zlarini keltirishdan to'xtamaydi. G'iybatdan imkon darajada saqlanganida ham, raqibining so'zlarini hikoya qilayotib, yolg'on qo'shimasa-da, uning nuqsonlarini, ojiz taraflarini aytib o'tadi. Bu ayni g'iybatning o'zidir. Yolg'on esa, bo'htondir. Shuningdek, undan yuz o'girib, raqibining so'ziga quloq tutgan kishini johil, axmoq, farosatsiz va aqli past deb obro'sini to'kishdan tilini tiya olmaydi.

5. O'zni oqlash

Alloh subhonahu va taolo Qur'oni karimda:

«Bas, sizlar o'zingizni oqlamay qo'yaqolinglar! U taqvodor kishilarni yaxshi bilguvchidir» (Najm surasi, 32-oyat), deydi. Bir donishmanddan: «O'zi to'g'ri bo'laturib, jirkanch ko'ringan narsa nima?» deb so'rashdi. Shunda hakim zot: «Kishi o'zini o'zi maqtashidir», deb javob berdi. Munozarachi quvvatli, g'olib va raqiblaridan peshqadam ekanini aytib, o'zini ko'klarga ko'taradi. Hech bo'lmaganda, gap orasida:

«Bunaqa ishlarni bilmaydiganlardan emasman, men ilmda ancha peshqadam, o'z uslubiga ega kishiman, hadislarni ham yod olganman», deydi. Bunga o'xshash so'zlar bilan o'zini maqtaydi yoki fikrlarini yoyish uchun o'zini ko'rsatmoqchi bo'ladi. Ma'lumki, maqtanish, o'zni oqlash shar'an ham, aqlan ham yomon ishdir.

6. Josuslik qilish va odam-lardan ayb qidirish.

Alloh taolo shunday deydi:

«O'zgaralar aybini qidirib, josuslik qilmanglar...» (Hujurot surasi, 12-oyat)

Munozarachi raqiblari aybini qidirishdan, xasimlari nuqsonini izlashdan hech charchamaydi. Hatto unga: «Sening shahringga bir munozara qiluvchi keldi», degan xabar yetsa, darhol uning botiniy holatini, qabih jihatlarini bilib olish uchun josuslar yollaydi, toki ehtiyoj bo'lganida uni xijolatga qo'ysin. Holat shu darajaga yetadiki, u raqibining yoshligini, o'sha paytdagi holatlarini yoki tanasidagi kamchilik va kasalliklarni, masalan, kalligini aniqlaydi. Agar raqibining o'zidan ustun jihatleri ko'rinib qolsa, ayblarini yuziga soladi.

*7. Odamlarning nochor
holga tushib qolganidan
sevinib, shodligiga
g'amgin bo'lish.*

Kim musulmon birodariga o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani ravo ko'rmasa, mo'minlar axloqidan yiroqdir. Fazilatda barobar bo'lgan yaqinlari va tanishlarini ko'rolmaslik, darajalari barobar munozirlar orasidagi adovat xuddi kundoshlar orasidagi adovatga o'xshab ketadi. Kundoshlar bir-birini uzoqdan ko'rgan zahoti titrab, ranglari o'zgara boshlaydi. Shuning kabi munozarachi ham raqibini ko'rganida fikri iztirobga tushadi. Shayton yoki yirtqich hayvonga duch kelgan kishiday dovdorab qoladi. Din olimlari birbirlariga yo'liqqan paytlarida ko'rsatilishi lozim iltifot shumi?! Mashaqqat va yengillik vaqtlarida o'rtada bo'ladigan o'zaro hamkorlik, yordam va birodarlik qayoqqa ketdi?!

Imom Shofe'iy (r.a.): «Ilm fazilat va aql sohiblarini bog'lab turuvchi rishtadir», deganlar.

Endi ilm tufayli orasida adovat uyg'ongan bir jamoa qanday qilib, u zotning mazhablariga iqtido da'vosini qilishyapti, bilmayman?! Faxr va ulug'vorlik talashadiganlar orasida uns ulfatlik va xotirjamlik bo'lishi mumkinmi? Aslo mumkin emas! Bu sifatning yomonligiga mo'minga munofiqlar axloqini singdirib, muttaqiylar axloqidan uzoqlashtirishi yetarli dalildir.

*8. Nifoq
(ikkiyuzlamac
hilik)*

Munofiqlikning mazmum xulq ekaniga dalil keltirish shart emas. Munozarachi esa, nifoqqa duchor bo'lmay iloji yo'q. Ular raqiblari yoki ularning tarafdorlari, do'stlari bilan yuz ko'rishib turishadi, shu paytda ularga nisbatan tilida zohiran muhabbat, hurmat-ehtirom izhor qilishga va raqiblarining daraja va holatlarini e'tiborga olishga majburdirlar. Ushbu holning yolg'on, nifoq, fojirlik va yolg'on guvohlikdan o'zga emasligini barcha yaxshi biladi. Tortishuvchilar faqat tillaridagina samimiyat izhor qilishadi, qalblari esa, bir-biriga qarshi adovat o'chog'iga aylangan. Biz bunday nifoqdan buyuk Allohning panohiga qochamiz! Sarvari koinot sollallohu alayhi vasallam: «Insonlar ilm o'rganib amalni tark qilganlarida, tillari ila sevinib, qalblari ila adovatda bo'lsalar va silai rahmni uzsalar, Alloh ularni la'natlab, quloqlarini kar va ko'zlarini ko'r qilib qo'yadi»,¹²⁰ deganlar. Bu gapni Hasan Basriy rivoyat qilganlar. Ushbu so'zlarning haqligini biz shohid bo'layotgan holatlar isbotlab turibdi.

*9. Haqdan yuz o'girish, uni
yoqtirmaslik hamda nohaq
narsada bardavom bo'lishga
harislik.*



Tortishuvchi hamisha dushmanlik ishtiyoqi ila yashaydi. Munozarachining eng yomon ko'rgan, yoqtirmagan narsasi – haqiqatning raqibi tilidan zohir bo'lishidir. Tortishuvchi bor kuchi, harakatini raqibiga qarshi safarbar qiladi. Bunda uni haq yoki nohaq ekani mutlaqo qiziqirmaydi. Uning uchun tortishuvning bardavom bo'lishi muhimroqdir. Biror so'zni eshitishi bilanoq, unga e'tiroz bildirish uning mash-g'ulotiga aylanib qolgan. Holat shu darajaga borib yetadiki, qalbidagi e'tiroz Qur'on dalillaridan yoki shar'iy lafzlardan ham ustun bo'lib qoladi, Qur'on dalillarini bir-biriga zid qo'ya boshlaydi. Vaholanki, botilni himoya qilish uchun tortishish juda qattiq man'etilgandir. Chunonchi Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) haq ila bo'lsa-da, botilga qarshi munozarani tark qilishga buyurib: «O'z xatosini anglab, tortishuvni tark qilgan kishiga Alloh jannat o'rtasida bir qasr bino qiladi. Haq bo'laturib, tortishuvdan o'zini tiyganga esa, jannatning eng yuqorisidan qasr quradi»,¹²¹ deganlar. Alloh taolo o'ziga nisbatan uydirma to'quvchilar bilan haqni yolg'onga chiqaruvchilarni barobar qo'ygan: «Alloh sha'niga yolg'on to'qigan yoki haq (Qur'on) kelgan chog'da, uni yolg'onga yo'ygan kimsadan kim ham zolimroqdir?!» (Ankabut surasi, 68-oyat). Shuningdek, boshqa oyati karimada: «Axir Alloh sha'niga (sherik va farzandni nisbat berib) yolg'on so'zlagan va rost (Qur'on) o'ziga kelgan paytidayoq yolg'on degan kimsadan ham zolimroq biror kimsa bormi?!» (Zumar surasi, 32-oyat) deydi.

*10. Riyo, xalqning mulohazasini
qilish, ularning qalbini o'ziga moyil
etish va o'zi tarafga
qaratish uchun harakat qilish.*



Riyo insonni katta gunohlarga olib boruvchi qo'rqinchli xastalikdir. «Riyo kitobi»da bu haqda mufassal tushuntiriladi. Munozara qiluvchi xalq oldida o'zini ko'rsatishni, ularning maqtov-olqishlariga sazovor bo'lishni tortishuvning, asosiy sababi qilib oladi.

Tadqiqotning qisqacha xulosasi.

Mutafakkir kitobda ilm olishning ahamiyati, fazilatlari, ilmning ijtimoiylashuvda tutgan o'rni, ilmning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri kabi masalalarni yoritish bilan bir qatorda ilmlarni foydali va foydasizlarga ajratib tasnif qilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, G'azzoliyning "Ihyou ulumiddin" kitobidagi ilmlar to'g'risidagi g'oyalari, hozirgi kunda ham xalqimizni ma'rifatli bo'lishiga yordam beradi. Uning yana bir o'ziga xosligi, ilmlarni tasniflab uni xillarga ajratganidadir.

Umumiy xulosa qilib tahlil qilingan kitobni ilmlar tasnifini quyidagicha baholash mumkin:

-G'azzoliyning Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) asaridagi ilmlar tasnifi XI - XII asrlarda Islom mintaqasida ilm - fan taraqqiyoti darajasini bilishning manbalardan biridir.

-G'azzoliy inson kamolotiga yordam beradigan ilmlarni foydali deb, uni egallashni tavsiya etadi. U bu ilmlar insonni ikki dunyoda ham saodatli qiladi deb ta'kidlaydi.

-G'azzoliyning ilmlar tasnifida diniylik va dunyoviylik masalalariga uyg'un munosabati uni maqbulligidan dalolat beradi.

-Tasnifda G'azzoliyning umumbashariy tamoyillarga asoslanishi, bag'rikengligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Xullas, buyuk mutafakkir Abu Homid G'azzoliy "Ihyou ulumiddin" kitobida ilmlar tasnifi munosib o'rin egallaydi. U bu sohada Aflotun, Arastu an'analarini davom ettirgan faylasufdir.

Mustaqilligimizga erishganimizdan so'ng jahon tamadduniga sezilarli iz qoldirib ketgan buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganish va qayta tiklash ishlari yo'lga qo'yildi. Shu munosabat bilan malakaviy bitiruv ishimizning tadqiqot mavzusini shu yo'sinda tanladik va kontent tahlil qilish metodi bilan ishlash orqali kontent tahlil imkoniyatlarini o'rganishga muvaffaq bo'ldik.

Xulosa va tavsiyalar.

Respublikamizda mustaqillik sharofati bilan mumtoz merosimiz, jumladan, diniy ta'limot, tasavvufni o'rganish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo buyuk zotlar, ular yashab, ijod qilgan tarixiy shaharlar Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Samarqand, buyuk avliyolar, olimu-fuzalolariing yotgan joylari obod qilindi. Buyuk siymolar Amir Temur, Baxovuddin Naqshband, Abdulxoliq G'ijduvoni, Alisher Navoiy, Abu Mansur Moturudiy, al-Marg'inoniy, Ahmad Farg'oniy kabilarning tavallud kunlarini nishonlash bilan birga, ularning asarlarini qayta tiklash va chop ettirish, ularga izzat-hurmat ko'rsatib salobatli qadamjolar, bog'-rog'lar barpo etilishi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Butun ma'naviyat tarixi shuni ko'rsatadiki, sivilizatsiya degani-bu insoining o'z-o'zini anglashi, o'zini kamol toptirish uchun olib borgan kurashining hosilasidir. Barcha dinlar, ta'limotlar, tafakkur daholari inson qobiliyati, ruhiyati va axloqini o'rganish, insonni tarbiyalab, to'g'ri yo'lga boshlash, noqisliklar va illatlardan xalos etish bilan shugullanib kelgan. Inson nima, insonni nega u shunchalik buyuk aqlli bo'lgani holda, yana tuban ishlarga qo'l uradi, hayvoniy hirsu nafs domiga tushib o'zini, jamiyatini xarob etadi, degan savollar Sharq mutafakkirlari qalbini qadimdan bezovta qilib kelgan.

Qur'oni Karimning "Al-Isro" surasida: "Va laqod karamna bani adama" (Odam bolalarini mukarram qilib yaratdik). Shunga asosan, tasavvuf ahli insonni Xudoning yerdagi xalifasi, ikki olamning gulto'ji, qaymog'i deb ta'rif etadi. Alisher Navoiy esa "Mahbub ul-qulub" asarida "Odamiy shariful kavnayndur" degan so'zni keltiradi. Ya'ni: "Odam ikki dunyoning eng aziz va eng sharif maxluqidir". Parvardigor olamlarni yaratar ekan, maqsadi Inson edi. Odam Parvardigor husnu-jamoli uchun ko'zgu bo'lsa, Inson bu ko'zguning mazhari - Tangri taolo qudrati va siru asrori, ilmu karomati aks etgan mo'jiza, xilqat. Inson qalbi esa Tangri ilmi va ishqining xazinasidir.

Inson ana shunday buyuk, muxtaram va mukarram. Shuning uchun farishtalar ham unga sajda qilganlar. Albatta, bu odamzod farzandini ulug'lash, uning qadru qimmatini, sha'nu sharafini ko'tarib, insonparvarlik g'oyalarini ilgari surish edi.

Abu Homid G'azzoliy "Kimiyo saodat" asarida: "Inson farishta va hayvon orasidagi maxluhdur. Hayvon rivojlanmaydi, chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi, chunki uning o'zi pok ilohiy nurdan iborat. Faqat insondagina rivojlanish, ruhiy kamolot xislati mavjud", deya ta'kidlaydi. Xullas, shaxs ijtimoiylashuvi, tarbiyasi, insonni nuqsonlar, gunohlardan qutqarish ulug' ajdodlarimizning qayg'usi bo'lib kelgan.. Ular savob va gunoh, soya va nur, shayton va rahmon, xayru shar chegarisida yaratilgan inson degan muhim xilqatni anglash, uning rahmoniy va shaytoniy qiyofalarini qachon, qayerda kuchga kirishi, bu kuchlarning sababi nima ekanligini tushunishga jiddu-jahd qilganlar. Ayniqsa, tasavufda jamiyat islohi uchun inson tarbiyasi, insonni riyozatlar bilan poklash markaziy o'rin egallab kelgan. Shu asosda ular komil inson konsepsiyasini ishlab chiqqanlar.

Inson jamiyatda yashar ekan, unda qabul qilingan axloq me'yorlari, yurish-turish, kundalik muomala madaniyatiga rioya qilishi kerak. Muomala madaniyati tug'ma, ya'ni bola tug'ilishi bilan unda tayyor holda bo'lmaydi. Muomala madaniyati kishilar bilan muloqot, hamjihat yashash va ijtimoiylashuvning mahsulidir

Inson farzandi jamiyatda yashar ekan, kishilar bilan bo'ladigan muomala, mulozamat, munosabat odoblarini bilishi va ularga rioya qilishi unga obro' va e'tibor keltiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak G'azzoliyning merosidan uning ijtimoiy odoblarga yetarlicha ahamiyat berganini guvohi bo'lamiz.

Kundalik muomala madaniyati tizimida salomlashish odobi ham o'ta muhimdir. Unda o'zgaga nazokat va tartib mavjud. G'azzoliy farzandga ijtimoiylashuvini tezlatish uchun yoshligidan shu odoblarni o'rgatish muhimligining ilmiy, amaliy talqinini bayon qiladi. Insoniy munosabatlar tizimida qo'shnichilik ham alohida o'rin egallaydiki, Imom G'azzoliy uni sotsial jihatdan yoritib, mohirona, nasihatimiz bayon qiladi. Qo'shnichilik odoblari bilan uzviy bog'liq tarzda musulmonlarning yaqinlarga mehr-oqibat ko'rsatishi, ya'ni ziyorat odobi ham kishilarni bir-biriga mehr-oqibatini mustahkamlovchi va ijtimoiy aloqalarni yaxshilovchi ta'siri G'azzoliy talqinida muhim sotsiologik mohiyat kasb etadi.

Imom G'azzoliy asarlarida bozor munosabatlari musulmon axloqi talablari tizimida batafsil o'zining ilmiy-amaliy, axloqiy asosini topgan.

Imom G'azzoliy "Riyozatun-nafs" (Nafs tarbiyasi) kitobida "axloq tarbiyasi va qalb xastaliklarining muolajasi, yaxshi va yomon xulq mohiyati, go'zal xulqqa erishish yo'llari, murshid va murid kabi mavzularni qalamga oladi. Bunda masalaning ichki mohiyatini yoritishga e'tibor qaratib, tashqi (zohiriy) muammolar inson ichki (botiniy) olamidagi o'zgarishlar oqibati ekanligini ochib beradi.

Imom G'azzoliyning o'zbek tiliga o'girilgan "Ilm kitobi", "Riyozatun-nafs", "Mukoshafat-ul Qulub", "Kimyoi saodat" kitoblari axloq-odob, oila a'zolarining o'zaro burchlari, ijtimoiy munosabatlar borasida qimmatli manbalar bo'lib hisoblanadi.

Ularda individning tug'ilgandan umrining oxirigacha yashashi jarayonida axloqiy fazilatlar, bunda ota-onaning vazifalari musulmon odoblari asosida turli insoniy vaziyatlar va munosabatlar tizimida berilgan.

G'azzoliy asarlarini o'qib, kishida shunday fikr vujudga keladiki, har bir shaxs yuksak axloqli, odobli bo'lishi, hech kimga va hech qachon yolg'on gapirmasligi lozim. Yoshlar, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yozilgan "Odobnoma" darsliklarini G'azzoliy asarlari asosida qayta ishlab chiqilsa, ularning tarbiyaviy samaradorligi ancha oshadi. Adib asarlarining qisqacha tahlili shuni ko'rsatadiki, ularda e'tibor qaratilgan ijtimoiy munosabat masalalari bugungi kunda ham o'zining sotsiologik ahamiyatini yo'qotmagan.

Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, mutafakkirning insonparvarlik va umuminsoniy g'oyalar bilan sug'orilgan ta'limoti O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillarining tinch-totuv yashashlariga ko'maklashadi, diniy mutaasiblik, ekstrimizm va terorizmga qarshi kurashda, milliy g'oyaning mafkuraviy negizini tushunishda, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

I. Kitoblar:

1. Karimov I.A. Istiqlool va ma'naviyat / Tuzuvchi va nashr uchun mas'ullar : N. Komilov , K. Buronov.- T : O'zbekiston, 1995.
2. I.A.Karimov "O'zbekiston buyuk kelajak sari" /T: "O'zbekiston"-1999 y
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch. - T : Ma'naviyat, 2008
4. Abdusamadov A, Toshlonov T. Islom kursini urganish buyicha metodik maslahatlar. - T: Fan, 1993. -24 b.
5. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. - T: Movarounnaxr, 2001
Abu Homid G'azzoliy. Mukoshafat ul - qulub (qalblar kashfiyoti).- T.: "Yangi asr avlodi ", 2004.
6. Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) /T : Movarounnaxr , 2003
7. Abu Homid G'azzoliy. Tavba kitobi. Tarj: Rashid Zohid. - T.: "Movarounnahr", 2003.
8. Abu Homid G'azzoliy. Riyozatun - nafs (Nafs tarbiyasi). Tarj: Rashid Zohid./ T.: " Movarounnahr ", 2006.
9. Abu Homid G'azzoliy. O'limni eslash kitobi. Tarj: Rashid Zohid. - T.: "Movarounnahr", 2004.
10. Abu Homid G'azzoliy. O'limdan so'ng. Tarj: Rashid Zohid.- T.: "Movarounnahr", 2005.
11. Abu Homid G'azzoliy. Zakot va ro'za sirlari kitobi. Tarj: Mubashshir Ahmad. - T.: "Movarounnahr ", 2005.
12. Abu Homid G'azzoliy. Tafakkur kitobi. Tarj: Bobomurod Erali. - T.: "Toshkent islom universiteta" nashriyot - matbaa birlamasi. 2007.
13. Abu Homid Muhammad Ibn Muhammad al - G'azzoliy. Haj sirlari va qur'on tilovati odoblari kitobi. Tarj: Mansurali Arapboyev . - T.: " Movarounnahr ", 2004.
14. Abu Homid_ G'azzoliy. Mukoshafat ul - qulub (qalblar._ kashfiyoti). Tarj: Miraziz A'zam. - T.: " Adolat", 2002.

15. Al Buxoriy Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil. Xadis: al Jomi' as Saxix (Ishonarli tuplam). 4 jildlik . - T : Qomuslar bosh taxririya, 1991.
16. Al Buxoriy Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil. Xadis : al Jomi' as Saxix (Ishonarli tuplam). 4 jildlik . - T : Qomuslar bosh taxririya, 1992.
17. Al Buxoriy Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil. Xadis : al Jomi' as Saxix (Ishonarli tuplam). 4 jildlik . - T : Qomuslar bosh taxririya, 1994.
18. Al Buxoriy Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil. Xadis : al Jomi' as Saxix (Ishonarli tuplam). 4 jildlik . - T : Qomuslar bosh taxririya, 1996.
19. B.Karimov “Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi”/ Buxoro-2005 y
20. B.Karimov “Yoshlar va diniy tasavvurlar” /Buxoro-2005 y
21. B.Karimov “Sotsiologik tadqiqot metodi va texnikasi”/Buxoro-2007 y
22. Boboxonov A. Islom odobi va madaniyati. - T: Cho'lpon, 1995.
23. Buyuk siymolar , allomalar (O'rta Osiyolik mashxur mutafakkirlar va donishmandlar). Nashrga tayyorlovchi mas'ul muxar. M.Xayrullaeva K. 2. - T: A.Qodiriy nomli « Xalk merosi » nashr. 1996.
24. Buyuk allomalarimiz - Mas'ul muxar. Z.Islomov . Toshkent, Islom universiteti nashriyoti, 2002.
25. Donishmandlar tarbiyasi xususida // tuplovchi va nashrga tayyorlovchi Askar Zunnun ; arab, for va boshka sharq tillaridan Shorasul Zunnun tarjimasi . - T: O'qituvchi, 1982.
26. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar . - T: Sharq, 1998.
27. Komil inson xaqida turt risola / fors- tojik tilidan N.Komilov tarjimasi. - T: Ma'naviyat, 1997.
28. Maxkamov U. Axlok- odob saboklari. _ T: Fan, 1994.
29. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf, “Baxtiyor oila”.-T: “Sharq”2011.
30. Imom G'azzoliy “Ihyou ulumiddiyn. Ilm kitobi.” T: “Movorounnaxr”-2003-y
31. Imom Ahmad ibn Qudoma Maqdisiy “Minhojul qosidiyn. G'azzoliy “Ihyosiga muxtasar”// “TIU” nashriyoti, T-2009 yil

32. Imom G'azzoliy "Kimyoi saodat"//"Adolat" -T-2005 yil
33. "Imom G'azzoliyning pedagogik qarashlari", Jalilov Z.B. "Tafakkur", T-2011 yil
34. Imom G'azzoliy. Oxiratnoma ("Ey farzand..."). Tarjimonlar: Ali Botir,Isroil Subhon. - T.: "Yozuvchi" nashriyoti, 1994.

II. Maqolalar:

1. Prezident farmoni. Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida // Xalq so'zi 2006. 26-avgust.
2. Abdurahmon Sa'diy. Sharq taraqqiyoti fikriyasi tarixidan. Imom G'azzoliy // Sharq yulduzi - 2001 № 2 133-137- betlar.
3. Baxodirov P. XIV - XVI asrlar musulmon Sharqida ilmlar tasnifi masalasining yoritilishli //Sharqshunoslik - 1995 - № 6.
4. Boltayev M.N. Imom G'azzoliyning irfoniy ta'limoti // Buxoro universiteti ilmiy axborotlari - 2002. №2 2-7-betlar.
5. Uzislam.Com / Yangiliklar/ Imom G'azzoliy shariat va tariqat haqida.
6. www.islom.uz - Imom G'azzoliy.

II. Internet portallar:

1. [http: www.google.ru](http://www.google.ru)
2. [http: www.yandex.ru](http://www.yandex.ru)
3. [http: www.islom.uz](http://www.islom.uz)
4. [http: www.e-bozor.uz](http://www.e-bozor.uz)
5. [http: www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
6. [http: www.Uzislam.Com](http://www.Uzislam.Com)
7. [http: www.dissertat.com](http://www.dissertat.com)

Ilovalar.

Tadqiqot xulosasiga qo'shimcha:

G'azzoliyning ilm xususidagi ta'limoti va uning ilmlar klassifikatsiyasi.

Ilm insonning buyuk sifatidir hamda madaniyatga erishmoq yo'lidir. Ilmsiz aslo taraqqiyotga erishilmaydi, jaholat esa hech qachon insonni saodatmand etmaydi, balki hayvonsifat qiladi, Ilmsiz kishilar hech qachon buning farqiga bormaydilar. Har qanday narsa o'rganilib, mohiyati anglab yetilsa yoki bilishga harakat qilinsa, to'rt bosqichdan o'tiladi:

1. Shak - biron narsaning bor yo'qligiga dalil bo'lmasa shak deyiladi.
2. Zan - (gumon) - biror narsaning bor -- yo'qligiga qisman dalil bo'lsa aytiladi.
3. Ilm - biror narsaning bor - yo'qligi dalil bilan isbotlanadi.

Ilmning manosi haqiqatni anglash demakdir. Bu darajaga erishish uchun to'rt narsa lozim: a) Aql, b) Fikr, v) Tajriba, g) Natija. Bulardan hosil bo'lgan haqiqat ilm hisoblanadi.

4. "Imon - bir narsaga aql bilan ishonib, ko'ngil bilan tasdiq qilmoq". Har qanday shubha va gumondan yiroq bo'lish orqali ilmning yuksak darajasiga yetiladi. Faqat oldin ularga bog'liq bir necha narsani tushunib yetmoq zarur.

1) Sezgilar orqali bilingan narsalarga shubha aralashmaydi. Masalan, bunga ko'z bilan ko'rgan, quloq bilan egaitgan, qo'l bilan ushlagan, burun bilan hidlagan, til bilan totgan narsalar kiradi.

2) Rost xabarlar: Masalan, Hindistonni ko'rmasak ham eshitilgan xabarlardan borligiyi bilamiz.

3) Aql ba'zi karsalarning bor - yo'qligini, rost - yolg'onligini bildiradi. Masalan, kun qiyom vaqtida cho'lda ketayotgan yo'lovchi oldida suv ko'radi. Ammo yurib boray desa yetolmaydi, aql-fikr bilan biladiki, bu suv emas - sarob. Shunday bo'lsada I. Kant aytganidek: " Aql moddiy olamda bor narsalarni isbot qila oladi".

Ilmning asosi bo'lgan aql Qur'oni Karimda ellik marta zikr etiladi. Mujodala surasining 11-oyatida "Mo'minlarning va ilmi ulamolaring darajasini Alloh Taolo

ko'taradi",- deyiladi. Oli Imron surasini 18-oyatida ilm ahli ulug'lanib " Alloh adolat ila turib, albatta, Undan o'zga iloh yo'qligiga shohidlik berdi. Farishtalar va ilm egalari ham. Undan o'zga iloh yo'q. U aziz va hakim zotdir.", deyiladi. Zumar surasining 9-oyatida "Bilgan kishilar bilmagan kishilar bilan barobar bo'la oladimi ?", deyiladi. Hadisi Shariflarda: " Ilm izlash har bir musulmon va muslimaga farzdir ", yoki "Beshikdan to qabrgacha ilm izla", deya uqtiriladi.

Qur'oni Karim va Hadisi Sharif mana shu tarzda ilm izlashga ko'p targ'ib va tashviq qiladi. Bu tashviq faqatgina diniy ilmga taalluqli bo'lmay, balki inson uchun foydali barcha ilmlarga birdek daxldordir.

Ilm barcha olimu fuzalolar tomonidan ulug'langan, muqaddas kitoblarga yuksak ne'mat sifatida e'tirof etilgan. "Ilm nima? ", "Olim kim ?" degan masala, bashariyatning diqqat markazidagi masalalardandir. Ilm xususidagi g'oyalar Hujjatul Islom sifatida tan olingan olim Abu Homid G'azzoliy asarlarida xususan biz yuqorida tahlil qilingan "Ihyo" asarida ko'p uchraydi.

As'ad Mehaniy G'azzoliy tilidan quyidagi fikrni keltiradi: " Jurjondan Tusga qaytishimda yo'lda qaroqchilar uchrab, hamma narsamni tortib olishdi. Ularning ketidan "hammasini sizlarga baxshida etdim, faqat xaltamdagi bir dasta qog'ozlarimni qaytarib beringlar, ular sizlarga kerak emas" deya yalinib yolvordim. Ko'p zorlanganim uchun o'grilar boshligining rahmi keldi shekilli, menga qarab dedi: "Xaltangdagi qog'oz shu darajada qimmatlimidiki, unga yopishib olding ?" "Bir qancha vaqt xonadonimdan uzoqlarda yurganimda bilgan va o'rganganlarimni yozib, to'plab yurgandim". "Dars o'qidim, bilim oldim deganing nimasi, sendan qog'ozlaringai olib qo'ysak, bilimsiz bo'lib qolibsan. qaroqchilar o'g'irlyadigan , tortib oladigan ilm ham ilm bo'ladimi ?" - dedi - da safdoshlariga o'sha qog'oz solingan xaltani qaygarib berishni buyurdi. O'g'rilar sardori tomonidan aytilgan bu gaplar menga Xudoning bir hidoyatiday tuyuldi. O'shandan so'ng shunday harakat qildimki o'rgangan narsam o'zimda qolsin, ya'ni Tusga kelib yodlaganlarimning barini uch yil davomida xotiramga muhrlab oldim". G'azzoliyning ilm haqidagi ta'limogiga e'tibor qaratar ekanmiz, "ilm mutlaq fazilat" ,- deydi u.

Odam farzandi yetishi mumkin bo'lgan eng ulug' martaba, eng oliy daraja saodati abadiyadir, deydi G'azzoliy. Demak, unga bu yo'lda kerak bo'ladigan narsa eng afzal narsa. Saodatga ilm va amalsiz erishib bo'lmaydi. Ilmning dunyodagi manfaatlari esa, azizlik, viqor, hukmdorlarga so'zi ta'sir qilishi va boshqalar tarafidan hurmatga sazovor bo'lish kabilardir. Hattoki har bir millatning esi pastlari ham olimlarni ilmlari tufayli hurmat qiladi. Bu narsa ilmning mutlaq fazilatidir, deydi G'azzoliy.

Dunyoning tartib - nizomi odamlarning amallariga bog'liq. Insonlarning ishlari, kasbu korlari va sanoatlari uch qismdan iborat.

1.Olam oyoqda turishi uchun kerak bo'lgan asoslar. Bular: yeb - ichish uchun ekin ekish; kiyim - kechak uchun to'qimachilik qilish; yashash uchun bino - uy hozirlash; odamlar o'rtasida o'zaro yordam.

2.Bularning har birini yuzaga keltirishga ko'mak beradigan omillar. Masalan, dehqonchilik uchun asbob - uskuna tayyorlab beradigan temirchilik sanoati yoki to'qimachilik uchun zarur bo'lgan paxta tozalash, ip yigirish kabi sanoatlar.

3.Mazkur asoslarni mukamallashtiruvchi va ziynat beruvchi ishlar. Bunga un qilish, pishirish, yuvib tozalash va tikishlar kiradi, deydi G'azzoliy.

Mana shu nuqtai - nazardan kelib chiqib inson a'zolarini ham uch asosga bo'linadi:

1. Qalb, jigar, miya kabi asl a'zolar.

2.Asl a'zolarga xizmatchi bo'lgan a'zolar: oshqozon, tomirlar, asab tolalari, arteriya va vena qon tomirlari

3.Asl a'zolari to'ldiruvchi va ularga ziynat beruvchi a'zolar: tirnoq, barmoq, qosh va boshqalar, deydi G'azzoliy.

Ilm o'rganish bir jihatdan Allohga ibodat bo'lsa, ikkinchi jihatdan Allohga vakil bo'lishdir. Alloh vakili bo'lgani uchun olimning qalbiga o'zining xos sifati bo'lgan ilmni beradi. Olim Allohning eng qimmatbaho xazinasiga xazinachi demakdir. Olimlarniig darajasi islomda ilm olmagan mo'minlarning darajasidan yetti yuz daraja yuqoridir.

Payg'ambarimiz s.a.v. marhamat qiladilar: "Olimlar payg'ambarlarning vorislaridir". "Olimga yerdagi va osmondagi narsalar istig'for aytadi". "Hikmat sharaflı kishining sharaflını ziyoda etadi va qulni podshohlar darajasiga ko'taradi", deydi. Bu hadisda ilmning dunyodagi samarasi bayon qilinyapti. Ammo oxiratdagi mevasi undanda xayrli va abadiydir. Chunki inson bu dunyoda o'zining qilgan amallariga ko'ra oxiratda taqdirlanadi.

Muoz ibn Jabal r.a. ilm o'rganish va o'rgatish haqida quyidagi fikrni keltiradilar: "Ilm o'rganinglar, zero, uni o'rganish - Allohdan qo'rqish, uni talab qilish - ibodat, muzokarasi - tasbih, uni izlash – jihod, bilmaganga o'rgatish - sadaqa, uni o'z ahliga bildirish - Allohga qurbatdir. Ilm tanholikda hamroh, xilvatda do'st, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi dalil, xursandligu xafalik paytida ko'makchi, do'stlar oldida vazir, begonalar oldida yaqin do'st va jannat yo'lining minorasidir. Alloh ilm bilan qavmlarni yuksaltirib, yetakchi qilib qo'yadi. Ular odamlarni yaxshilikka yetaklaydi, boshqalar ularni izidan yuradi. Har bir quruq va ho'l narsalar, hattoki dengizdagi baliqlaru hasharotlar, yovvoyi va barcha hayvonlar, osmon va undaga yulduzlar ularning haqqiga istigfor aytadi",- deydi.

Zero, ilm ko'r qalb ko'zini ochuvchi, qorong'u zulmatda nur bag'ishlovchi va ojiz bandalarga kuch - quvvatdir. Ilm bilan banda abrorlar darajasiga ko'tariladi, oliy martabalarga erishadi. Ilm ustida tafakkur qilish kunduzi ro'za tutganga, uni muzokara etish kechani ibodat bilan bedor o'tkazganga tengdir. Ilm bilan qarindoshlik aloqalari bog'lanadi, harom bilan halol ajratiladi. Ilm peshvo imomdir, amal unga ergashadi. Ilmdan bahramand insonlar baxtli, mahrumlar esa, baxtsizdir.

Mutafakkir olimlarni zamona chiroqlariga o'xshatadi. Har bir olim zamonasining chirogi bo'lib, o'sha zamondagi kishilar ularning nuridan foydalanadilar. Olimlar insonlarni ilm o'rgatish yo'li bilan hayvonlik darajasidan insonlik martabasiga ko'taradi.

Alloh Taoloning Qur'oni Karimda kelgan quyidagi so'zlari ilmning fazilatli ekaniga ochiq dalil hisobdanadi: "Alloh, farishtalar va ilm ahllari - adolat bilan hukm qiluvchi yolg'iz Allohdan o'zga hech qanday tangri yo'q, faqat uning o'zi borligiga

guvohlik berdilar"¹. Bu oyatda Alloh taolo avval o'zini, keyin farishtalarni, so'ngra ilm ahlini zikr etdi. Mana shuning' o'zi ilmning sharafligi, fazilatli va ulug' ekanini anglash uchun kifoya qiladi

G'azzoliyning fikricha, insonlarning butun saodati uchun ikki narsa shart:

1. Ilm. 2. Amal. G'azzoliy butun kuchi bilan islom dinini pok va sof holda saqlash uchun harakat qilgan. Bir kishining baxtli bo'lishi uchun mutlaq ilm kerak, shuning uchun ilm farzdir. Mutafakkir fikriga ko'ra insonni baxtli bo'lishi uchun quruq ilmgina yetmaydi, balki kishi ilmi orqasida tana va ruhini tarbiya qilishga burchlidir.²

Payg'ambarimiz s.a.v.dan: "qaysi amal afzal ?" deb so'rashdi. U zot aytdilarki: "Alloh azza va jallani bilish". So'ng: " Siz qaysi ilmni iroda qilyapsiz ?" deb so'rashdi. Payg'ambar s.a.v.: "Alloh Taoloni bilishni". Shunda: "Biz sizdan amal haqida so'rasak, ilm haqida aytyapsiz ", deyishdi. Payg'ambarimiz s.a.v.; "Alloh Taoloni tanib qilinadigan ozgina amal manfaatli bo'ladi, Allohni bilmasdan qilingan ko'p amallar foyda bermaydi!" dedilar.

Mutafakkir asarida Fath Musaliyning quyidagi fikrlarini keltiradi; "Kasalga obu taom berilmasa, o'ladimi?" deb so'radilar. Atrofdagilar: "Ha, o'ladi", deyishdi. Aytdilar: "qalbga ham uch kun ilm berilmasa, o'ladi". Darhaqiqat, jasadning ozuqasi taom bo'lganidek, qalbniga va hayotning ozuqasi ilmdir. Kim ilmni boy bergan bo'lsa, uning qalbi kasallanadi, kasal qalb o'linga mahkum, lekin o'zi sezmaydi. Jarroh tig'ini bemor kuchli qo'rqinch tufayli sezmagani tufayli, qalbning ham dunyoga muhabbat qo'yishi va u bilan mashg'ul bo'lib qolishi undan sezish va qobiliyatni yo'q qiladi. qachonki o'lim yetib, dunyo mashaqqatlari ustidan tushgan paytda o'zini o'zi halok etganini his etadi, qattiq afsus chekadi, lekin u foyda bermaydi. Bu holat mastga mastlik paytida, yetgan jarohat alamini o'ziga kelganda va xavf uzoq, bo'lg'anda sezgani kabidir.

Najot eltuvchi yo'l mutlaq haqiqatga intilish va unga musharraf bo'lishdir. Insonning qalbi va hayoti iymon nuri bilan munavvar bo'lgandagina yashashi ma'no

¹ Oli Imron surasi. 18-oyat.

² Abdurahmon Sa'diy . Sharq taraqqiyoti funksiyasi tarixidan. Imom G'azzoliy . // Sharq yulduzi - 2001-yil- 2, 133 — 137 - betlar .

kasb etadi, aks holda umrguzaronlik, qorin to'ydirish va dunyo lazzatlarini goh his etib, goho his etmay kun kechirishdan o'zga narsa emas. Odam bolasiga jinsi, irqidan qat'iy nazar ilm olish farz qilindi. Ilmli odam o'z yaratuvchisining hikmatlarini chuqurroq anglab yetadi, uning qudratidan qo'rqib xatolari uchun tazarru qiladi.

Qayerdagi ilm - ma'rifat qadrsizlansa, pokdomon, halol odamlar tahqirlansa, olimlar molparast, dindorlar ta'magir bo'lsa, bu yerda haqsizlik avj olishi, dinu-diyonat tazyiqqa uchrashi, kun kechirish azobga aylanishi turgan gap. E'tiqodidan ayrilgan xalq o'zligini yo'qotadi, urf - odatlarini unitadi, halol bilan haromni farq etmay yashayveradi. Insonni bunday kulfatdan faqatgina ilm qutqarishi mumkin. Buning uchun zalolat avj olgan yurtlarda ilm - ma'rifat tarqatish, xalqdan zo'rlik bilan tortib olingan dinu-diyonatini qaytarib berish lozim.

Inson dunyoga kelar ekan o'zining hayoti, umri mazmunini anglashi, yashashdan maqsad - muddaosini bilishi lozim. Insonning o'z - o'zini anglashi, atrofdagi noz - ne'matlar mohiyatini bilishda ilm kerak bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, G'azzoliyning ilm to'g'risidagi g'oyalari, hozirgi kunda ham xalqimizni ma'rifatli bo'lishiga yordam beradi. Chunki u ilmni mutlaq fazilat deb bilgan va insonni o'z - o'zini anglash va ikki dunyoda ham saodatmand bo'lishiga asosiy kafolat sanagan.

G'azzoliyning ilmlar klassifikatsiyasi.

Ilm barcha olimlar tomonidan ulug'langan qadriyatdir. Ilm haqidagi G'oyalar antik davrning buyuk faylasufi Aristotel (miloddan avvalga 384-322) ta'limotida ham o'z ifodasini toptan. Aristotel butun fanlarga asos solishi bilan birga barcha fanlarni mantiq'ini tuzdi, ilmiy bilish, ya'ni ratsional fikrlashning qurolini ko'rsatdi. U ilmlarni tasnif qildi¹. Aristotel fikricha har bir ilm-o'zining maxsus mantiqiy ko'rinishiga ega. U o'zining birinchi falsafa deb atalgan falsafiy sistemasini uch qismga bo'ladi. Unda oliy mavqe'ni, boshlanish va sababni o'ziga asos qilib olgan, nazariy ilmlarga ajratadi. Nazariy ilmlar mantiq, tabiyot, metafizikadan iborat bo'lib,

¹ Rahimov I. O'tmurodov A. Fanlarning falsafiy masalalari. T : " Faylasuflar milliy jamiyati *", 2005 .13- bet

har biri borliqni ob'yekt sifatida o'rganadi. Ikkinchi qism amaliy ilmlar axloq, iqtisod va siyosatni o'z ichiga oladi.

Shunday qilib Arastu tasnifi quyidagicha:

1.Nazariy ilmlar

mantiq, 2) tabiyot, 3) riyoziyot, 4) metafizika.

II Amaliy ilmlar

axloq, 2) iqtisod 3) siyosat.

III.Ijodiy ilmlar

1)poetika, 2) ritorika, 3) san'at.

G'azzoliy ta'limotida ilmlar tasnifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, u ilmni avvalo **foydali** va **zararli** ilm ga bo'ladi. Foydali ilmlarni ikkiga bo'ladi.

Farzi ayn ilmi.

Farzi kifoya ilmi.

Farzi ayn - bu har bir musulmon uchun o'rganish shart bo'lgan ilmdir . G'azzoliy Farzi ayn bo'lgan ilmni ham ikkiga, 1. Muomala ilmi. 2. Mukoshafa ilmiga bo'ladi¹

Muomala ilmi - har bir inson qilayotgan ishini toki shu ish bajarilguniga qadar, bajarilish jarayoni haqidagi ilmga ega bo'lish. U qalb holatlarini o'rganadi. Ularning ichida sabr, shukr, xavf, rajo (Allohning rahmatidan umid qilish), rizo (qazoi qadarga rozi bo'lish), zuhd, taqvo, minnat Alloh taologa xos ekanini bilish, yaxshi fikrda bo'lish, go'zal xulqlik, birgalikda go'zal hayot kechirish, rostgo'ylik, ixlos kabi holatlar keltiriladi.

Shuningdek, qalb holatlari ichida qoralanadiganlari bor: faqirlikdan qo'rqish, norizo bo'lish, hiyla, gina, mansabparastlik, maqto'vni yoqtirish, g'azab, adovat, qo'pollik, maqtanchoqlik, sergaplik, Allohdan qo'rqmaslik, yengiltaklik kabilar. Ushbu salbiy xislatlarning me'yorlarini, haqiqatlarini, sabablarini, natija va davolarini bilish ham muomala ilmi hisoblanadi.

Mukoshafa ilmi - botiniy ilmdir. Inson qalbining ahvolini bilish yoki inson ichki dunyosini yomon axloq va yovuz xislatlardan bo'shatib, nafsni oliy sifatlar va

¹ Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) T : Movorounnaxr , 2003 . 34 - bet.

ezgu xislatlar bilan bezashdan iborat ilm. U ilm qoralangan sifatlardan pok qalbda paydo bo'ladigan nurdir. Mana shu nur orqali Allohning zotini, komil sifatlarini , dunyo va oxiratni yaratishdagi hikmatlarini, dunyo ustiga oxiratni qo'yish tartibini, vahiy ma'nosini, qalbnı bilishni, farishtalar va shaytonlar orasidagi farqni, oxirat, jannat, do'zax, qabr azobi kabilarni insonlar o'sha nur orqali anglaydi.

Inson yoki jamiyat tanazzuliga sabab bo'ladigan illatlar ya'ni kibru havo, riyo, shuhratparastlik, hasad zolimlik, adolatsizlik kabi g'ayriinsoniy fe'l va tuyg'ular uya quradigan joy "inson ruhi", "inson qalbi" bo'lgani uchun bu ko'rinmaydigan narsalarni ochish, mukoshafa ilmidir. Kashf qilingan narsaga amal qilish esa, muomala ilmidir.

Mutafakkirning fikricha muomala ilmi uch qismdan: 1.E'tiqod, 2.Fe'l (bajarish), 3. Tark qilish ilmi " dan iborat.

E'tiqod ilmi - har bir musulmon banda ma'lum bir yoshga to'lishi bilan o'rganishi shart bo'lgan ilm. Bu shahodat kalimasining ma'nosini o'rganishidir, mana shu holat e'tiqod ilmidir.

Ma'lum bir yoshga yetgan kishi, har bir musulmon uchun o'rganishi shart bo'lgan amalni bajarsa, farzi ayn bo'lgan amalni bajargan hisoblanadi. Bu esa fe'l (bajarish) ilmidir.

3.Tark etish lozim bo'lgan ishlar holat va sharoitga ko'ra har xildir. Masalan: islom diniga muvofiq, iste'molda taqiqlanadigan mahsulotlarni, islom diniga mansub bo'lgan kishiga bu ishlar haromligini bildirish shartdir. Bu esa tark etishi lozim bo'lgan ilmdir.

G'azzoliy ta'limotida farzi ayn bo'lgan ilmlar haqida fikr yuritib, uch narsa insonni halok etadi: o'ta baxillik, ortidan ergashtirib ketadigan xoxish va nafsiga ortiqcha baho berish. Insoniyat uchun barcha yomonliklar shu uch sifatdan paydo bo'ladi. Yomonlikdan bexabar inson, albatga unga tushadi, Yomonlikning sabab va natijasini bilmasdan turib uni davolash mumkin emas,

Mutafakkir farzi kifoya ilmlarini ham quyidagi ikki qismga bo'ladi:

1.Shar'iy ilm.

2.Noshar'iy ilm.¹

¹ Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) T : Movorounnaxr , 2003 . 42 - bet.

Shar'iy ilmlar - bu payg'ambarlardan o'rganilgan, aql bilan bilinmaydigan, tajriba bilan hosil bo'lmaydigan, eshitish ila vujudga kelmaydigan ilmdir.

Shar'iy bo'lmagan ilmlarni mutafakkir uch qismga bo'ladi: 1. Mahmud (maqtalgan). 2. Mazmum (qoralangan). 3. Muboh ilmlar.

Bu ilmlarni tasniflayotgan vaqtda, farzi kifoya bo'lganlar va fazilat sanaltan ilmlarga bo'ladi¹

Farzi kifoya ilmi - bu dunyo ishlarini bajarish uchun kerak bo'ladi, deydi mutafakkir. Bu narsani tib ilmi misolida olib ko'radi. Insonning salomatligi uchun bu ilm biror shaharda bo'lmay qolsa, shahar ahli gunohkor hisoblanadi. Agar uni biror kishi o'rgansa kifoya qiladi, uni o'rganish boshqalardan soqit bo'ladi va bu holat farzi kifoya ilmini mohiyatini belgilaydi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, ko'pchilikni manfaatini belgilaydigan ilmni hamma o'rganishi shart emas, uni umum manfaat miqyosida bir kishining o'rganishi kifoya.

2.Fazilat sanalgan ilmlarga e'tibor qaratganda, jamiyatda mavjud har bir sohani nozik jihatlari bilan chuqur o'rganish nazarda tutiladi.

Mahmud ilmlar - dunyoning manfaatlari ularga bog'langan ilmlardir. Masalan, tibbiyot. Sog' tanda – sog'lom aql qoidasiga amal qilingandagina jamiyat o'z oldiga qo'ygan maqsad sari harakatlana oladi.

Mazmum ilmlar-bir narsani haqiqatidan boshqacha qilib ko'rsatish ilmidir. Masalan, sehr, tilsimot, ko'z boglash kabilardir.

Muboh ilmlar esa - mubolag'asiz yozilgan sherlarni bilish, tarix bilan shugullanish kabilar kiradi.

G'azzoliy shar'iy ilmlarning o'zini ham maqtalgan va qoralangan ilmlarga bo'ladi. Maqtalgan shar'iy ilmlarni: a) asoslar, b) qo'shimchalari, v) muqaddimalar, g) to'ldiruvchilar bor.

Asos bo'lgan ilmlar to'rttadir:

A). 1. Alloh taolloning kitobi.

2.Paygambarning sunnatlari.

3.Ummatning ijmo'si.

¹ Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) T : Movorounnaxr , 2003 . 43 - bet.

4.Sahobiylar asarlari¹, deydi mutafakkir.

B) qo'shimcha ilmlar, asos ilmlarni tushunishdan hosil bo'ladi. Bunda asosiy ilmga e'tibor qilinmaydi, balki aql qaysi holatga yuzlansa, o'shandan kelib chiqadigan ma'nolar inobatga olinadi. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin. Masalan: "qozi g'azabli holatida hukm chiqarmasin ". Bu holatni tahlil qiladigan bo'lsak, qozi qo'rqan holatda, biror kasalligi tufayli, ruhiy toliqish natijasida hukm chiqarmasligi tushuniladi. Bu tushunchalar qozi g'azablangan vaqtida hukm chiqarib bo'lmasligiga qo'shimcha ilm hisoblanadi.

Mutafakkir qo'shimcha ilmlarning o'zini ham ikki qismga bo'ladi:

1.Dunyo ilmlarini tartibga solishga taalluqli ilmlar.

2.Oxirat ishlariga taalluqli ilmlar.²

1)Dunyo ishlarini tartibga solishga taalluqli ilmlarni fiqh ilmi misolida tahlil qilishimiz mumkin. Bu holatni mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, fiqh ilmi bilan shug'ullanadigan kishilar faqihlar deb atalishi ma'lum bizga. Islom qonunchiligida faqihlar biror masalani muhokama qilayotgan vaqtlarida, tildan boshqasiga ahamiyat bermaydilar, Insonning qalbi va u bilan bog'liq bo'lgan holatlar, faqih faoliyatidan tashqaridadir, deydi G'azzoliy. Zero, Payg'ambar qilichdan qo'rqib musulmon bo'lgan kishini o'ldirgan sahobaga "Sen uning qalbini yorib ko'rdingmi?!", deb qalb ishini saltanat va qilich sohiblari tasarrufidan ajratganlar. Faqih qilichdan qo'rqib bo'lsada, kalimai shahodat keltirgan kishini musulmon deb hukm qiladi. Shu bilan birga, faqih qilichdan qo'rqish uning niyatini oshkor qilmaganini, qalbidan jaholat ketmaganini biladi, lekin shunday hukm qilaveradi, O'limdan qo'rqib musulmon bo'lgan kishi kalimani aytish bilan nafsini o'limdan, molini boshqa birov qo'lga o'tishidan saqlaydi. Bu ish dunyoga taalluqli ekani ma'lum.

2)Oxirat ishlariga taalluqli ilm - qalb holatlarini, yaxshi - yomon xulqlarni, Alloh rozi bo'ladigan va sevmaydigan ishlarni o'rgatadi.

¹ Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) T : Movorounnaxr , 2003 . 44 - bet

² Abu Homid G'azzoliy . Ihyou ulumid - din (Din ilmlarini jonlantirish) T : Movorounnaxr , 2003 . 44 - bet

V).Muqaddimot ilmi - boshqa ilmlarni o'rganish uchun kerak bo'ladigan qo'shimcha ilmdir. U ikki ilm o'rtasida vosita vazifasini bajaradi. Til, yozishni o'rganish ham muqaddimot" ilmi deydi G'azzoliy.

G).To'ldiruvchi ilmlar uch qismga bo'linadi:

a)qiroat ilmi.

b)tafsir kabi qur'onning ma'nosiga taalluqli ilm.

v)Qur'on xukmlariga taalluqli bo'lgan ilm.

Yuqorida ko'rib o'tilgan to'rt qism ilm shar'iy ilm hisoblanib, ularning barchasi maqtalgan, shu bilan birga ular farzi kifoyadir.

G'azzoliy falsafani yaxlit fan deb emas balki to'rt qismdan iborat deb aytadi.

Birinchisi: handasa va hisob ilmi. Bu ikki ilmni o'rganish muboh bo'lgan ilm. Ularni o'rganish G'azzoliy fikricha faqatgina umumiy mazmum darajaga o'tib ketishi mumkin bo'lgan odamlarga man qilinadi. Bu ikki ilm bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchiligi bid'at chegarasigacha chiqib ketishgan. Bu hol suzishni bilmaydigan bolaning anhor bo'yida turishidan yoki islomga yangi kirgan odamning kufrga kirib ketishidan qo'rqib, kofirlarga aralashishdan qaytarilganiga o'xshaydi.

Ikkinchisi: Mantiq ilmi. Bu ilm dalil va uning shartlari, had va uning darajalari haqida bahs yuritadi.

Uchinchisi: Ilohiyot. ilmi. U Alloh taoloning zoti va sifatlari haqida bahs yurituvchi fandir. Bu fan kalom ilmi deb ham yuritiladi.

To'rtinchisi: Tabiiy fanlar ilmi. Bulardan ba'zilar shariat va dinga teskari, yana ba'zilar borliqdagi jismlarning xususiyatini, qanday qilib boshqa shaklga o'tishlari, o'zgarishlarini tadqiq qiladi. Bu holat tabiblarning qarashiga o'xshaydi. Tabiblar inson tanasiga qanday kasallanish va qanday sog'ayish xususiyatlari jihatidan, tabiiy fan olimlari esa, jismlarning o'zgarishi va harakatlanishi jihatidan qaraydilar. Tabib Allohga ilmi orqali yaqin bo'ladi.

G'azzoliy fiqh haqida fikr yuritib, fiqh dunyo ilmi va faqihlar dunyo olimlaridir deb ta'kidlaydi. Alloh taolo Odam alayhissalomni tuproqdan yaratdi, u kishining zurriyotlarini tuproqdan bo'lgan otaning maniyidan va onaning ko'krigidan otilib chiquvchi suvdan yaratdi. Zurriyotlarni otalar belidan onalar qorniga, undan dunyoga,

keyin esa qabrga, qabrdan hisob maydoniga, undan jannat yoki do'zaxga chiqaradi. Oxiratga ozuqa to'plash uchun Alloh dunyoni yaratdi. Insonlar dunyoda adolatli yashasalar, dushmanliklar yo'qoladi, faqihlarga ehtiyoj sezilmaydi. Mana shunday holatda insonlarni boshqaradigan rahbarga ehtiyoj seziladi. Rahbar insonlarni boshqarish uchun qonunga muhtoj bo'ladi. Insonlar bir - birlari bilan nizolashgan vaqtda ularni murosaga keltiruvchi kishilar faqihlardir. Shunday ekan faqih dunyo ishlarida insonlarni to'g'ri yo'lga soluvchi rahbar. Mana shu jihati bilan fiqh dunyo ilmi hisoblanadi.

G'azzoliy Alohga yaqinlik hosil qiluvchi narsalarni uch qismga ajratadi.

1.Mujarrad (yolg'iz) ilm. Bu mukoshafa ilmi.

2.Mujarrad (yolg'iz) amal. Masalan, sultonning adolati va xalqni adolat ustida ushlab turishi.

3.Ilm amaldan tarkib toptan harakat. U oxirat yo'lining ilmidir.

G'azzoliy ta'limotidagi ilmlar tasnifini Baxodirov P.M. tasnifi bilan taqqoslaydigan bo'lsak, Baxodirov R.M Abu Homid G'azzoliyning "Ixyou ulumid - din" (Din ilmlarini jonlanishi), O'zbekiston Respublikasi FA sharqshunoslik institutining 313 raqamli arab tilidagi qo'lyozmasi, uning qisqartirilgan variantga "Kimiyo saodat" (Saodat kimiyosi), O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining 1840 raqamli fors tilidagi qo'lyozmasi asosida ishlab chiqqan. Unga muvofiq G'azzoliy barcha ilmlarni ikki guruhga bo'lib, birinchi o'rinda diniy ilmlarni qo'yadi va quyidagi tasnifni beradi.

1.Diniy ilmlar.

Ular quyidagilarga bo'linadi:

1.Qalbga tegishli bo'lgan ilmlar: a)qalb holatiga taalluqli ilmlar; b) e'tiqodga tegishli ilmlar .

2.Badan a'zolariga taalluqli bo'lgan ilmlar: a) tahorat qilish va namoz o'qishga oid ilm; b) ro'za tutish ilmi; v) zakot to'lash ilmi; g) haj qilish ilmi; d) nikoh ilmi.

II.Falsafiy (aqliy, idrokiy) ilmlar.

Ular oltiga bo'linadi:

1.Riyoziyot. 2.Mantiq. 3.Tabiyot. 4.Metafizika. 5-Siyosat. 6.Axloq.

Ko'p tasniflarda (falsafa fani tarkibiga riyoziyot kiritilgan. Masalan, Kindiy falsafani son va garmoniya (mutanosiblik) haqidagi fan bo'lib, u handasa va yulduzlar haqidagi fanlarni o'rganuvchi riyoziyotga asoslangan deydi. Shuning uchun riyoziyotni Kindiy, Farobiy, Ibn Sino, G'azzoliy falsafa tarkibiga kiritganlar.

G'azzoliy fizikani tabiat haqidagi ilm deb hisoblaydi va uni sakkizta asosiy bo'lim va yettita bo'limchaga ajratadi.

Asosiy bo'limga quyidagilar kiradi:

- 1.Bo'linish, harakat va o'zgarishlar haqida - "Tabiatni o'qish" kitobida.
- 2.Olamda elementlarning joylashishi, ya'ni osmon va to'rt element ularning tabiati va sababi haqida - Arastuning "Samo va olam haqida"gi kitobida.
- 3.Paydo bo'lish, yo'q bo'lish, ko'payish, o'sish, keksayish - "Paydo bo'lish va yo'q bo'lish haqidagi" kitobida.
- 4.To'rt element aralashishi natijasida sodir bo'ladigan hodisalar (yomg'ir, bulut, chaqmoq, shamol va h.k.o.).
- 5.Mineral jismlar xususida.
- 6.O'simliklar xususiyatlari xususida.
- 7.Hayvonlar haqida - Arastuning "Hayvonlar tabiati" haqidagi kitobida.
- 8.Tirik nafs va qabul qiluvchi kuchlar.

Tabiat haqidagi ilmning bo'limchalari:

a) tib ilmi (sogliq, inson tanasining kasallanishi), b) astrologiya, v) fiziognomika, z) tushlar ta'biri, d) sehr ilmi, s) afsun ilmi, j) alkimiyo.

Bundan ko'rinib turibdiki, uning ilmlar tasnifida diqqat asosan muallif haqiqiy ilmlar deb hisoblagan, diniy ilmlarni keng ochib berishga qaratilgan. Lekin G'azzoliy diniy ilmlarni birinchi o'ringa qo'ysa ham, unga qalbga tegishli ilmlar va badan a'zolariga taalluqli bo'lgan ilmlar - tahorat, ro'za, zakot, haj, nikoh ilmini kiritadi. G'azzoliy singari diniy ilmlarni birinchi o'ringa qo'ygan Al Hiraviy tasnifi ham mavjud¹.

¹ Baxodirov P. XIV - XVI asrlar musulmon Sharqida ilmlar tasnifi masalasining yoritilishli //Sharqshunoslik - 1995 - № 6. 21 -bet.

Allohga yaqinlashtiruvchi vosita bu ilmdir. Mana shu jihati bilan ham ilm mutlaq fazilat hisoblanadi. Har ilm amal, ammo amal, ilm emas.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, G'azzoliyning ilmlar to'g'risidagi g'oyalari, hozirgi kunda ham xalqimizni ma'rifatli bo'lishiga yordam beradi. Uning yana bir o'ziga xosligi, ilmlarni tasniflab uni xillarga ajratganidadir.

Qiyosiy tahlil:

I. G'azzoliy va Forobiyning fanlar tasnifi.

G'azzoliy talqinida ilmlar tasnifi:

Diniy ilmlar	Falsafiy ilmlar
Qalbga tegishli bo'lgan ilmlar	Riyoziyot
Qalb holatiga ta'luqli bo'lgan ilmlar	Mantiq
E'tiqodga ta'luqli bo'lgan ilmlar	Tabiiyot
Badan a'zolariga ta'luqli bo'lgan ilmlar	Metafizika
Tahorat qilish va namoz o'qish tadbiriga oid ilmlar	Siyosat
Ro'za tutish ilmi	Axloq
Zakot to'lash ilmi	
Haj qilish ilmi	
Nikoh ilmi	

Forobiyning asarlarida ilmlarning guruhlanishi:

Til haqidagi ilmlar	Mantiq	Tibbiyot va ilohiyot	Shaxsni boshqarish haqidagi ilmlar
Tushuncha	Arifmetika	Kalom ilmi	Siyosat
Gap	Geometriya	Tib ilmi	Qonunshunoslik
Sillogizm	Optika		
Isbotlash	Planetalar		
Dialektik usul	Musiq		
Sofistik	Og'irlik haqida		
Notiqlik	Mexanika		
She'riyat	Arifmetika		

II. Imom G'azzoliy va Rene Dekart

Imom G'azzoliyning jahon falsafasida tutgan o'rnini tushunib olish uchun dunyoda dong'i ketgan musulmonmas birorta faylasuf bilan solishtirib ko'rish lozim bo'ladi. Keling, o'sha faylasuf ularning eng kattasi, yangi falsafa otasi unvonini olgan fransiyalik mashhur faylasuf Rene Dekart bo'lsin. Dekartni mashhur qilgan asosiy narsa uning shak nazariyasidir. U haqiqiy ma'rifatga erishishdan oldin shak zarurligini ta'kidlaydi. Uning bu nazariyasi Imom G'azzoliyning shaklariga juda ham o'xshaydi. G'arbda Imom G'azzoliyni bilmaganlari uchun shak nazariyasi faqat Dekartga tegishli degan tushuncha ila uni ko'klarga ko'tarib maqtaydilar. Sharqda Imom G'azzoliyni bilganlari uchun buyuk faylasuf Dekartning nazariyasiga o'xshash gapni aytgan shaxs ham borligini eslab qo'yadilar. Ba'zi birlari jur'at qilib Dekart va Imom G'azzoliyning shaklarini solishtirib ham qo'yadilar. Ammo bu boradagi haqiqatni hech kim bilmaydi. Ushbu haqiqat ila bu satrlarning kotibi ustoz Muhammad Sa'id Ramazon Butiyning «Shaxsiyotun istavqafatni» nomli kitoblaridan bildi. U kishi mazkur kitobning 99 – 100 betlarida quyidagilarni yozadilar:

«So'ngra bu masalada barcha ikkilanish va noaniqlikka chek qo'yadigan vasiqa – hujjat yuzaga chiqdi. Uni Mahmud Biyju doktor Zaquzqdan naql qildi. Unda aytilishicha Tunislik tadqiqotchi Usmon al-Kaok Dekartning kutubxonasida «al-Munqiz minaz Zolal» kitobining tarjimasini topgan. Unda Imom G'azzoliyning «Shak yaqiyn – ishonchli ilmning birinchi pog'anasidir» degan mashhur iborasi Dekartning e'tiborini jalb qilgani belgisi bor edi. Dekart o'sha iboraning tagiga qizil qalam bilan chizib qo'ygan va uning to'g'risiga, hoshiyaga «Bu bizning nazariyamizga ko'chiriladi» deb yozib qo'ygan ekan.

Ensiklopediyachi tarixiy tadqiqotchi olim Usmon al-Kaok 1975 – melodiy sanada Jazoirning Annaba shahrida bo'lib o'tgan Islom fikrining o'ninchi uchrashuvida ma'ruza qildi. Unda qanday qilib Dekart Imom G'azzoliyning nazariyasini o'ziniki qilib olgani haqida batafsil to'xtalib o'tdi. Dekartning o'z qo'li

bilan hoshiyaga yozgan narsasini o'qiganini ham gapirib o'tdi. Men o'sha uchrashuvda ishtirok qilgan va uning mazkur ma'ruzasini eshitgan yuzlab odamlardan biri edim». ¹

¹ Imom G'azzoliy-www.islom.uz